

**Yu.A. NAVRUZOV**

# **IQTISOD VA TADBIRKORLIK**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2008*

*Oliy va o'rta maxsus kash-hunar ta'limi o'quv  
metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi  
Kengash nashrga tavsija etgan*

**Taqrizchilar:**

**M. Saidova** — Zangiota tumani qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji  
bosh hisobchisi, buxgalteriya hisobi o'qituvchisi.

**Sh.Sh. Ramazonov** — Zangiota tumani qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji  
informatika fani o'qituvchisi

Bozor iqtisodi sharoitida axborot eng qimmatli tovar hisoblanadi. Axborot resurslaridan foydalanmay turib biznesni boshqarib bo'lindaydi.

Ushbu o'quv qo'llanmada agrokonsalting sohasida yo'lga qo'yilgan konsalting xizmatlari va bu xizmatlardan foydalanib samaradorlikka erishish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari bo'lmish fermer xo'jaliklari va shu soha bilan hamkorlik qilayotgan kollejlarning iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun agrokonsalting xizmatlari haqida ma'lumot olish juda muhimdir.

O'quv qo'llanma kasb-hunar kollejlari talabalari, fermerlar, iqtisodchilar va shu soha bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

N 3001010000-7 – 2008  
360 (04) 2008

ISBN 978-9943-05-173-7

© Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008- y.  
© Yu. Navro'zov, 2008- y.

## SO'ZBOSHI

Bozor munosabatlarining rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatining yangi turlari keng yoyilishiga olib kelmoqda. Mamlakatimizda axborot biznesi sohasida yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Axborot xizmatining takomillashgan yangi shakllaridan biri qishloq xo'jaligi sohasiga oid xizmatlarni amalga oshiruvchi Agrokonsalting xizmati tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Bu tarmoq o'z maqsadiga ko'ra bozor munosabatlarini iqtisodiy jihatdan izga solib turilishini zarur axborot bilan ta'minlaydi. Aynan axborot yetishmasligi yoki mavjud emasligi xo'jalik faoliyatini yuritayotgan korxona yoki firmaga jiddiy ziyon yetkazadi. Mazkur holatni hudud yoki mintaqaga miqyosida tasavvur qiladigan bo'lsak, bozor munosabatlariga tahdid solayotgan iqtisodiy xatarning ko'lami oydinlashadi. Demak, axborot bozor iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchlaridan biri ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Mazkur o'quv qo'llanma tadbirkorlik faoliyati yo'naliishlaridan biri Agrokonsalting xizmati va uning iqtisodiyot tarmog'i sisatidagi o'rni hamda ahamiyatiga bag'ishlanadi. Qo'llanma «Iqtisod va tadbirkorlik» fani bo'yicha iqtisodiyotning konsalting xizmatlari tarmog'ida olib borilayotgan iqtisodiy tadqiqotlar natijalarining ilk bor chop qilinayotgan qismidir.

Iqtisodiyotning rivojlanishi mavjud muammolarni yechish bilan birgalikda yuz beradi. Zero, muammolarning yechimi uning rivojlanishini belgilaydi. Shunday ekan, Agrokonsalting xizmati qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti oldidagi muammolar va ularning yechimiga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu muammolar mazmunini bilish shu sohaga daxldor fuqarolar, ayniqsa, kasb-hunar kollejlariда tafsil olayotgan talabalar uchun juda zarurdir. Agar mutaxassis bu bilimlarni egallamasa, iqtisodiyot oldidagi muammolarni ~~ta'limiy yiloyati~~ tushunchaga ega bo'lmasa va, nihoyda ~~DEENIY NOMIDAGI TA'LIMLAR~~ imaganda ~~KAMAKALING~~ xizmatlaridan foydalananib muammolarni ~~NECHTA~~ usulularini ~~IZMIZLASH~~ tirmascha, ko'plab qiyinchiliklarga duch kechishlab yuborishimiz

Qo'llanmaga Sirdaryo viloyatidagi «Guliston Agrokonsalting», Jizzax viloyatidagi «Zomin Agrokonsalting» xususiy korxonalarining ish tajribasi va ular tomonidan joriy etilgan konsalting xizmatlari mazmuni asos qilib olingen. Xususan, «Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan «Fermer xo'jaliklari faoliyatini Axborot-konsalting biznesi orqali barqarorlashtirish texnologiyalari» tarkibiga kiruvchi konsalting xizmatlaridan keng foydalaniłgan. Ta'kidlash o'rinniki, bayon etilgan nazariy xulosalar mazkur mavzu bo'yicha tadqiqot natijalarini to'liq ifodalamaydi, balki uning bir qirrasini ohib beradi, xolos. Zero, konsalting xizmati buyurtmachining talabiga ko'ra so'ralgan muammolarni talab mazmunidan kelib chiquvchi yo'nalishda va hajmda tayyorlab berishdan iborat bo'lishini doimo yodda tutish zarur. Shunday ekan, asosiy maqsad tadbirkorlik ruhiyati bilan muammolar yechimini o'rganish bo'lib qoladi.

O'quv qo'llanma ikki qismidan iborat.

Birinchi qism uch bobni tashkil etadi.

I bob. Bozor infiltruzilmalari haqida tushuncha.

II bob. Agrokonsalting.

III bob. Fermer xo'jaliklari faoliyatining Axborot-konsalting biznesi orqali barqarorlashtirish texnologiyalari.

Ikkinci qism fermerlar uchun agrokonsalting xizmatlari to'plami deb ataladi. Bu qismda tadbirkorlik, biznes kabi ko'plab masalalar bo'yicha fikr yuritiladi, ularda mavjud bo'lgan muammolar, ularning yechimlari haqida foydali fikrlar bildiriladi.

O'quv qo'llanmaning yaratilishida yaqindan yordam bergan Zangiota tumani qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji o'qituvechilari hamda Sirdaryo viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining agrotexnologiyalar masalalari bo'yicha o'rinnbosari A.A. Ibdullayevga muallif o'z ining samimiyl minnatdorchiligini bildiradi.

**I BOB. BOZOR INFRATUZILMALARI HAQIDA  
TUSHUNCHА****1. Bozor infratuzilmasi turlari va ularning bozor  
munosabatlaridagi o'rni**

Infratuzilmalarning rivojlanganlik darajasi bilan iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Bozor xo'jaligi talab va taklif qonuniyati asosida harakatlanishi sababli infratuzilmalar faoliyatini zaruriyatga aylantiradi. Infratuzilmalar o'z mohiyatiga ko'ra turli-tuman ishlab chiqarishlar, xizmatlar va mahsulotlar yaratish va taklif qilishni anglatadi. Infratuzilmalarni xizmat ko'rsatish sohasiga taalluqliligiga qarab ishlab chiqarish infratuzilmalar, ijtimoiy infratuzilmalar va bozor infratuzilmalariga bo'lish mumkin. Har bir infratuzilma muayyan vazifani bajaradi hamda o'z sohasiga ixtisoslashib boradi, ya'ni o'z sohasi bo'yicha eng mukammal xizmat ko'rsata oladigan darajaga etishadi.

Bozor infratuzilmalari qatoriga tijorat banklari, birjalar, kon-salting firmalari, axborot va marketing markazlari, biznes inkubatorlar, reklama agentliklari, lizing hamda sug'urta kompaniyalari, auditorlik korxonalari va boshqalar kiradi. Ular tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ko'maklashadi, bozor munosabatlarini tashkil etadi, bozorda tovar-pul harakatini amalga oshiradi. Ko'rsatgan xizmatlari uchun shartnoma asosida haq oladi va shuning evaziga faoliyatini ta'minlaydi. Alovida tovar ishlab chiqaruvchi, masalan, paxta yoki g'alla yetishtiruvchi fermer xo'jaligi yuqori professionallikni va tegishli imkoniyatni talab qiladigan ish va xizmatlarning barchasini bir o'zi uddalay olmaydi. Shu sababli infratuzilmalar xizmatidan foydalanish har tomonlama samarali va tejamlidir. Qishloq joylarida fermer xo'jaliklarining samarali ish yuritishi hududlardagi infratuzilmalar tarmog'ining ko'pligiga va sifatli xizmat ko'rsatishiga bog'liq.

Mamlakatimizda bozor infratuzilmalari tashkilotlari faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun huquqiy shart-sharoitlar va asoslar yaratilgan. Bozor infratuzilmalari faoliyatini tartibga soladigan qator qonunlar qabul qilinib, me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Masalan, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Birjalar va birja faoliyati

to'g'risida», «Lizing to'g'risida», «Auditorlik faoliyati to'g'risida», «Sug'urta to'g'risida», «Reklama to'g'risida», «Kredit uyushmalari to'g'risida»gi qonunlar qabul qilingan. Ayniqsa «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonun barcha toifadagi tadbirkorlar faoliyatini huquqiy himoya qilishga qaratilgan.

Qishloq infratuzilmalari faoliyatini rivojlantirishning ahamiyatini hisobga olib mamlakatimizda «2006—2010- yillarda qishloq joylarida servis xizmatlarini rivojlantirish Dasturi» qabul qilingan va u izchil amalga oshirilmoqda. Dasturning III—VI boblarida «Agrobiznesni qo'llab-quvvatlashda adresli huquqiy, axborot, uslubiy va maslahat berish tizimini rivojlantirish; qishloqda bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari faoliyat doiralarini kengaytirish, tadbirkorlar tizimida, infratuzilma va agrobiznes sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta o'qitish bilan bog'liq tadbirlar belgilangan. Mazkur tadbirlar qishloq joylarida infratuzilma subyektlari faoliyatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

Qishloq joylarida infratuzilma subyektlari faoliyatini rivojlantirish ko'p jihatdan shu sohada ishlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash va ularning malakalarini oshirishga bog'liq. Shu ma'noda kasbhunar kollejlarini bitirayotgan mutaxassislarga talab juda katta. Ayniqsa investitsiyalar jalb etish va marketing sohalari infratuzilmalariga malakali mutaxassislар juda zarur.

## **Savol va topshiriqlar**

- 1. Bozor infratuzilmalari nima?*
- 2. Infratuzilma turlarini sanab bering.*
- 3. Siz yashaydigan hududda qanday infratuzilmatar bor va ular kimlarga xizmat ko'rsatadi?*

## **2. Konsalting va konsalting xizmati**

Bozor munosabatlari ishtirokchilari bozorda tovar (mahsulot) ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi, tayyorlovchi yoki umuman shu jarayondagi biror vazifani bajaruvchi bo'lsalar, ikkinchi tomonda iste'molchilar, ya'ni shu mahsulot yoki xizmatni qabul qiluvchilar turadi. Har ikkala tomonni ham bozor haqidagi ma'lumotlar qiziqtiradi. Iste'molchini arzon va sifatli mahsulot qiziqtirsa, tovar ishlab chiqaruvchini doimiy xarid quvvatiga ega bo'lgan xaridorlar qiziqtiradi. Mana shu qiziqishning hosilasi bo'lgan axborotlarga

nisbatan paydo bo'ladigan ehtiyoj konsalting xizmatiga bo'lган talabni vujudga keltiradi.

Bozor haqida moliyaviy va iqtisodiy axborotlarni to'plab, qayta ishlab yangi axborot yaratish va uni tijorat asosida tarqatish faoliyati **konsalting** deyiladi. Konsalting faoliyatini asosan yuridik shaxs huquqidagi konsalting firmalari va korxonalari, shuningdek, jismoniy shaxslar ham yakka tadbirkor sifatida amalga oshiradilar.

Konsalting korxonasi axborot sohasidagi xizmatlarni bajarishi uchun uning tasarrufida yoki doimiy foydalanishida xalq xo'jaligining turli sohalariga oid ma'lumotlar bazasi bo'lishi lozim. Bunday ma'lumotlar asosan iqtisodiyot tarmoqlarining o'zidan sorib olinishi kerak. Ma'lumki, kelib chiqishi noaniq ma'lumotga asoslanib tijorat axboroti tayyorlash va uni tarqatish, ushbu axborotdan foydalanib biror harakatni amalga oshirgan korxonaning ziyon ko'rishiga sabab bo'lishi mumkin. Tegishli shart-sharoitlar hisobga olingan sharoitda konsalting mahsulotining yaroqsiz deb topilishi konsalting korxonasiga qo'shimcha javobgarlik mas'uliyati yuklanishiga olib keladi. Bunday noxush vaziyatlarning oldini olish uchun mutasaddi tashkilotlar tomonidan rasman tasdiqlangan axborot manbalaridan foydalangan ma'qulroq bo'ldi. Masalan, statistika muassasalarining axborotlari yoki boshqa infratuzilmalarning kuzatuvlari natijasida chop qilingan axborot byulletenlaridan foydalanish mumkin. Albatta, har qanday axborotning aniqlik darajasi nisbiy bo'ldi. Bashorat rejali tuzilganda tavakkal qilishga ham to'g'ri keladi, lekin ishonchli ma'lumotlar tadbirkorlik xatarini qisman bo'lsa-da, imkon qadar pasaytiradi.

Hozirgi vaqtida konsalting xizmatlari turlari ichida yangi tashkil etilayotgan korxonalarning ta'sis hujjatlarini tayyorlash, biznes rejali tuzib berish, kredit buyurtmanomalarini ishlab berish eng faol talab qilinayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ushbu hayotiy zarur xizmat turlarini bajarib bergen firmalarga nisbatan e'tirozlar yoki nizo holatlari uchramaydi. Bu ho'lat konsalting xizmatining sifati yuqoriligidan darak beradimi? Yo'q aslo. Aksincha, ko'pgina korxonalarning nuqsonlari aynan ta'sis hujjatlarida, biznes rejani tuzishda talab va taklif, bozordagi raqobat muhiti yetarli aniqlikda e'tiborga olinmayotgani ko'zga tashlanmoqda. Natijada bunday sifatsiz konsalting xizmatlaridan foydalangan subyektlar jiddiy ziyon ko'radi. Buning sabablaridan biri sohada raqobat muhiti yaratilmaganligi natijasida professional konsalting xizmati ko'rsatuvchilariga talabning shakllanmasligidir.

Sifatli konsalting xizmati yuksak aqliy salohiyatdan foydalanishni ko'zda tutadi. Shundan keyingina ta'sis hujjatlari yoki biznes rejasi tuzib berilayotgan korxonaning turdosh korxonalar bilan yonmayon qanday qilib faoliyatini davom ettirib keta oladi, raqobatga bardosh bera oladimi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining qaysi ko'lami eng yuqori samara beradi, xarajatlarni qoplash muddatlari, foya me'yori qanchani tashkil etadi kabi ko'plab savollarni o'z ichiga oladi. Muhimi, bu savollarning bashorat qilinayotgan ko'lami rejada ko'rsatilgan sanada haqiqiy holatga yaqin bo'lishi kerak. Ana shundagina konsalting faoliyati buyurtma qilingan xizmat bo'yicha o'zining vazifasini bajargan bo'ladi. Konsalting xizmati tadbirkorni nooqilona qarorlar qabul qilishdan, ya'ni ziyon ko'rishga sabab bo'luvchi harakatlardan himoya qilishi kerak.

Buning uchun, albatta, konsalting xizmati ko'rsatuvchi korxonaning o'zi yuqori malakali mutaxassislarga ega bo'lishi va eng muhimmi, sifatli konsalting mahsulotini ta'minlaydigan axborot resurslarini yaratishi lozim. Agar shartnoma intizoni va raqobat sust bo'lgan joyda arzon va sifatsiz mahsulot ham talabni qondirgan bo'lsa, shartnomaviy majburiyat uchun javobgarlik mas'uliyati kuchli bo'lgan va raqobatli iqtisod shakllantirilgan holatlarda faqat sifatli konsalting mahsulotigagina talab shakllanadi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. *Konsalting nima?*
2. *O'zingiz yashaydigan hududdagi konsalting xizmati ko'rsatuvchi firmalarni bilasizmi?*
3. *Konsalting firmasiga buyurtma berish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?*

### **3. Konsalting faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari.**

#### **O'zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonuni**

Konsalting xizmati axborot sohasidagi tadbirkorlikning bir turi bo'lganligi sababli konsalting xizmati faoliyatini bevosita tartibga soladigan qonunlardan biri O'zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunidir. Mazkur qonunning asosiy vazifalari axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlariga rioya etilishini, har kimning axborotni erkin va

moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, foydalanish va saqlash huquqlari ro'yobga chiqarilishini, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishini hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashdan iborat.

Qonunda axborot mulkdori, axborot sohasi, axborot egasi hujjalashtirilgan axborot haqidagi asosiy tushunchalar aniq itodalangandir. Konsalting xizmati tijorat (foyda olish) maqsadlarida faoliyat yuritar ekan, axborotni yaratish, to'plash, qayta ishlash va uni tarqatish bilan shug'ullanadi. Bunda u axborot mulkdori va axborot egasi sifatida muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Qonunda axborot mulkdori va axborot egasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

«Axborot mulkdori» — o'z mablag'iga yoki boshqa qonuniy yo'l bilan olingen axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

«Axborot egasi» — qonunda yoki axborot mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Konsalting xizmati ko'rsatuvchilarining axborot erkinligi axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va saqlash huquqi bilan kafolatlangan. Axborot berganlik uchun belgilangan tartibda haq olinishi mumkin. Binobarin, tarqatilayotgan axborotning haqqoniyligi uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Konsalting faoliyatini tartibga soladigan boshqa qonun hujjalari ham mavjud bo'lib, bu qonunlar umumiy asoslarda huquqlarni vujudga keltiradi va majburiyatlar yuklaydi. Masalan, fuqarolik Kodeksi. «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonun, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kaflatlari to'g'risida»gi qonun va boshqalar. Eng ahamiyatlisi, mijoz va buyurtmachi o'rtasida o'zaro tuzilgan shartnomada mazmunidan kelib chiquvchi huquq va majburiyatlardir. Chunki har bir korxona o'ziga olgan majburiyatlari uchun butun mol-mulki bilan javob beradi. Buning ma'nosi basharti majburiyatlarni bajarilmay qolganda ko'rigan zararni qoplash aybdor tomonning mulki hisobidan undiriladi.

## Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunning ahamiyatini qisqacha so'zlab bering.
2. Konsalting faoliyatini tartibga solishning ahamiyati nimada?
3. Eng asosiy tushunchalar mazmunini ayrib bering.

## **II BOB. AGROKONSALTING**

### **1. Agrokonsalting xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish**

I. Agrokonsalting solasidagi xizmatlar mijoz (buyurtmachi) va bajaruvchi (konsalting korxonasi) o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida tashkil etiladi. Shartnoma erkin holda tuziladi, har ikki tomon o'zining imkoniyatlari doirasida huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlar oladi. Shartnoma shartlari erkin ifoda etiladi va shu bilan birgalikda tomonlar ushbu sohaga oid tasdiqlangan shartnoma namunalaridan ham foydalanishlari mumkin. Masalan, hozirgi vaqtida axborot sohasida faoliyat yuritayotgan subyektlar quyidagi mazmundagi shartnomalardan foydalanmoqdalar:

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga konsalting mahsulotlari va xizmatlarini (keyingi o'rnlarda — «Xizmatlar» deb yuritiladi) yetkazib berish, «Buyurtmachi» ushbu «Xizmatlar»ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

«Xizmatlar»ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek, xizmatlarni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi.

## **II. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **2.1. «Xo'jalik»ning huquqlari:**

- «Bajaruvchi»dan mazkur shartnomaga muvofiq xizmat ko'rsatilishini talab qilish;
- shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Bajaruvchi»dan talab qilish.

### **2.2. «Xo'jalik»ning majburiyatları:**

- o'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan «Xizmatlar»ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;
- «Xizmatlar»ga mazkur shartnomada kelishilgan narx bo'yicha, shartnoma imzolangan paytdan boshlab 2 kun mobaynida haq to'lash.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

— ko'rsatiladigan «Xizmatlar» uchun oldindan \_\_\_\_\_ so'm haq to'lanishini va «Xizmatlar» bajarilgandan keyin amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob-kitob qilinishini «Xo'jalik»dan talab qilish;

— berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan «Xizmatlar»ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Xo'jalik»dan talab qilish.

2. 5.

2.6. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

— «Xo'jalik»ka «Xizmatlar»ni mazkur shartnomaga muvofiq muddatlarda, sifatli qilib va talab qilingan miqdorda ko'rsatish.

2.7. Xizmatlar bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash.

2.8.

### **III. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI**

3.1. Mazkur shartnomaning qiymat bahosi \_\_\_\_\_ so'mni tashkil etadi. Xo'jalikning talab qilgan summasiga yoki uning roziligi bilan iste'mol qilingan qo'shimcha xizmatlar summasiga ko'payishi mumkin.

Yetkazib beriladigan «Xizmatlar»ning bahosi mazkur shartnomaga ilovada ko'rsatilgan.

3.2. «Xo'jalik» ko'rsatiladigan «Xizmatlar» turkumi summasining foizi miqdorida oldindan haq to'laydi. Ko'rsatilgan «Xizmatlar» uchun yuk xati yoki taqqoslash dalolatnomasi imzolanganidan keyin \_\_\_\_\_ kun muddatda uzil-kesil hisob-kitob qilinadi.

3.3. Ko'rsatilgan «Xizmatlar» uchun \_\_\_\_\_

(hisob-kitob shakli ko'rsatiladi)

yo'li bilan hisob-kitob qilinadi.

### **IV. SHARTNOMANING BAJARILISHI**

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatari shartlari hamda talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak.

Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnomalar bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnomalar bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnomalar shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. «Xizmatlar» qabul qilish-topshirish dalolatnomalari yoki yaxatlari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana «Xizmatlar»ga haq to'lash bo'yicha «Xo'jalik» majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. Shartnomada nazarda tutilgan «Xizmatlar» ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Xo'jalik»ning buyurtmanomasi ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi.

## V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Agar ko'rsatilgan «Xizmatlar»ning sitati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lмаган «Xizmatlar» qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. «Xizmatlar» ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda «Bajaruvchi» «Xo'jalik»ka kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan «Xizmatlar» qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnomalarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va «Xizmatlar» ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmaligini tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.3. Ko'rsatilgan «Xizmatlar» uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda «Xo'jalik» «Bajaruvchi»ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.4. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi me'yorlariga muvofiq qo'llaniladi.

## **VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

## **VII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI**

7.1. Mazkur shartnomma mazkur shartnomaga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab amalga kiradi va tomonlar usnu shartnomma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi.

7.2. Tomonlar o'rtaсидаги munosabatlар ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatilishi mumkin.

7.3. Keyingi davrga shartnomaviy munosabatlар davom ettirishga kelishilganda ushbu shartnomma nomuayyan niuddatgacha o'z kuchida qoladi. Bu holda tuman qishloq va sav xo'jaligi bo'limga joriy yil uchun ro'yxatdan o'tkazilgan sanasi va ro'yxat raqami shartnomma majburiyatlarini bajarish uchun asos bo'ladi.

## **VIII. YAKUNIY QOIDALAR**

8.1. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharu biian haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnomma imzolanganidan boshlab kuchga kiradi, va tomonlarning har biriga bir nusxadan, tuman qishloq va sav xo'jaligi bo'limga bir nusxa, jami uch nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

8.3. «Bajaruvchi», «Xo'jalik»ka xizmatlarni bajarganligini, jo'natganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda xizmat haqini undirish uchun xo'jalikning bankini jallb qilishga haqli. Solishtirma dalolatnomma va tomonlar o'rtaсидаги bitimda ko'zda tutilgan hollarda xo'jalikning roziligidisiz uning hisob varag'idagi mablag'lar bajaruvchining hisob raqamiga o'tkaziladi.

Xizmat haqini bu tartibda undirish kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlar uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

8.4. Xo'jalik tomonidan xizmatlar qabul qilingandan keyingi shikastlanish, chtiyotsizlik va boshqa oqibatlar uchun «Bajaruvchi» javobgarlikdan ozod etiladi.

8.5. Shartnomada ko'rsatilgan manzilga yuborilgan xat, xabar va jo'natimlar tasdiqlovchi hujjatlar bo'lganda yoki olinganligi to'g'risida imzo qo'yilganda qabul qilingan hisoblanadi.

Shuningdek, xo'jalikning xizmat ko'rsatuvchi banki yoki qishloq hududidagi berilgan e'lon ham yetkazilgan xabar hisoblanadi.

8.6. Mazkur shartnomada tomonlarning nazarda tutilmagan javobgarligi choralar fuqarolik qonunchilik me'yorlariga muvofiq qo'llanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga asosan shartnoma taraflari o'zlarining buzilgan huquqlarini himoya qilishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

## **Savol va topshiriqlar**

1. Agrokonsalting xizmatlari qanday tashkil etiladi?
2. Agrokonsalting shartnomalaridagi bandlarni sanab bering.
3. Shartnoma sharatlari bajarilmaganda qanday choralar ko'rildi?

## **2. Agrokonsalting xizmatini amalga oshiruvchi firma va korxonalar**

Hozirgi vaqtida konsalting xizmatlarini amalga oshiruvchilar har bir shahar va tumanlarda mavjud. Ularning xizmat ko'rsatish doiralari bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, lekin ko'pchiligi asosan bir necha xizmat turlarini ko'rsata oladi va ko'p hollarda kompyuter xizmatlari ko'rsatish bilan kifoyalanadi.

Masalan, biznes-reja, Ustav, muhr esklizlari va boshqalar. Shu bilan birga ayrim konsalting korxonalari 50 xildan ortiq xizmat turlarini ham taklif etish imkoniga ega. Shunday korxonalarga misol sifatida «Guliston Agrokonsalting» va «Zomin Agrokonsalting» korxonalarini olishimiz mumkin.

### **3. «Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasining konsalting mahsulotlari va xizmat turlarining qisqacha tavsifi.**

#### **«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi haqida ma'lumot**

1. Korxona nomi: «Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi.
2. Tashkil topgan yili: 2004 yil, noyabr.
3. Xizmat ko'rsatish sohasi: konsalting xizmatlari. Marketing xizmatlari bozori.
4. Erishilgan natijalar: «Fermer xo'jaliklari faoliyatini Axborot-konsalting biznesi orqali barqarorlashtirish texnologiyalari» nomli konsalting mahsulotlari va xizmat turlari.

5. Doimiy mijozlari: viloyat hududida faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari hamda fermer xo'jaliklari bilan hamkorlik qilmoqchi bo'lgan investorlar.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi quyidagi tashkilotlar va tuzilmalar bilan doimiy hamkorlik qiladi:

qishloq xo'jaligida iqlisodiy islohotlarni chiqurlashtirish bo'yicha viloyat Komissiyasi;

viloyat Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi va tuman bo'limlari;

viloyat Adliya boshqarmasi;

viloyat Savdo-sanoat Palatasi;

viloyat hakamlik sudi va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari;

tijorat banklari;

Guliston Davlat universiteti.

Shuningdek:

«Ziyo» nashriyoti.

Konsalting xizmatlari ko'rsatuvchi turdosh tashkilotlar:


advokatlik xizmatlari, auditorlik tashkilotlari, taniqli iqtisodchilar, yuristlar, noshirlar.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi mintaqada birinchi bo'lib fermer xo'jaliklarining muammolarini bartaraf etishga yordam bera oladigan, fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga solishni kompleks baholaydigan va xizmatlar tashkil qilinadigan «Fermer xo'jaliklariga berilgan huquqlar va yuklatilgan majburiyatlar muvozanati» nomli majmuani ishlab chiqdi. Taklif qilingan tavsiyatu Sirdaryo viloyati Adliya, Moliya, Qishloq va suv xo'jaligi, davlat Soliq boshqarmalari ko'riganidan o'tib ijobjiy baholandi. Respublika

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ham manfaatdor fermer xo'jaliklariga shartnoma asosida yetkazib berishga tavsiya berildi. Bu esa korxona tomonidan fermer xo'jaliklariga kafolatlangan xizmatlarni taklif qilishga imkon yaratdi. Shu bilan birga fermer xo'jaliklari uchun Axborot-marketing ta'minoti tizimidagi «Marketing xizmatlari bozori» nomli xizmat turlari majmuasi ham ishlab chiqildi hamda marketing bozorining faoliyat ko'rsatishi tashkil etilmoqda.

Korxonaning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi sohasida zaif rivojlangan Axborot-konsalting xizmatlari bozorini o'z mahsulotlari va xizmat turlari bilan to'ldirish orqali fermer xo'jaliklarining informatsiya xizmatlariga bo'lgan talabini hamda marketing xizmatlari bozoriga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

**«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi  
quyidagi tarmoqlarga  
yuklangan vazifalarini yechishga yordam beradi**



### Xizmat ko'rsatish doirasi

1. Bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida mijoz (fermer xo'jaligi) tomonidan taqdim qilinadigan hujjatlarni tuzishga amaliy yordam berish, Axborot almashinuvini ta'minlash.

### Xizmat ko'rsatish uslubi

2. Qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish texnologik kartasini tuzub berish, kreditga bo'lgan ehtiyojni aniqlashi, ajratilgan kreditni qaytarishni va moliya x'da faoliyatini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy asos lash.

### Kutiladigan natija

3. Mijoz (fermer xo'jaligi)ning to'lov qobiliyatini barqaror bo'ladi. Berilgan kreditlarning qaytmaslik xatari kamayadi. Bank tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmat turlari hisobida bank oladigan foyda oshadi.

### Xizmat ko'rsatish doirasi

1. Tadbirkorlik subyektlarining huquq himoyasini samarali tashkil qilish. Hukum sudlari orgali huquqiy himoyani tashkili qilish, hamkorlik qilish

Mahalliy va chet et investitsiyalarini jalob qilishga tayyorlash. Axborot-marketinq xizmatlarini tashkil qilish.

### Xizmat ko'rsatish uslubi

2. Hakamlik sudlarini iqtisodiy yechimlar bilan ta'minlash, investitsiya jaib qilishni amaliy tadbirlar vositasida tashkil qilish.

Axborot ta'minotini o'zaro moddiy manfaatdorlikda tashkil etish.

### Kutiladigan natija

3. Huquqiy himoya tizimi subyektlar ishtirokida va bevosita ijrosida tashkil etiladi.

Subyektlar uchun qulav investitsion munir vujudga keltiriladi. Subyektlarning bevosita ishtirokidagi axborot ta'minoti tizimi o'zaro manfaatli shartlarda vujuoga keltiriladi.

Markaziy bank  
va xizmat  
ko'rsatuvchi  
tijorat banklari.

Savdo-sanoat  
palatasi va  
uning hududiy  
bosiqarmalari.

#### 4. «Guilston Agrokonsalting» xususiy korxonasining konsalting mahsulotlari va xizmat turlarining qisqacha tavsifi

Texnologiyalarni joriy etish uchun tayyorlangan 50 xildagi konsalting mahsulotlari va xizmat turlarining tavsifi

<b>Nº</b>	<b>Tayyorlangan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar nomi</b>	<b>Mahsulot va xizmatlarning qisqacha tavsifi</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>
1.1.	<p>1.Fermer xo'jaliklarining huquqiy himoyasini tashkillashtirisinga imkoniyat yaratadigan va qonun hujjallarida fermer xo'jaliklariga qo'yiladigan majburiyatlar va talablar ijrosini ta'minlashga qaratilgan xizmatlar.</p> <p>Ta'sis hujjatlari loyihalarini tayyorlab berish va uni ro'yxatdon o'tkazishga ko'maklashish xizmatlar.</p>	<p>Qonun hujjatlarda fermer xo'jaliklariga yuklatilgan majburiyat va talablar ijrosini ta'minlashga qaratilgan xizmaller ko'rsatiladi.</p> <p>Ta'sis hujjatlari loyihalarini tayyorlab berish, mavjud hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish, ta sis hujjatlarining fermer tomonidan qabul qilinishi va davlat ro yaxatiga taqdim ettilishini tashkil qilish jarayoniga xizmat ko'rsatiladi hamda uning kundalik faoliyatiga ijubiy ta'sirini ta'minlash choralarasi asoslab beriladi.</p>
1.2.	Faoliyat ko'rsatib turgan fermer xo'jaligi Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish loyihasini ishlab chiqarish hamda bajariladigan tadbirlarni tashkil qilishga ko'maklashish xizmatlari.	<p>Qonun hujjatlarda fermer xo'jaligi faoliyatini tartibga soluvchi o'zgartirish va qo'shimchalar asosida manfaatdor fermer xo'jaligi ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish loyihasi hamda bajariladigan tadbirlar asoslab beriladi.</p>
1.3.	Fermer xo'jaliklari faoliyatida Ustav fondlari miqdorini shakllantirishga ko'makiashish xizmatlari	<p>Ustav fondlari miqdorini shakllantirishning anamiyali ochib beriladi. Ustav fondining moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini oshirish uni ishlab chiqarishni rejalashtirishni asoslantirishga asosiy manba darajasiga ko'tarish tadbirlari yoritib beriladi. Intellektual mulk hisobiga Ustav fondini vujudga keltirish va uni ichki investitsiya kiritish shakli sifatida tashkillashtirish mumkinligi asoslab beriladi.</p>

1	2	3
1.4.	Fermer xo'jaliklari Ustav fondlarini belgilangan tartibda ko'paytirish imkoniyatlarini izlab topishga va aylanma mablag'larni me'yorgacha yetkazishga ko'maklashish xizmatlari.	Ustav fondlarini belgilangan tartibda ko'paytirish va aylanma mablag'larni ijaraga olingan yer maydoniga mutanosib shakkantirish tadbirlari asoslab beriladi.
1.5.	Fermer xo'jaliklari faoliyatida qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish texnologiyasiga rivoя qilishda texnologik kartalardan foydalanishni yo'iga qo'yishga ko'maklashish xizmatlari.	Qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish texnologiyasiga rivoя qilishda texnologik kartalar (texnologiya tadbirlari ketma-ketligi)dan foydalanish samaradorligi ko'rsatip beriladi. Kitobchaga namunaviy kartalar ilova qilinadi.
1.6.	Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda agroteknika talablariga rivoя etishni texnologik karta va agroteknologik davr bo'yicha tuziladigan Biznes-reja asosida tash-killashtirishga ko'maklashish xizmatlari.	Mahsulot yetishtirish texnologiyasiga rivoя etish uchun texnologik kartadan foydalanish samaradorligi targ'ib qilinadi va asoslab beriladi. Islab chiqilgani shaki noan'aviy yangi mazmunda bo'lin. mantaatdor fermer xo'jaligi tomonidan paxta-g'alla yetishtirishda agroteknika talableri asosida hisob-kitobni tasnif qilishni ta'minlay oladi. Shuningdek, paxta-g'alla yetishtirish xarakterini mahsulot yetishtirish bo'yicha texnologik kartaga muvofiqlashtirish bilan birga xo'jalik faoliyetini nazorat qilish va mahsulot tannarxini boshqarish imkonini beradi.
1.7.	G'o'za va don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rivoя etilishida va davlat ehtiyojlar uchun yetishtiriladigan qishloq xo'jalik ekinlarining joylashtirilishiha fermerning mulkdortlik mas'uliyatini shakkantirishga ko'maklashish xizmatlari.	Navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablar bu mintaqaga sharoitiga mos navni ekish majburiyati va unga rivoя etnislik oqibatlari asoslab beriladi. Fermer xo'jaliklari tomonidan davlat ehtiyojlar uchun yetishtiriladigan paxta va g'aila ekinlar ixtisoslashuvga va tuzilgan kontakatsiya shartnomalariga asosan mustaqil joylashtirish hamda yarning kuch-sizigini aniqlasanda yarning ballonitet ko'rsatkichi asos qilib olinishini do'llash yuzasidan usiubiy tavsiyalar va amaliy maslahatlar beriladi.
1.8.	Yer uchastkasini saqlash shartlariga rivoя etishga hamda yer ijara shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo'lувчи holatlarni bartaraf etishga ko'maklashish xizmatlari.	Yer uchastkasini saqlash shartlariga rivoя etish uchun talab qilinadigan tadbirlar ahamiyati asoslab beriladi. Bunda mablag' mavjud emasligi olingan majburiyatni bajarmaslikka asos bo'lmasiligi va buning uchun harakat qilish lozimligi hamda ushbu tadbirni mazmuni yoritib beriladi.

1	2	3
1.9.	Qonun hujjatlarida fermer xo jaliklariga berilgan huquqlardan feydatanmaslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil ma'lumotlari bilan ta'minlab borish xizmattları.	Qonun hujjatlarida fermer xo jaliklariga berilgan huquqlardan fermer xo jaliklari boshliqlarining foydalanimasliklari oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil. Fermer xo jaligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonun misolida ko'rsatib beriladi. Fermer xo jaliklarining talabiga ko'tra qonun hujjatlarini o'rganishni tashkii qilish va qonun hujjatlarini talablarini bajarmaslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil ma'lumotlari bilan ta'minlab borish hamda konkret misollar yordanida sharhlab berish ko'zda tutildi.
1.10.	Qonun hujjatlarida fermer xo jaliklariga yuklatilgan majburiyatlarni bojamarslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil ma'lumotlari bilan ta'minlab borish xizmattları.	Qonun hujjatlarida fermer xo jaliklariga yuklatilgan majburiyatlarni bojamarslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil ma'lumotlari bilan ta'minlab borish hamda konkret misollar yordanida sharhlab berish ko'zda tutildi.
1.11.	Fermer xo'jaligida ishiayotgan xodimlar daromadini qonuniy shakllantirish va ish beruvchining boshqa majburiyatlarini ta'minlashda ko'maklashish xizmattları.	Fermer xo'jaligida ishiayotgan fuqarolar daromadini to'liq hisobga kiritishni ta'mintash va uning mas'uliyati asoslab beriladi.
1.12.	Yer maydoniga lozim darajada isnlov berilmaganlik oqibauari dinamikasini tuzib borishga ko'maklashish xizmattları.	Yer maydoniga ishlov berilmaganlik belgilarini guruhilagan holda hisobini yuritish mexanizmi asoslab beriladi va amaliy yordam ko'rsatiladi.
1.13.	Fermer xo'jaligiga ijaraqa berilgan yer maydonida amaliya osmirigan yaxshilanishlar isobini yuritish va fermerning majburiyatining ijosi ta'minlari uytganligini asoslashtiga ko'maklashish xizmattleri	Ijaraga olingan yer maydonida amalga oshirilgan yaxshilanishlar hisobini yuritish mexanizmi asoslab beriladi va majburiyatlar bajarilayotganligini isbotlashga amaliy yordam ko'rsatiladi.
2.14.	2. Fermer xo'jaliklarining chiqi inkoniyatlarini rivojlantirish, tashqi muhitga ta'sirini faollashtirish va mahsulot yetishtirish tannarxini sarnarali boshqarishni tashkil qilishma yordan berishga qaratilgan xizmattalar. Fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda shartnomaliv munosabatlari tartibga solishda ikki monitoringni yo'lg'a qo'yishda ko'maklashish xizmattalar.	Shartnorma munosabatlari to'g'ri yo'lg'a qo'yish, tartibga solish, majburiyatlar ijrosini tashkil qilishni yozma holda asoslab berish, majburiyatlar bajarilishini kuzatib borish va natijasi bo'yicha tezkor chora belgilash hamda huquqlarni talab qilish uchun asos bo'ladigan holatlarni vujudga kelirishni yozma ravishda aks ettilib borish tajribasini lavsiya shaklida asoslab beradi.

1	2	3
2.15.	Fermer xo'jaligining shartnomaviy munosabatlarni taribga solishga va ichki monitoringini yo'lga qo'yishga ko'maklashish xizmatlari.	Shartnomaviy munosabatlarni taribga qo'yishning yozma shakida tashkili qilinadigan monitoring ja'yon asosida beriladi.
2.16.	Fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar loyihalari namunalarini manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatiga tadbiq etishni tashkillashtirish xizmatlari.	Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaida qul majburiyattan va huquqlari uchun qulay va manfaatli ko'rinishlarga olib keltiriladi. Qonun yo'l qo'yadigan asosiarda munosabatlarga aniqlik kiritiladi. Huquq va majburiyallarni manfaatdor tomoniarga o'tkazish bilan munosabatlarga aniqlik kiritiladi.
	Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi loyihasi.	Garov ta minotini yaratishga qo'shilish shartnomasi loyihasi Subyekt o'zi uchun noqulay bo'lgan holatni bartaraf etadi. Mazkur shartnomasi loyihasi nar qanday ko'rinishdagi garov ta'minotini yaratishga rozi bo'lgan, ushouz shartnomanining oqibatidan devosila yoki bilvosita manfaataldor bo'lgan yuritlik jismoniy shaxslarni yagona maqsad asosida birlashtiradi. Shartnomani tuzish tashkilotchisi tomonidan t'sakif qilingan garov ta'minotini yaratish lashabbusiga rozi ishtirok etuvchilarning imkoniyatlari va aniq mavzular bo'yicha ma'lumotlar bazasi yaratiladi.
	Debitorlik qarzini undirish (kamaytirish)ni ta'minlashga xizmat ko'rsatish shartnomasi loyihasi.	Yirik miqdordagi investitsiya yoki e'tibor olinayotgan mulk uchun garov ta minoti qonun talablarini asosida vujudga keitiriladi. Debitorlik qarzini undirish - kamaytirish - fuqarolik-huquqiy tusdagi bitimlar tuzishi, qarorlar qabul qilish, kairolallar taqdim qilish yo'lli bilan majburiyatdagi shaxslarning u'zgarishi tarzida yuz beradigan jarayon asoslab beriladi.
2.17.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro munosabatlardagi ziddiyatlari holatlarni maqsadli kuzatish xizmatlari.	Xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan shartnomasi tuzgari boshqa taratning iqtisodiy anvoli, nutizi va isnanchilik qobiliyatli to'g'risida ma'lumotlarni to'plash hamda bu ma'lumotlardan samaral, foydalananish huquqidan amaliyotda foydalananish imkoniyatlar asoslab beriladi. Ziddiyallar bayoni loyihasi subyekt oilan birqalikda ishlab chiqiladi.

1	2	3
2.18.	Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun «Uya»li eksport uslubini joriyqilish orqali eksportni tashkillashtirish xizmatlari.	Kam hajmlı (miqdordagi) qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi ko'p sonli subyektlarning «taklifini ushbu mahsulotlarni sotib oluvchilar «talab»i bilan yuzlashtirishga asoslangan uslubdir. Unga ko'ra mahsulot yetishtiruvchilar hisobi maxsus jadvallardagi «uya»lar bo'yicha olib boriladi hamda huquq va majburiyatlar qat'iy shaklda olinidan belgilab qo'yilgan uslub asosida shakllantirilgan eksportni tashkillashtirish mexanizmi asoslab beriladi.
2.19.	Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun «Uya»li lizing (sublizing) uslubini joriy qilish orqali lizingdan foydalananish imkoniyatlарини оshirishga ko'maklashish xizmatlari.	Lizingdan foydalananish imkoniyatlарини оshirishga qaratilgan tadbirlarни asoslab beruvchi uslub bo'lib, unga ko'ra lizing predmeti majburiyatlari manfaatdor subyektlar o'tasida mutanosib taqsimlanib lizing jaib qilish imkoniyati vujudga keltirilishi mumkinligi asoslab beriladi.
2.20.	Qishloq tumanlariga (cho'l zorasida) terak va yog'ochbop daraxllar o'stirishni o'zaro mantaatl investitsiya vositasi sifatida tasnkil qilish va uning ma'suliyatini muvozenatlashtirishga ko'maklashish xizmatlari.	Qishloq tumanlarida, asosan suv yo'lli bo'ylariga terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirishni ko'p tomonlama shartnomaga asosida tashkil qilinadigan biznes sifatida tashkil qilish, ishtirokchi tomonlarning maqomini belgilash, ichki va tashqi investitsiya mezontarini belgilash orqali yangi ish o'rinalarini ochish, aholining yog'och mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va daromadini oshirish texnologiyasini asoslab beradi.
2.21	Xorijiyva manzili tovar ishlab chiqaruvchilar va investitorlar bilen amaliy o'sqalalarin «Anli, manzura esulida tashkillashtirishga ko'maklashish xizmatalari	Manfaatdor xo'jalik yurituvchi subyektlarni, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga manfaalli shartlarda tanishtirish, hamkorlik mavzularini o'rganish va pirovardida o'zaro foydalii bitim tuzishni tashkillashtirish uslublari asoslab beriladi.
2.22.	Qishloqoz biznes iqtisadiy tashkillashtirish, tashkilk tarqoqligi o'sqalari uchun biznes fikri, formika va rivojlanishni uslubiy tashkillashtirish xizmatlari.	Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlarining xizmat ko'r-satish darajasiga baho berish va tarmoqda shartnomaviy muhitni yaxshilash hamda biznesni shakllantirish bo'yicha uslublar asoslab beriladi.

1	2	3
2.23.	Fermer xo'jaliklarida ichki hujjatlarni tuzish, yuritish va arxivlashtirib tayyorlab borishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaliklarida ichki hujjatlarni tuzish, yuritish va hujjatlarni arxivlashtirish yuzasidan qo'sun hujjatlari talablarini fermer xo'jaligi faoliyatida hisobga olish qoidalariga rioya etmaslik oqibatlarini haqidagi ma'lumot beriladi. Fermer xo'jaliklarida ichki hujjatlashtirish tizimini shakllanish, ochiladigan kitoblar namunalari, hujjatlarni ichki arxivlashtirish va belgilangan vaqtida davlat Arxiviga topshirishiga tayyorlab borishi bosqichiari asoslab beriladi.
2.24.	Davlat ehtiyojlarini uchun yetish-tiriladigan g'o'za va don ekinlarining hosildorligini belgilanishida Yer kadastr ma'lumotlarini mukammal tashkil qilinishiga ko'maklashish xizmatlari.	Ijaraqa olingan yer maydonini qolati haqidagi Yer kadastr ma'lumotlarini mukammal tashkil etilish samarasi va uning oqibatlariga mas'ullik asoslab beriladi.
2.25.	Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan xatarlarni kompleks sug'urtalanishni yangi texnologiyalar asosida amalga oshirish tashabbusini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari.	Sug'urtalanishning noan'anaviy usullari bo'yicha talabni shakllantirish tashabbusi tashkillashtiriladi.
2.26.	Fermer xo'jaligida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish tannarxini agrotexnologik shakllantirish,boshqarish va rentabelligini oshirishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaligida qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlashni va mahsulot yetishtirish xarakterini texnologik kartaga asoslanan optimall shakllantirish, tannarx boshqaruvini tashkil etish va rentabellik ko'sat-kichilarini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar loyihasi asoslab beriladi.
2.27.	Manfaatdor fermer xo'jaliklarining joriy yilda qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish agrotexnologiyasiga, sug'orish suvi hajmlariga aniqlik kiritishni asoslashga ko'maklashish xizmatlari.	Iqtisodiy ko'sat-kichilarini belgilangan tartibda o'rganilgan fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan intiyozli kredit, moddiy-texnik resurslar va sug'orish suvi yetkazib berilishi davom ettirilishining muddadiga muvofiqlik darajasi to'g'risida yangi texnologiyalar asosida muqobil tanhliliy loyihasi tayyorlanadi.

1	2	3
2.28.	Fermer xo'jaliklarioa mamlakat Agia: siyosatini o'tkazishda Axborot almashinuvni ta'minotini faollashtirishga uslubiy ko'maklashish xizmatlari	Qishloq va suv xo'jaligi tizimiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish agrotexnikasiga oid tezkor ma'lumotlarni uzatish va toplash jarayoniga ixtisoslashtirilgan tuzilma orqali xizmat ko'satish uslubi yoritib beriladi.
2.29.	Asosiy qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha Agrotexnika talablari bajarilishi jarayonida Agronetologik davrlarga mos muvofiqlashtirish doimiy monitoring jadvali dinamikasi tuzid borilishiga ko'maklashish va ma'lumotlarni manfaatdor manzillarga uzatish xizmatlari	Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlarini haqidagi ma'lumotni uzalar ekanlari o'zlariga nishbatan Agrar siyosatning samarali o'tkazilishi uchun qarclar qabul qilinishini ta'minlaydigan axborotni berganliklariiga umid qila oladilar. O'zi haqidagi axborotni fermerning taqdim etmasiiga uning o'ziga nisbatan qabul qilinadigan caroriarning ahamiyatini yo qqa chiqarishi inumikmiliqi asoslab beriladi. Monitoring jadvali shaklidan foydalananish fermer xo'jaliklari uchun agrotexnika talablarni bajarishni tashkil qilishga nishbatan o'zining aniq hiss b-kitobini va munosabatini ishlab chiqishga yordam berishi xizmat ko'stuvchiga esa o'z xizmatini taklif qilish imkoniyatini yaratishi ko'satib beriladi.
2.30.	Fermer xo'jaliklarining pasport ma'lumotlari bazasini shaklantirish, yangilbo borish va nizamatdor manzillarga taqdim qilishiga ko'maklashish pasporturnatsiyu xizmatlari.	Fermer xo'jaligiga doir va tijorat siri bo'lmagan ma'lumotlar shartnoma asosida doimiy ma'lumotlar bazasiga kiritib boriladi va o'zgartirishlar va qo-shimchalar kiritib borish ko'zda tutiladi.
2.31.	Fermer xo'jaliklariiga imtiyozi kredit resurslari hisobidan ahaliga o'tkaziladigan xarakter va tizimishi biznes-rejaga asosan imtiyozi kredit tizimi tashkil etirafetinda qo'sha o'mishiga ko'maklashish xizmatlari	Imtiyozli kredit ajratilishi yo'nalishiga muvofiq aniqlik kintilgan xarajatlar summasiga muvofiq to'lov topshiriqnomalarini tayyorlab berish, shu jumladan, budget to'lovlar uchun to'lov topshiriqnomalarini tayyorlab berish tashkiliy markazlashgan holda tashkil etiladi.
2.32.	Fermer xo'jaliklariiga chetdan jaib qilinadigan investitsiyalar va qazari olinadigan mol-mulk uchun garov ta'minotini tashkiliy shokilantirishni ta'minlashga ko'maklashish xizmatlari	Fermer xo'jaliklariiga chetdan jaib qilinadigan mol-mulk va investitsiyalar uchun garov ta'minotini tashkiliy ta'minlash, garov predmetini asrab avaylash va garov maqsadidan samarali foydalananish tadbirlari loyihasi asoslab beriladi.
2.33.	Marketing tadbiloti asoslab berilishi yo'nalishiga va netijalarini qo'sha o'mishiga ko'maklashish xizmati	Marketing tadbiqotlarini yo'iga qo'yish mexanizmi asoslab beriladi va amaliy yordam ko'satiladi.

1	2	3
2.34.	Fermer xo'jaliklari uchun Marketing xizmatlari bozorini tashkil etish va agrobiznes samaradorligini oshirishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaliklari uchun marketing xizmatlari va agrobiznes samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar mavzulari taklif qilinadi.
<b>3. Fermer xo'jaliklari bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'ttasida munosabatlarga aniqlik kiritish, da'vogarlik huquqlarini amalga oshirish va javobgarlik mas'uliyatini ta'minlashga ko'maklashish xizmatlari.</b>		
3.35.	Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarni to'g'ri tashkil etish va fermer xo'jaligi boshlig'ining mas'uliyatini ta'minlashga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaliklarda qonun talablariga zid ravishda mehnat munosabatlarni to'g'ri tashkil etmaslik, xodimlarning mehnat faoliyatini hisobini belgilangan tartibda olib bormaslik va xodimlarning daromadlarini qonuniy shakllantirmasiuk oqibatlari haqida ma'lumot beriladi.
3.36.	Fermer xo'jaligi boshliqlarining kasbiy malakasini oshirish, intellektual salohiyatini yuksaltirishga va xo'jalik yuritishdagi nomukammal faollashuvining kutiimagan oqibatlarining oldini olishga ko'maklashish xizmatlari.	Qonun hujjatlari talabları bo'yicha kasbiy malaka oshirishning ahamiyati, kasbiy malaka oshirmsilik va intellektual salohiyatni yuksaltirishga intilmaslik oqibatlari haqida ma'lumot beriladi. Kasbiy malaqa oshirish uchun har yili o'rGANIlib boriladigan ma'lumolar bazasi, qonun hujjatlari mazmuni, qonun hujjatlari mazmunidan kelib chiqadigan huquqlarni talab qilish, majburiyatlarni bajarish, huquqlar va majburiyatlarga nisbatan talab va mas'uliyatni kuchaytirish muammolari to'g'risida so'z yuritiladi.
3.37.	Fermer xo'jaliklari faoliyatida ijara olingan yer maydoniga chegaradosh (tutash) yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut)ning suv yo'lidan to'siqsiz foydalanish bo'yicha samarali q'llanishini huquqiy tashkil qilishga ko'maklashish xizmatlari.	Chegaradosh yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqini suv yo'lidan to'siqsiz foydalanishda qo'llashni huquqiy ta'minlash loyihasi asoslab beriladi.
3.38.	Fermer xo'jaliklari faoliyatida ijara olingan yer inaydoniga chegaradosh (tutash) yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut)ni dala yo'lidan cheklovlarsiz foydalanish bo'yicha samarali q'llanilishini huquqiy tashkil qilinishiga ko'maklashish xizmatlari.	Chegaradosh yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqini dala yo'lidi sifatida to'siqsiz foydalanishda qo'llashni huquqiy ta'minlash loyihasi asoslab beriladi.

1	2	3
3.39.	Fermer xo'jaliklari taoliyatida ijara olingen yer maydoniga chegaradosh (tutash) yoki yaqin joylashgan yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut)ning ixota daraxtzorlari barpo elish bo'yicha samarali qo'llanilishini huquqiy tashkil qilinishiga ko'maklashish xizmatlari.	Chegaradosh yoki yaqin joylashgan yer uchastkasiuan cheklangan tarzda foydalanish huquqini ixota daraxtzorlari barpo etishda qo'llashni huquqiy ta'minlash loyihasi asoslab berildi.
3.40.	Tadbirkorlik subyektlari uchun Hakamlik sudi himoyasini tashkillashtirish xizmatlari.	Korxonada doimiy faoliyat ko'r-satuvchi Hakamlik sudi xizmatlari taklif qilinadi.
3.41.	Hakamlik sudini moliya xo'jalik huquqiy faoliyatini iqtisodiy yechimlar bilan ta'minlash hamda da'vogar va javobgarni sud muhokamasiga tayyorlanishga ko'maklashish xizmatlari.	Iqtisodiy nizolarni hakamlik sudi muhokamasiga tayyorlash va nizoni hal etish amaliyoti taklif etiladi.
3.42.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarni boy berilgan foydani hisoblash uslublari bilan ta'minlash va javobgarlik mas'uliyatini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari.	Xo'jalik yurituvchi subyektlar xo'jalik faoliyatida o'zining va o'zgalarning aybi bilan aniq ifodalangan harakati yoki harakatsizligi bilan yetkazilgan zararni, shu jumladan, boy berilgan foydani hisoblash va o'zida javobgarlik mas'uliyatini shakllantirib borishini ta'minlaydigan uslublar asoslab beriladi.
3.43.	Fermer xo'jaligining ta'minotchi tashkilotlarga boy berilgan foydasini hisoblash uslublari bilan ta'minlash va undirishni tashkillashtirishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaligining ta'minotchi tashkilotlarga boy berilgan foydasini hisoblash va undirishni tashkil qilish jarayoni asoslab beriladi.
3.44.	Fermer xo'jaligining tayyorlovchi tashkilotlarga boy berilgan foydasini hisoblash uslublari bilan ta'minlash va undirishni tashkillashtirishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaligining tayyorlovchi tashkilotlarga boy berilgan foydasini hisoblash va undirishni tashkil qilish jarayoni asoslab beriladi.
3.45.	Fermer xo'jaligining fermer xo'jaligi a'zosiga (shu jumladan, mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan yollanma xodim)ga boy berilgan foydasini hisoblash uslublari bilan ta'minlash va undirishni tashkil-lashtirishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaligining fermer xo'jaligi a'zosiga boy berilgan foydasini hisoblash va undirishni tashkil qilish jarayoni asoslab beriladi.

1	2	3
3.46.	Fermer xo'jaligi a'zosi (shu jumladan mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan yollanma xodim)ning fermer xo'jaligiga boy berilgan foydasini hisoblash uslublari bilan ta'minlash va undirishni tashkillashtirishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaligi a'zosining fermer xo'jaligiga boy berilgan foydasini hisoblash va undirishni tashkil qilish jarayoni asoslab beritadi.
3.47.	Fermer xo'jligining tuman davlat yer resurslari xizmattariga boy berilgan foydasini hisoblash uslublari bilan ta'minlash va undirishni tashkillashtirishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jligining tuman davlat yer resurslari xizmatiga boy berilgan foydasini hisoblash va undirishni tashkil qilish jarayoni asoslab beriladi.
3.48.	Fermer xo'jaligining suvdan foydalananuvchilar uyushmalariga boy berilgan foydasini hisoblash uslublari bilan ta'minlash va undirishni tasnillashtirishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaligining suvdan foydalananuvchilar uyushmasiga boy berilgan foydasini hisoblash va undirishni tashkil qilish jarayoni asoslab beriladi.
3.49.	Fermer xo'jaliklarining shartnomalariga bilan taqposlama dalolatnomalar tuzishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaligi bilan shartnomaviy munosabatda bo'lgan tashkil-lillardan tegishli ma'lumotlar olinib tashdiqlab berish uchun fermerlarga taqdim qilinishi va ikki tomonlarning imzolanishi tashkil qilinadi.
3.50.	Fermer xo'jaliklari o'rtaida majburiyatlarini muzlatish va javobgarlik mas'uliyatini muvozanatlashtirishga ko'maklashish xizmatlari.	Fermer xo'jaliklari o'rtaida begona subyekt majburiyatlarini muzlatish va javobgarlik mas'uliyatlarini taqsimlab muvozanatlashtirish tadbirlari toyishas asoslab beriladi. Bunda maqsadular mushlarkak bo'lgan subyektlarning hamkorligi namoyon bo'ladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Korxona konsalting mahsulotlari necha xilni tashkil etadi?
2. Xizmat turlarining tafsifini aytib bering.
3. Korxona xizmat turlarining qaysilari siz yashaydigan hududda zarurligini asoslab bering.

## **5. Konsalting faoliyatiga talabni shakllantirish omillari: muammo va yechimlar**

Konsalting xizmati iqtisodiyotdagι muammolarni o'rganib boradi va shu asosda o'zining konsalting mahsulotini yaratadi. Bu mahsulotlar mijozlarga taklif etiladi va ularning talabiga ko'ra takomillashtirib yoki ularga mos qilib ishlab beriladi. «Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi ham qishloq xo'jaligiga oid muammolarni o'rganib chiqib konsalting mahsulotlarini yaratdi va 50 xildan ortiq xizmat turlarini joriy etdi. Hozirgi vaqtida mazkur xizmat turlari mijozlar e'tiboriga ular tanlagan shaklda yetkazib berilmoqda. Quyida korxona tomonidan o'rganilgan muammolar keltiriladi.

**«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasining marketing tadqiqotlari natijasida aniqlangan mintaqalari fermer xo'jaliklarining  
50 xil muammosiga 50 xil yechim.**

### **1- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklarining ta'sis hujjatlari (ustav) mazmunidan fermer xo'jaligi faoliyatini tashkil etish va tartibga solishda asos sifatida foydalanmaslik va uning ahamiyatini tushunib yetmaslik holatining mavjudligi.

«Guliston Agrokonsalting» korxonasi fermer xo'jaliklarining ta'sis hujjatlari mazmunidan kelib chiquvchi tadbirlar izchilligi loyihasini asoslab beradi va yangi tahrirdagi loyihami taklif etadi. Natijada xo'jalik faoliyatini to'liq qonun hujjatlariga mos tashkil qilishga tashkiliy imkoniyat yaratiladi.

### **2- MUAMMO**

Fermer xo'jaligi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda fermer xo'jaligi namunnaviy Ustaviga kiritilgan yangi tahrirdagi o'zgartirishlarning mutanosib ravishda barcha fermer xo'jaliklari tomonidan qabul qilinmayotganligi muammosi.

Qonun hujjatlarida qabul qilingan o'zgartirishlar va qo'shimchalar fermer xo'jaligining ta'sis hujjatlarida aks ettirilishiga erishiladi.

### **3- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari faoliyatida Ustav fondlariga e'tibor qaratilmayotganligi rivojlanishga to'siq bo'layapti. Fermer xo'jaligi boshlig'ining fermer xo'jaligi uchun ajratgan mol-mulki qanchaligi noaniq

bo'lib qolayotganligi moliyaviy negizini aniq ifodalamayotganligi muammozi.

Fermer xo'jaliklari faoliyatida Ustav fondlari miqdorini shakllan-tirishga ko'maklashish xizmatlari natijasida Ustav fondi ijara-ga olingan yer maydonidan samarali foydalanishni ta'minlaydigan darajaga keltirish choralarasi asoslab beriladi.

#### **4- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklarining faoliyatida Ustav fondlarining real miqdorini belgilangan tartibda ko'paytirish amalga oshirilmasligi natijasida fermer xo'jaligining ichki moliyaviy ahvolini iqtisodiy baholash imkoniyatlari cheklanib qolyapti.

Ustav fondlarini me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda, shuningdek, intellektual mulk hisobidan ko'paytirish mumkinligi asoslab beriladi. Ustav fondi tashqi investorlar va hamkorlar uchun aniq holatni ifodalaydigan darajaga keltiriladi.

#### **5- MUAMMO**

Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda texnologik kartalardan foydalanmaslik, tuzmaslik va agrotexnika qoidalariiga rioya etishni tashkillashtirmaslik oqibatida. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda standartlarga va agrotexnika qoidalariiga rioya qilishning tashkiliy imkoniyatidan foydalanilmayapti.

Fermer xo'jaliklari faoliyatida texnologik kartalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiriladi. Bu agrotexnika qoidalariiga rioya etishni odatga aylantiradi va davlat standartlariga mos mahsulot yetishtiriladi.

#### **6- MUAMMO**

Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish xarajatlarini asoslashda agrotexnologik karta davrlari bo'yicha tuziladigan biznes-reja shaklidan foydalanmaslik oqibatida fermer xo'jaligi mavjud resurslarining hisob-kitobi bilan jalb qilinayotgan imtiyozli 3% lik kredit mablasqlari uyg'unligi to'liq ta'minlanmayapti.

Agrotexnologik karta davrlari bo'yicha tuziladigan biznes-reja shakli fermer xo'jaligining talabiga ko'ra yetkazib beriladi. Biznes-reja shaklidan foydalanish natijasida ichki resurslarni va jalb qilinadigan mablasqlarni samarali boshqarish yuz beradi.

#### **7- MUAMMO**

Davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan g'orza va don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya etish va ijara-ga berilgan yer maydonlariga to'g'ri va oqilona joylashtirishda fermer xo'jaliklari tomonidan qishloq xo'jalik

ekinlarini to'g'ri joylashtirish jarayonida kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi. Fermer xo'jaliklari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rivoja qilishini uslubiy ta'minlash amalga oshiriladi.

## **8- MUAMMO**

Yer uchastkasini saqlash shartlariga rivoja etish hamda yer ijara shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo'luvchi holatlarni bartaraf etishni tashkil qilishda muammolar mavjudligi.

«Guliston Agrokonsalting» korxonasi manfaatdor fermer xo'jaliklari uchastkasini saqlash shartlariga rivoja etish va yer ijara shartnomasi bekor qilinishiga sabab bo'luvchi holatlarni bartaraf etishni tashkil qilish yuzasidan namunaviy tadbirlarni har bir fermer xo'jaligining o'z xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqishiga yordam beradi. Yer uchastkasini saqlash shartlariga rivoja etish samarali tarzda yo'lga qo'yiladi. Natijada yer ijara shartnomasini bekor qilishga sabab bo'luvchi holatlarni bartaraf etiladi.

## **9- MUAMMO**

Qonun hujjatlarida fermer xo'jaliklari berilgan huquqlardan foydalanimaslikda ifodalangan muammolarning sababi bunday huquqlar mavjudligini bilmaslik, huquqlardan foydalinishga tayyor emaslik, o'zidagi mavjud nuqsonlarning to'siq bo'layotganligi.

Bunda «Qonun hujjatlarida fermer xo'jaliklari berilgan huquqlardan foydalanimaslik va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil ma'lumotlari bilan ta'minlab borish xizmatlari» taklif etiladi. Huquqlardan foydalinish uchun uni o'rghanish va kamchiliklarni bartaraf etish talab etilishi tushuntirib beriladi.

## **10- MUAMMO**

Qonun hujjatlarida fermer xo'jaliklari yuklatilgan majburiyatlarni bajara olmaslikda ifodalangan muammolar mavjudligi, bunday majburiyatlar mavjudligidan bexabarlik, majburiyatlarni bajarishga tayyor emaslik, xo'jalik faoliyatidagi bузилишларинг ко'плиги.

Bu holda «Qonun hujjatlarida fermer xo'jaliklari berilgan huquqlardan foydalanimaslik va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil ma'lumotlari bilan ta'minlab borish xizmatlari» dan foydalaniib, majburiyatlarni bajarish jarayonini tartibga solish mumkin. Majburiyatlarni bajarish aniq hisob-kitobga asoslanib yo'lga qo'yilishi ko'rsatib beriladi.

## **11- MUAMMO**

Fermer xo'jaligida ishlagan xodimlar daromadini to'g'ri adolatsiz taqsimlash yoki kelishilgan mablag'ni bermaslik, daromadlardan to'lov manbaida daromad solig'i to'lashni tashkillashtirmaslik, pensiya jamg'armasi to'lovlari tartibga solmaslik xo'jalik faoliyatini izdan chiqarib qo'yayotganligi.

Bu holda «Qishloqda biznes muhitni takomillashtirish, tashkiliy tarqoqlikni bartaraf etish va biznes hulqi ko'nikmalarini rivojlan-tirishni uslubiy ta'minlash xizmatlari» taklif etiladi. Daromadlarni to'g'ri taqsimlash mehnat unumdorligini oshiradi, faroyonlikni ta'minlaydi va fermer xo'jaligiga baraka keltiradi.

## **12- MUAMMO**

Fermer xo'jaligida yer maydoniga lozim darajada ishlov berilmaganlik oqibatlari dinamikasi yuritilmasligi va tuproq bonitirovkasiga oid ma'lumotlar bazasi yo'qligi muammozi. Ijaraga olingan yer maydoniga tegishli tuproq bonitirovkasiga oid ma'lumotlar bazasi bilan qiziqmaslik va yerga lozim darajada ishlov berilmaganlik oqibatlari tahlil qilinmasligi xo'jalikni samarali boshqarishga to'sqinlik qiladi.

Bu holda «Fermer xo'jaligiga ijara berilgan yer maydoniga ishlov berilmaganlik oqibatlari dinamikasini tuzib borishga ko'maklashish xizmatlari» dan foydalanish natijasida fermer xo'jaligi ish faoliyatini samarali boshqarish imkonini yaratiladi.

## **13- MUAMMO**

Fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan yer maydonida muntazam sarf-xarajatlar qilinishi natijasida yer maydoni yaxshilanishlarining hisobi yuritilmasligi, hisob-kitoblarning to'g'ri tashkil etilmasligi va binobarin, huquqiy himoyasi zarur bo'lganda asos bo'lib xizmat qilmayotganligi.

Bu holda «Fermer xo'jaligiga ijara berilgan yer maydonida amalga oshirilgan yaxshilanishlar hisobini yuritish, tuproq bonitirovkasiga oid ma'lumotlar va yer maydoniga ishlov berilmaganlik oqibatlari dinamikasini tuzib borishga ko'maklashish xizmatlari» natijasida yer maydonidagi yaxshilanishlar hisobining yuritilishi yashirin daromad va hisobga olinmagan xarajatga o'rinn qoldirmaydi, huquqiy himoya kutilgan samarani beradi.

## **14- MUAMMO**

Fermer xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishning tahlili va monitoringi samarali tashkil qilinmaganligi oqibatida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishning tahlili va monitoringi yuritil-

masligi muhim qarorlar qabut qilishni ta'minlay olmaydi. Tasodifiy va taxminiy harakatlarga sababchi bo'ladi.

Bunda «Fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda ichki monitoringni yo'lga qo'yishga ko'maklashish xizmatlari» yordamga keladi va monitoring yo'lga qo'yilishi texnologik jarayonning har bir kunida qaysi qaror yoki qat'iy harakat eng samarali va to'g'ri ekanligi mavjud hisob-kitoblar va tahlillar yordamida ishlab chiqiladi.

Bu tadbirning qanchalik to'g'riligini hamma vaqt qayta-qayta tahlil qilib mulohaza qilish, shuningdek, chetdan jalg qilingan ekspert yordamida ham aniqlik kiritish mumkin.

## **15- MUAMMO**

Fermer xo'jaligining shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda ichki tahlil monitoringini yuritish samarali tashkil qilinmaganligi oqibatida boshqa subyektlar bilan shartnomaviy munosabatlarni hamda shartnoma majburiyatlarini bajarish jarayoni tahlil etib borilmasligi, monitoringi yuritilmasligi shartnoma taraflariga o'z vaqtida baho berishga imkon bermayapti. Natijada shunga bog'liq holda asosli qarorlar qabul qilish va tadbir belgilash imkoniyati yo'qotilmoqda.

Shartnomaviy munosabatlar bir me'yorga tushadi. Shartnoma taraflari o'z munosabatlarini nizolardan xoli uzlusiz amalga oshirishda davom etishiga sharoit yaratiladi.

## **16- MUAMMO**

Moliya xo'jalik faoliyatida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan yuzaga kelgan munosabatlarda fuqarolik huquqiy tusdagi namunaviy shartnoma loyihamalaridan keng foydalanish yo'lga qo'yilmaganligi natijasida ichki imkoniyatlarni rivojlantirish cheklanib qolayotganligi.

Namunaviy shartnoma loyihamalarini tadbiq etish xususiyatlari asoslab beriladi va yo'lga qo'yiladi. Namunaviy to'plam yetkazib beriladi.

## **17- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari bilan shartnomaviy munosabatga kirishgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni faol kuzatib borish yo'lga qo'yilmaganligi natijasida shartnoma tarafini tashkil qiluvechi tomonning faoliyatidagi ziddiyatli holatlarni kuzatib turmaslik oqibatida shartnoma tarafining moliyaviy ahvoli yomonlashayotganligi xatari sezilmasdan qoladi. Natijada umid qilinayotgan daromad manbai to'lovgaga layoqatsizlikka duchor bo'lganda, hech bo'lmaganda za-

rarning bir qismini bo'lsa ham oldini olish imkoniyati qo'ldan boy berilgani ma'lum bo'ladi.

Shartnoma taraflarining faoliyatidagi ziddiyatli holatlarni kuzatib borish natijasida shartnoma shartlari bajarilishiga o'z vaqtida aniqlik kiritish, boshqa tarafning ziyon ko'rishni boshlayotganligi xataridan o'z vaqtida saqlanish, zarar ko'rish xavfi aniqlanayotganligi noqulayliklari oqibatlarining oldini olish choralarini ishlab chiqishga imkon beradi.

## **18- MUAMMO**

Kam hajmli (miqdordagi) qishloq xo'jalik mahsulotlari yetish-tiruvchilarning mahsulotlarini eksportga chiqarishning tashkiliy holatlari tarqoqligi va ko'p sonli fermer xo'jaliklari tomonidan yetish-tirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportini tashkil etishni muvoqiflashtirishning mukammal emasligi natijasida kelishi mumkin bo'lgan foydadan mahrum bo'linmoqda.

Bunda «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun «Uya»li eksport uslubini joriy qilish orqali eksportni tashkillashtirish xizmatlari» orqali qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti tashkiliy tarqoqligi bartaraf etiladi va eksport hajmlari ko'paytiriladi.

## **19- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari o'rtasida lizing xizmatlarining o'rnini oshirishda tashkiliy tarqoq holatlarning mavjudligi lizing xizmatlaridan foydalanishning barcha imkoniyatlari to'liq ishga solinmayotganligi, lizing beruvchining oldidagi majburiyatlarning bajarilishi darajasidagi tashkiliy holatlarning yechilmagan muammolari ko'pligi bu xizmat turini rivojlantirishga to'siq bo'lib turibdi.

«Uya» li lizing uslubini joriy qilish orqali lizingdan foydalanish imkoniyatlari oshiriladi.

## **20- MUAMMO**

Qishloq tumanlarida, asosan, suv yo'li bo'ylariga terak, yog'ochbop daraxtlar o'stirishni ko'p tomonlama biznes shaklida tashkil qilinmayotganligi, suv yo'li bo'ylaridagi daraxtlar borgan sari kamayib ketayotganligi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Natijada juda ko'p imkoniyatlar boy berilyapti: ekologik ahvol yomonlashayotganligi, yerning sifati pasayib borayotganligi, daraxtlarning boshqa foydali xossalari ishga solinmayotganligi shular jumlasidandir.

Bu holda «Qishloq tumanlarida (cho'l zonasida) terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirishni o'zaro manfaatli investitsiya vositasi sifatida tashkil qilish va uning mas'uliyatini muvozanatlashtirishga ko'maklashish xizmatlari»ga murojaat qilish taklif qilinadi.

Ekologik holat yaxshilanishi bilan bir qatorda tashkil etilishi rejalashtirilgan faoliyat shartnoma investitsiya shakli sifatida may-donga chiqadi, aholining yog'och mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va munosib daromadga ega bo'lish imkoniyatlari ochiladi.

## **21- MUAMMO**

Fermer xo'jaligi faoliyatida amaliy aloqalarni rivojlantirishning tashkiliy holatlari yechilmaganligi, fermer xo'jaliklarining kooperatsiyalashgan aloqalari tarqoqligi, ularning bitta maqsad bo'yicha birikishlari xo'jalik faoliyati natijalarini bir-biridan o'rganishlari va aloqa bog'lashlarini tashkil qilish izchil yo'lga qo'yilmaganligi muammolari.

Bu holda «Xorijiy va mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar va investorlar bilan amaliy aloqalarni «Aniq manzil» usulida tashkil-lashtirishga ko'maklashish xizmatlari» taklif etiladi va fermer xo'jaliklarini xorijiy va mahalliy sheriklarga hamda investorlarga tanishtirish, ular bilan aloqa bog'lash hamda munosabat o'rnatish yo'lga qo'yiladi.

## **22- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari o'rtasida biznes muhitni takomillashtirish, tashkiliy tarqoqlikni bartaraf etish va biznes hulqi ko'nikmalarini rivojlantirishni tashkil qilishda ayrim muammolar mavjudligi .

Bunda «Qishloqda biznes muhitni takomillashtirish, tashkiliy tarqoqlikni bartaraf etish va biznes hulqi ko'nikmalarini rivojlantirishni uslubiy ta'minlash xizmatlari» taklif etiladi. Fermer xo'jaliklari boshliqlarining fermer xo'jaligi nomidan ish ko'rishlari sharoitida biznes hulqi ko'nikmalari rivojlantirilishiga yordam beriladi.

## **23- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari faoliyatida hujjatlarni tuzish, yuritish va arxiv talablariga rioya etishda ichki hujjatlarni tuzish va yuritish tartibiga rioya qilmaslik fermer xo'jaligi ish yuritishini samarali tashkil qilish imkonini bermayotganligi muammosi.

Bu holda «Fermer xo'jaliklarida ichki hujjatlarni tuzish, yuritish va arxivlashtirib tayyorlab borishga ko'maklashish xizmatlari» dan foydalanilsa hujjatlarga e'tibor ortadi, aniq asoslangan hujjatlar fermer xo'jaligini himoya qiladi.

## **24- MUAMMO**

Davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan g'o'za va don ekinlari-ning hosildorligini to'g'ri belgilash, shuningdek, boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishni texnologik vaqt bo'yicha tashkil qila olmasligida.

Yer kadastr ma'lumotlarining mukammal emasligi hamda fermer xo'jaligi boshlig'inining ishlab chiqarishni oqilona tashkil etolmasligi sabab bo'layotganligi muammosi.

G'o'za va don ekinlarining hosildorligini to'g'ri va asosli belgilash hamda boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishni texnologik davr talablari asosida tashkil qilinishiga huquqiy yordam beriladi.

## **25- MUAMMO**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi xavf-xatarlarni kompleks sug'urtalashda hozir amalda bo'lgan sug'urta shartnomalar mavjud xavf-xatarlardan to'liq va o'z vaqtida himoya qila olmaydi. Tovon puli olishning mexanizmini yetishtirilgan hosilga bog'liq qilib qo'yilgan bo'lib, sug'urta hodisasi holatidan yetarlicha himoya qila olmaydi.

Bu holda «Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan xatarlarni kompleks sug'urtalashni yangi texnologiyalar asosida amalga oshirishga ko'maklashish xizmatlari» samarali himoyalaydi.

## **26- MUAMMO**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (paxta, g'alla)ni yetishtirish tannarxi (xarajatlari) agrotexnologik boshqarish (shakllantirish)ga yetarli ahamiyat berilmasligi natijasida tannarx yuqori darajaga chiqib ketayotganligi hodisasi.

Mahsulot tannarxining agrotexnologik shakllantirish texnologiyasiga qat'iy amal qilish bilan ayrimi ortiqcha xarajatlarning oldini olish yoki xarajatlarni amalga oshirishni texnologik muddatlar bilan moslashtirish variantlari asoslab beriladi.

## **27- MUAMMO**

Qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish agrotexnologiyasiga vegetatsiya davrida aniqlik kiritib borishga yetarli ahamiyat berilmasligi natijasida ayrim agrotexnik tadbirlar kutilgan samarani bernayotganligi.

Vegetatsiya davrida vujudga kelgan iqlim va ob-havo sharoitlarining bashoratlari hisobga olinib, ishlab chiqilgan agrotexnologik jarayon loyihasi asoslab beriladi.

## **28- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari faoliyatida axborot almashinushi ta'minotini faollashtirishni uslubiy asoslab berishdagi muammolar axborotga bo'lgan talabni pasaytirishga sabab bo'lmoqda.

Bu holda «Fermer xo'jaliklarida mamlakat Agrar siyosatini o'tkazishda axborot almashinushi ta'minotini faollashtirishga uslubiy ko'maklashish xizmatlari» taklif etiladi.

## **29- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari faoliyatida qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash agrotexnikasi bajarilishi jarayoni haqidagi axborotni tizimli ravishda to'plab, qayta ishlab mansaatdor manzillarga uzatishni tashkil etishdagi muammolar. Qishloq xo'jalik ishlaringin borishi, moddiy texnik resurslar hisobini zarur aniqlikda yuritish, xizmatlarga bo'lgan talabni aniqlash ehtiyojlar chamasini bilish imkonini bermaydi.

Bu holda «Asosiy qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha agrotexnika talablari bajarilishi jarayonida agrotexnologik davrlarga mos muvofiqlashtirish doimiy monitoring jadvali dinamikasi tuzib borilishiga ko'maklashish va ma'lumotlarni manfaatdor manzillarga uzatish xizmatlari» taklif etiladi. Fermer xo'jaliklari faoliyati, qilingan ishlar, qilinmasdan qolgan ishlar, bor bo'lgan mavjud resurslar, chetdan jalb qilinishi so'ralsan va taklif qilingan resurslar hamda xizmatlar to'g'risidagi doimiy yangilanib turuvchi axborot ta'minoti bozori paydo bo'ladi.

## **30- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari manfaatida ularning xo'jalik pasportlari ma'lumotlari bazasini tashkil etish zaruriyati paydo bo'layotganligi.

Fermer xo'jaligining roziligi bilan pasport ma'lumotlari kon-salting korxonasida tashkil etilgan ma'lumotlar bazasiga kiritib qo'yiladi. Ushbu informatsiya fermer tomonidan o'zgartirilishi va chaqirib olinishi mumkin.

## **31- MUAMMO**

Fermer tomonidan joriy yilga tasdiqlangan biznes rejaga muvofiq imtiyozli kredit resurslari hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlarni bir maromda amalga oshirishda to'lov topshiriqnomalarini tezkor tayyorlash va aniq manbalarga asoslanish ehtiyojining mavjudligi.

To'lovlarni bir maromda tashkil etish o'zaro kelishilgan shartlar asosida amalga oshiriladi.

## **32- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklarining faoliyatida garov ta'minoti uchun mol-mulk manbai yetishmasligi muammosi. Jalb qilinishi mo'ljallangan kreditlar va mol-mulklar uchun garov ta'minotini yaratishga imkon topilmasligi investitsiya qabul qilishga tayyor emaslik hisoblanadi. Buning oqibatida ishlab chiqarishni yangi quvvatlar bilan ta'minlash yuz bermaydi.

Shuning uchun «Fermer xo'jaliklariga jalb qilinadigan investitsiyalar va qarzlar, olinadigan mol-mulk uchun garov ta'minotini tashkiliy shakllantirishni ta'minlashga ko'maklashish xizmatlari»ga murojaat etish taklif qilinadi. So'ng jalb qilinadigan investitsiyalar uchun garov ta'minotini tashkiliy shakllantirish amalga oshadi. Fermer xo'jaligiga investitsiyalar kirib kelishi ta'minlanadi.

### **33- MUAMMO**

Marketing tadqiqotlarining yo'lga qo'yilmaganligi, bunday tadqiqotlarning ahamiyatini tushunib yetmaslik va uni yo'lga qo'yish ushubiyatlaridan xabardor emaslik muammosining mavjudligi.

Manfaatdor fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlarini yo'lga qo'yish tashkil qilib beriladi va iqtisodiy samara olishni ta'minlash uchun bajariladigan tadbirlar mazmuni tushuntiriladi.

### **34- MUAMMO**

Tashkiliy ta'minlangan va uyushgan holda tashkil etiladigan «Marketing xizmatlari bozori»ga ehtiyoj paydo bo'layotganligi va uni tashkil etish tashabbusini shakllantirish zarurligi muammosining mavjudligi.

Manfaatdor xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan tuziladigan o'zaro manfaatli shartnoma asosida tashkil etiladigan marketing xizmatlari bozorini ko'rsatiladigan xizmatlar xilma-xilligi bilan to'ldirish va tashkiliy choralarini belgilash asoslab beriladi.

### **35- MUAMMO**

Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil eta bilmaslik natijasida yollanib ishlagan fuqarolar jabrlanishi bilan bir qatorda fermer xo'jaligining o'ziga ham zarar yetmoqda.

«Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va xodimlar daromadini qonuniy shakllantirishda fermer xo'jaligi boshlig'inining mas'uliyatini ta'minlashga ko'maklashish xizmatlari» yordamga keladi. Mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etish, ish beruvchi va ish oluvchilarga birdek foydali mahsulot ishlab chiqarishni birgalikda tashkil qilishda birdamlik va bir-birini qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi.

### **36- MUAMMO**

Fermerlarning kasb malakasi va salohiyatini oshirishda muammolar mavjudligi, fermer xo'jaliklari boshliqlarining malaka oshirish va salohiyatni yuksaltirish ahamiyatini tushunib yetmaganligi oqibatida zarur tadbirkorlikda muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bu holda «Fermer xo'jaligi boshliqlarining kasbiy malakasini oshirish va intellektual salohiyatini yuksaltirishga ko'maklashish

xizmatlari»ga murojaat etish taklif etiladi, natijada fermerlarning malakasi va salohiyati yetarli darajada oshiriladi.

### **37- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari faoliyatida yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut)dan suv yo'lidan to'siqsiz foydalanishning mukammal yo'lga qo'yilmaganligi natijasida bunday huquqdan to'la foydalanish imkoniyati bo'lmayapti. Ko'p hollarda bu huquqdan foydalanish qiyin kechyapti. Bunga suv olib o'tish bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan noqulayliklar sabab qilib keltirilmoqda.

Suv yo'lidan to'siqsiz foydalanish huquqidan to'la foydalanishni ta'minlaydigan ushublar taklif etiladi. Suv yo'lidan to'siqsiz, to'la huquqli suvdan foydalanuvchi sifatida foydalanish yo'lga qo'yildi.

### **38- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari faoliyatida yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut)dan dala yo'lidan to'la huquqli yerdan foydalanuvchi sifatida foydalanilmaslik natijasida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda qiyinchiliklar va noqulayliklar tug'dirmoqda.

Dala yo'lidan hech qanday to'siqsiz va o'zi uchun qulay vaqtida foydalanishni huquqiy asoslash yo'lga qo'yildi.

### **39- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari faoliyatida yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut)dan ihota daraxtzorlari barpo etish huquqidan foydalanmaslik oqibatida tashqi himoya va biologik drenaj vazifasini ta'minlaydigan huquqiy vositani qo'llash imkonii bo'lmayapti. Natijada yer maydonlarining sifat ko'rsatkichlari tobora pasayib bormoqda, yerning ball-bonitetini ko'tarishga qaratilgan tashabbuslar rag'batlantirilmayapti.

Ihota daraxtzorlari barpo eishni tashkiliy, moliyaviy va shartnomaviy ta'minlaydigan usiub «Guliston Agrokonsalting» korxonasi tomonidan taklif etiladi. Servitut huquqlaridan foydalanishni tashkil qilish natijasida ushbu huquqdan foydalanish nazarda tutilgan moliya xo'jalik faoliyatini rejalasitirish va samarali tashkil qilishdagi ahamiyatini tiklashga yordam beradi.

### **40- MUAMMO**

Xo'jalik nizolarini bel qilishning muqobil shakli hakamlik sudlari himoyasiga murojaat qilish yetorli yo'lga qo'yilmaganligi natijasida nisbatan kam ciymatga ega bo'lgan ko'p nizolar yechilmasidan qolayapti. natijada moliyaviy muammolar to'planib qolayotganligi.

Da'voni shakllantirish va himoyani ta'minlash bo'yicha hakamlik sudi xizmatlari ko'rsatiladi.

## **41- MUAMMO**

Hakamlik sudsari faoliyati samaradorligini qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining nizolarini yechishda moliya-xo'jalik faoliyatining xususiyatlari haqidagi huquqiy-iqtisodiy yechimlar loyihibalariga ehtiyoj mavjudligi sababli hakamlik sudsarini iqtisodiy yechimlar bilan ta'minlash zaruriyati paydo bo'layotganligi.

Hakamlik sudsari iqtisodiy yechimlar bilan ta'minlanadi hamda da'vogar va javobgarning sud muhokamasiga tayyorlanishiga yordam beriladi.

## **42- MUAMMO**

Xo'jalik faoliyatidagi boy berilgan foydani hisoblash uslublari qo'llanilmasligi natijasida moliya-xo'jalik faoliyatiga jiddiy zarar yetkazish holatlari mavjudligi.

Boy berilgan foydani hisoblashning umumiy uslubiyoti, uning turlari, kelib chiqish sabablari, bartaraf etish usullari va mas'uliyatni shakllantirish mexanizmi asoslab beriladi.

## **43- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklarining ta'minotchi tashkilotlarga boy berilgan foydasi shaklidagi muammoning mavjudligi, fermer xo'jaligi moddiy-texnik resurslar yetkazib berayotgan tashkilot o'z vazifalarini bajarishda resurslarni yetkazib berish muddatlariga rioxal qilmasligi, yetkazib berish grafiklari nomigagina tuzilgan hujjat ekanligi, vegetatsiya davrida uzilishlarga yo'l qo'yilishi tarzida zarar keltirishi davom etayotir. Ushbu zararning oqibatlari bilan hisob-kitob qilish izchil yo'lga qo'yilmagan.

Ushbu holda «Xo'jalik yurituvchi subyektlarni boy berilgan foydani hisoblash uslublari bilan ta'minlash va javobgarlik mas'uliyatini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari» taklif etiladi.

Fermer xo'jaliklarinnig qonuniy manfaatlari va moddiy yo'qotishlari tiklanadi. Ta'minotchilarning mas'uliyati grafik asosida nazoratga olinadi.

## **44- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklarining tayyorlovchi tashkilotlarga boy berilgan foydasi shaklidagi muammoning mavjudligi, fermer xo'jaliginining yetishtirilgan mahsulotini qabul qilib oladigan tayyorlovchi tashkilotlari o'z vazifalarini bajarishda ba'zan paxta xomashyosi va g'allaning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda standartlardan chetga chiqishi, o'lchamini noto'g'ri beigilash va boshqa suiste molchiliklarda zarar

keltirishi uchrab turadi. Bunda «Xo'jalik yurituvchi subyektlarni boy berilgan foydani hisoblash uslublari bilan ta'minlash va javobgarlik mas'uliyatini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari» taklif etiladi. Fermer xo'jaligining buzilgan huquqlari himoya qilinadi, moddiy yo'qotishlar va boshqa zararlar tiklanadi. Shuningdek, mahsulotni qabul qilish vaqtida yuz berishi mumkin bo'lgan huquqbazarliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan qat'iy choralar belgilanadi.

## **45- MUAMMO**

Fermer xo'jaligining fermer xo'jaligi a'zosi (shu jumladan, mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan a'zosi)ga boy berilgan foydasi shaklidagi muammoning mavjudligi. Fermer xo'jaligi boshlig'i bilan mehnat shartnomasi asosida munosabatga kirishgan fermer xo'jaligi a'zosining o'z vazifasini lozim darajada bajarmasligi, ish joyida bo'lmasligi, oqibati zararga olib keluvchi xatti-harakatlar davom etmoqda.

«Xo'jalik yurituvchi subyektlarni boy berilgan foydani hisoblash uslublari bilan ta'minlash va javobgarlik mas'uliyatini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari» natijasida mehnat nizolarini huquqiy vositalar yordamida hal qilish, binobarin, fermer xo'jaligining boy berilgan foydasini tiklash ta'minlanadi.

## **46- MUAMMO**

Fermer xo'jaligi a'zosi (mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan a'zosi)ning fermer xo'jaligiga boy berilgan foydasi shaklidagi muammoning mavjudligi sababli fermer xo'jaligi boshlig'inining fermer xo'jaligi a'zosi oldidagi majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligi davom etib kelmoqda. Ko'p hollarda fermer xo'jaligi boshlig'inining aybi bilan mehnat munosabatlari to'xtab qolmoqda.

Bunda «Xo'jalik yurituvchi subyektlarni boy berilgan foydani hisoblash uslublari bilan ta'minlash va javobgarlik mas'uliyatini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari» natijasida fermer xo'jaligi boshlig'inining mas'uliyatini ta'minlanadi, xo'jalik a'zosining huquqlari esa tiklanadi.

## **47- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklarining tuman davlat yer resurslari xizmatlariga boy berilgan foydasini shaklidagi muammolarning mavjudligi, tumanlardagi davlat yer resurslari xizmatlari O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi va boshqa qonun hujiatlarida belgilangan vazifalarni lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq bo'lgan zarar keltirishlari yuz berishi «Xo'jalik yurituvchi subyektlarni boy berilgan foydani hisoblash uslublari bilan ta'minlash va javobgarlik mas'uliyatini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari» orqali oldi olinadi.

## **48- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklarining suvdan foydalananuvchilar uyushmalariga boy berilgan foydasi shaklidagi muammolari, suvdan foyda-lanuvchilar uyushmalari qonun hujjatlarida va xizmat ko'rsatish shartnomalarida ko'zda tutilgan majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasligi oqibati ekanligi.

Bunda «Xo'jalik yurituvchi subyektlarni boy berilgan foydani hisoblash uslublari bilan ta'minlash va javobgarlik mas'uliyatini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari» orqali fermer xo'jaligining buzilgan huquqlari tiklanadi. Suvdan foydalanish rejimi mukammal ishlab chiqiladi.

## **49- MUAMMO**

Xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan qarzdorlik holati to'g'risida taqqlislama dalolatnomalarni tuzishga vaqt yetishmasligi muammosi mavjudligi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaida tuziladigan dalolatnomalar shartnoma asosida mukammal tashkil etiladi va xizmatlar ko'rsatiladi.

## **50- MUAMMO**

Fermer xo'jaliklari o'rtaida o'zaro hamkorlik va birdamlikni shartnomaviy usulda ifodalab ta'minlash tarqoqligi mavjud. Yagona maqsad va rejalar asosida faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining bir-birlarini qo'llab-quvvatlash usullaridan samarali foydalannmasligi ayrim fermer xo'jaliklarining yakkalanib qolishiga olib kelmoqda. Bunda «Fermer xo'jaliklari o'rtaida majburiyatlarni muzlatish va javobgarlik mas'uliyatini muvozanatlashirishga ko'maklashish xizmatlari» taklif qilinadi.

Fermer xo'jaliklari bir-birlarining majburiyatlari ijrosiga yordam berishlari va mas'uliyatni o'zaro taqsimlashga rozi bo'lislari shartnomaviy shaklda yo'lga qo'yildi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. *Konsalting faoliyati yordamida yechiladigan muammolarning qaysilardan siz xabardorsiz?*
2. *Qaysi muammolar bo'yicha talabni shakllantirish mumkin deb hisoblaysiz?*
3. *O'zingiz yashaydigan hududga xos muammolarga yechimi topish bo'yicha taklifingizni bayon qiling.*
4. *«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasining marketing tadqiqotlari natijasida aniqlangan 50 xil muammoga — 50 xil javobni o'qib tushuntirib bering.*

### **III BOB. FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINI AXBOROT-KONSALTING BIZNESI ORQALI BARQARORLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

---

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi «Fermer xo'jaliklari faoliyatini Axborot-konsalting biznesi orqali barqarorlashtirish texnologiyalari»ni ishlab chiqdi. Barqarorlashtirish texnologiyalari pirovard foydali iqtisodiy natijani va huquqiy himoyalanishni kafolatlay oladigan, amaliyotda sinab ko'rilgan 50 xildan ortiq maslahat tavsiyalar tizimi bo'lib, doimiy harakatlanuvchan jarayondir. Texnologiyalar qonun hujjatlari talablarini amalda qo'llashning usullarini asoslab beradi. Texnologiyalar 3 qismidan iborat 3 bosqichli bo'lib, uning maqsadi fermer xo'jaliklari faoliyatini tartiblash, faollashtirish va mas'uliyatini ta'minlashga imkoniyat yaratadigan usullarni yetkazib berishdan iborat.

Texnologiyalarning har biri tarkibiy jihatdan alohida-alohida bo'lib, o'z xususiyatlariga ko'ra bir-birini to'ldiradi hamda qo'llanish zaruriyatiga ko'ra esa quyidagi mustaqil 3 ta xizmatlar to'plamini o'z ichiga oladi.

1. «Fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini tartiblash texnologiyasi» 13 turdag'i konsalting mahsulotlari va xizmat turlarini o'z ichiga oladi. Texnologiya o'z oldiga moliya-xo'jalik faoliyatining asoslarini va unga bo'lgan munosabatlarni tartiblashni nazarda tutadi.

2. «Fermer xo'jaliklari faoliyatida raqobat muhitini rivojlantirishni tashkillashtirish texnologiyasi» 21 turdag'i konsalting mahsulotlari va xizmat turlarini o'z ichiga oladi. Texnologiya moliya-xo'jalik faoliyatini faollashtirish va raqobat muhitini rivojlantirishga yordam beradigan usullarni asoslaydi.

3. «Fermer xo'jaliklarida da'vo talablarini shakllantirish va javobgarlik mas'uliyatini ta'minlash bo'yicha nizolashishni huquqiy asoslash texnologiyasi» 16 turdag'i xizmatlarni o'z ichiga oladi. Texnologiya manfaatdor tarafning buzilgan huquqlarini himoya qilish va shu bilan birga mas'uliyati va burchini shakllantirishga yordam beradi.

Barqarorlashtirish texnologiyalarini ishlab chiqishda fermer xo'jaliklarining muammolarini bevosita yaqindan turib o'rganish

natijalari hamda 2004—2007- yillardan beri doimiy ravishda o'tkazib kelinayotgan marketing tadqiqotlari kuzatuvlarida qayd qilingan holatlar tahlili asos qilib olindi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida subyektlarning har birini uning shaxsiy manfaatlari boshqaradi. Xo'jalik aloqalariga kirishilganda bu manfaatlarning qondirilishi darajasi qanchalik asoslanganligi, aniqligi va erishish mumkinligiga ishonch mavjudligi ahamiyatlidir. Shu bilan birga manfaatlarning qondirilishi uchun boshqa manfaatlarga yuzma-yuz peshvoz chiqishni zarur qilib qo'yadi chunki yakka harakatlanish bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Shu ma'noda olganda endi tovar ishlab chiqaruvchining manfaatini axborot yetkazib beruvchining manfaati bilan muvofiqlashtirish vaqt yetib keldi. Bunda tomonlar o'rtaida xolis qudratga ega bo'lgan axborot turadi. Zarur axborot o'z qadr-qimmati bilan talab qilib olinganda fermer xo'jaligi faoliyatini barqarorlashtirish uchun quroq bo'lib xizmat qiladi va taklif etuvchining biznesini ham harakatga keltiradi.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi taklif qilingan texnologiyalari fermer xo'jaliklariga yetib borishi bilan ularning muammolari qaysidir darajada yechilishiga umid qiladi.

Mamlakatimizda fermerchilik keng rivojlanib bormoqda. Mana shunday sharoitda fermer xo'jaliklariga ko'rsatilayotgan huquqiy himoya qilish va konsalting xizmatlarining ahamiyati ham tobora ortib boradi. Huquqiy himoyalash ishlari endi faqat yetishtirilgan mahsulot uchun tayyorlov korxonalaridan vaqtida to'lanmagan mablag'ni undirib berish kabi tor doiradan allaqachon chiqib bo'ldi. Huquqiy himoyalash mavzulari kengayib, takomillashib xo'jalik yurituvchi subyektlar bozor iqtisodi sharoitida yuz berishi muqarrar bo'lgan murakkab vaziyatlarga duch kelmoqdalar.

Fermer xo'jaliklarini faoliyatini huquqiy himoyalash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati kutilgan samarani berishi uchun fermer xo'jaliklarining o'zlari xo'jalik faoliyatini tashkiliy moliyaviy tartibga solishi zarurligi hamda malakali kadrlarning iqtisodiy bilimlari dolzarb bo'lib boryapti.

Bugungi kundagi har bir tadbirdor, mutaxassis va fermer xo'jaligi boshlig'i o'z oldiga aniq maqsad qo'ya olishi, o'z imkoniyatlarini to'la safarbar etishi va undan samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirishi, investitsiya qabul qilishga munosib darajadagi mustaqil xo'jalik balansiga ega bo'lishi kerak. Fermer xo'jaliklarini va tadbirdorlar va tahsil olayotgan kasb-hunar kollejlari talabalari iqtisodechilar

tomonidan aniq hisob-kitob va tavsiyalar bilan ta'minlanmasa, ular bozor iqtisodiyotiga xos muammolar qarshisida himoyasiz qoladilar. Agrokonsalting mahsulotlarining fermer xo'jaliklariga tadbiq qilinishi ularning muammolari yechimiga yordam berishi bilan birga shu sohada ishlaydigan yoki kelgusida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bilan hamkorlik qiladigan mutaxassislarga ham bu ko'nikmalar asqotishi mumkin. Qishloq xo'jaligidagi muammolarni kasb-hunar kollejlarida o'rgatilishi talabalarning kasbiy chiniqishiga yordam berishi shubhasiz.

### **Savol va topshiriqlar**

- 1. Bargarorlashtirish texnologiyalarini sanab bering.*
- 2. Texnologiyalar tarkibiga kiruvchi xizmat turlarini aylib bering.*
- 3. Texnologiyalarning o'zaro bog'liq jihatlari haqida xulosa tayyorlang.*

**IKKINCHI QISM.  
FERMERLAR UCHUN AGROKONSALTING  
XIZMATLARI**

---

---

---

---

**1. Ta'sis hujjatlari loyihalarini  
tayyorlab berish va uni ro'yxatdan  
o'tkazishga ko'maklashish xizmatlari**

---

---

Quyida qonun hujjatlarida fermer xo'jaliklariga yuklatilgan majburiyat va talablar ijrosini ta'minlashga qaratilgan xizmatlar ko'rsatiladi.

Ta'sis hujjatlari loyihalarini tayyorlab berish, mavjud hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish, ta'sis hujjatlarining fermer tomonidan qabul qilinishi va davlat ro'yxatiga taqdim etilishini tashkil qilish jarayoniga xizmat ko'rsatiladi hamda uning kundalik faoliyatga ijobjiy ta'sirini ta'minlash choralari asoslab beriladi.

Fermer xo'jaligining asosiy ta'sis hujjatlaridan biri bu uning Ustavidir. Ustav fermer xo'jaligining tashkiliy-huquqiy maqomini belgilab berish bilan birga uning vazifasini bajarishga yo'naltirib turadigan asosiy qoidalar majmuidir. Binobarin, fermer xo'jaligi nomidan tuziladigan har qanday bitim yoki shartnoma mazkur fermer xo'jaligining Ustaviga asosan tuzilganligi qayd qilib o'tildi. Demak, mazkur shartnoma yoki bitim predmeti Ustavga mos ekanligi asos qilib olinadi.

«Ta'sis hujjatlari loyihalarini tayyorlab berish va uni ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish xizmatlari»ni ko'rsatishning maqsadi:

- Fermer xo'jaliklari Ustavlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish.
- Ta'sis hujjatlari mazmunini amaldagi qonun talablariga yaqinlashtirish.

– Muassislarning o'z ta'sis hujjatlari mazmunidan kelib chiqishi mumkin bo'lган oqibatlarga nisbatan mas'uliyatni shakllantirish.

Xizmat ko'rsatishdan kutilayotgan natija:

- Fermer xo'jaliklarining ta'sis hujjatlari bozor munosabatlari sharoitida huquq va majburiyatlarni belgilashda asos sifatida foydalishga yaroqli bo'ladi.

- Ustav fondining shakllantirilishi pul-kredit munosabatlari hamda o'z faoliyati natijasi uchun da'vogar va javobgar bo'lish holatlarida muhim ahamiyatga ega.

- Fermer xo'jaligi egasining mulkdor sifatida O'zbekiston Respublikasining qonunlariga nisbatan mas'uliyati ta'minlanadi.

Fermer xo'jaliklarining ta'sis hujjatlari ularga xizmat ko'rsatish jarayonida o'rganilganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, garchi tayyorlangan Ustavlar namunaviy andozadan olingen bo'lsa-da, ayrim hollarda qonunlarga zid tahrirda bayon etilgan bandlar uchraimoqda. Bunday nuqsonning yuzaga chiqmay kelishining sababi fermer xo'jaligi mustaqil xo'jalik yurituvchi yuridik shaxs sifatida shartnomaviy munosabatlarga kirishishdan oldin ta'sis hujjatlaridagi faoliyat yo'nalishlari bilan tanishtirish amaliyoti qo'llanilmaganligidir. Boshqacha qilib aytganda, bunga zarurat ham bo'limganligidadir. Ustav kundalik faoliyat davomida doimiy qo'llanilmasdi, balki faqat davlat ro'yxatidan o'tishda kerak bo'lardi.

Shunga bog'liq holda ba'zan Ustav fondlarining miqdoriga ham bepisand munosabatda bo'lindi. Iqtisodiy nuqtai nazardan korxonaning Ustav fondi uning moliyaviy salohiyatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Ustav fondi qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik ko'p hamkorlar topa olishga umid qilsa bo'ladi. Fermer xo'jaligi to'g'risidagi yangi qonunning 8,9 va 18- moddalarida Ustav fondining miqdori fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan belgilanishi ko'rsatilgan.

Shuningdek, fermer xo'jaligi Ustavida qonunchilikka zid kelmaydigan qoidalar yozib qo'yilishi mumkinligi ta'kidlangan.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 30- oktabrdagi 476- sonli qarorida tasdiqlangan «Fermer xo'jaligining namunaviy Ustavi», «Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Konsepsiysi» hamda «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi 2004- yil 26- avgustda qabul qilingan qonun talablaridan kelib chiqib, fermer xo'jaligining huquq va majburiyatları to'liq aks ettirilgan, Ustav fondlarini shakllantirish tartibotlari to'liq yoritilgan hamda har bir fermer xo'jaligining alohida xususiyatlarini hisobga olishni ham nazarda tutilgan shaklda ta'sis hujjatlari loyihasi namunasini ishlab chiqdi.

Mazkur loyiha asosida ta'sis hujjatlarini tayyorlash shartnoma asosida:

- har bir fermer xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini maxsus so'rvonoma asosida aniqlik kiritish;
- ta'sis hujjatlarini muassislar bilan birgalikda ishlab chiqish;
- ta'sis hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda hamkorlik qilish;
- korxona xizmatlarini bevosita fermer xo'jaliklarining yashash va ish joylarida, mahallalarda yoki ularga qulay bo'lgan joyda tashkil etish;

— ko'rsatiladigan xizmat sifati kafolatlangan, mas'uliyat to'liq belgilangan, davomli xizmat ko'rsatish majburiyati bilan tashkil qilinadi.

Xizmat ko'rsatish izchilligi muayyan ketma-ketlikdagi uch bosqichli tadbirdardan iborat bo'ladi.

Ta'sis hujjatlari loyihalarini tayyorlab berish va ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish xizmatlari ko'rsatilishi natijasida quyidagi ta'sis hujjatlari loyihalari tayyorlanadi.

1. Fermer xo'jaligi tashkil etish to'g'risida muassisning qarori loyihasi.

2. Fermer xo'jaligi Ustav loyihasi muassisning qaror loyihasi shakli bo'yicha mulohaza qilganda bir bet qog'ozdan iborat bo'lsada. mazmunan olganda juda ko'p tashkiliy tadbirdarning bajarilganligini ifodalaydigan (bajarilishi lozim bo'lgan) tadbirlar haqidagi yakuniy hujjat bo'lib hisoblanadi.

Qaror loyihasida fermer xo'jaligiga belgilangan tartibda qilinayotgan tahrirdagi Ustav loyihasi hamda tashkil qilinayotgan fermer xo'jaligi nomidan ish ko'rish kimning zimmasiga yuklatilayotganligi haqidagi tashkiliy masalalar yechimi o'z aksini topadi.

Qarorning eng muhim bandlaridan biri qabul qilinayotgan tahrirdagi Ustav loyihasi bo'lib, unda fermer xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish, berilgan huquqlardan foydalanish va majburiyatlarni bajarishni tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan masallarning aniq yechimi yakuniy ifoda qilingan bandlar o'z aksini topadi. Bunda asosiy e'tibor qabul qilinayotgan tahrirdagi Ustav loyihasida belgilangan tadbirlarni bajarishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy holatlar aniq hisob-kitob qilinishiga qaratiladi.

Ta'sis hujjatlari loyihalarini tayyorlab berish va uni ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish xizmatlari 3 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich mazkur «Ta'sis hujjatlari loyihalarini tayyorlab berish va uni ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish xizmatlari» nomli kitobchani yetkazib berishdan iborat bo'ladi. Basharti fermer xo'jaligi o'z buyurtmasida o'zini qiziqtirgan mavzuda maqsadini aniq bayon etgan bo'lsa, shu yo'nalishda xizmat ko'rsatish davom ettiriladi.

Ikkinchi bosqich qo'shimcha axborot xizmatlari bilan davom ettiriladi hamda buyurtmachining taklifidagi fikrlar ham hisobga olingan tahrirdagi fermer xo'jaligi Ustavi loyihasi yetkazib beriladi.

Uchinchchi bosqichda har ikki tomonning fikri bilan ishlab chiqilgan tahrirdagi ta'sis hujjatlari davlat ro'yxatiga tayyorlanadi. Bu jarayonda fermer xo'jaligi muassisi ham ishtirok etadi. Muassis tayyorlangan hujjatlar bilan bevosita tanishib chiqadi, imzolaydi va davlat ro'yxatidan o'tishiga taqdim qiladi.

Xulosa o'rnilida ta'kidlash o'rniqliki, demak, ta'sis hujjatlarini tayyorlash bu faqat oldindan tayyorlab qo'yilgan matn asosida namunadan nusxa ko'chirishdangina iborat bo'lib qolmay, balki juda jiddiy va alohida e'tibor talab qilinadigan jarayondir. Ta'sis hujjati qanday hujjat ekanligini nazarda tutgan holda bu hujjatga qaysi darajada e'tibor qilish zarurligini anglab olish qiyin emas. Demak, asosiy e'tibor bilan ta'sis hujjatlarida ifodalangan tadbirlarga mas'uliyatli yondashish talab qilinadi.

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasiiga

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

«\_\_» \_\_\_\_ 200\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Ta'sis hujjatlari loyihalarini tayyorlab berish va uni ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlrar.	Ta'sis hujjatlari loyihalari tayyorlanayotganda bevosita ishtirok etish, ta'sis hujjatlar» ning qonun hujjatlarida belgilangan namunalar bilan tanishish hamda ta'sis hujjatlarning (moliyaviy hujjat-larning) moliyaviy xo'jalik faoliyatida tartibga soluvchi ta'sirini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Fermer xo'jaligi tashkil etish uchun belgilangan tartibda (tanlov komissiyasi orqali) yer uchastkasi olinganligini tasdiqlovchi hujjat, fermer xo'jaligi boshlig'ining pasport ma'lumotlari va biznes reja uchun kerakli ma'lumotlar.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi.	Dastlabki hujjatlar to'liq qabul qilinganidan keyin tayyorlangan hujjatlar davlat ro'yxatiga taqdim etilganda va boshqa kelishilgan muddatlarda.
5.	

«Buyurtmachi»

F.I.O. lavozimi

---

---

**2. Fermer xo‘jaliklari faoliyatida  
Ustav fondlari miqdorini shakllantirishga  
ko‘maklashish xizmatlari**

---

---

Ushbu qismda Ustav fondlari miqdorini shakllantirishning ahamiyati oshib beriladi. Ustav fondining moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini oshirish, uni ishlab chiqarishni rejashtirishni asoslantirishga asosiy manba darajasiga ko'tarish tadbirlari yoritib beriladi. Intellektual mulk hisobiga Ustav fondini vujudga keltirish va uni ichki investitsiya kiritish shakli sifatida tashkillashtirish mumkinligi asoslab beriladi.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi fermer xo'jaliklarning ta'sis hujjatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish va Ustav fondlari shakllantirishini tartibga solish, uning miqdori manfaatdor fermer xo'jaliklari tomonidan ko'paytirishini rag'batlantirish va Ustav fondining iqtisodiy ko'rsatkich sifatidagi ahamiyatini oshirish maqsadida fermer xo'jaligi muassisi tomonidan xo'jalikning Ustav fondini shakllantirish jarayonlarini rasmiylashtirish bo'yicha namunaviy tavsiya ishlab chiqdi.

Tavsiyaga ko'ra Ustav fondini tartibga solish maqsadida quyidagi ko'rsatkichlar belgilanadi:

- mulkdorning Ustav fondini tashkil etish to‘g‘risidagi qarorida ko‘rsatilgan mol-mulk ro‘yxati;
- oilaning boshqa a‘zolari roziligi;
- Ustav fondini nomoddiy aktivlar hisobiga ko‘paytirish hisobkitobi;
- aylanma mablag‘ni me‘yor darajasida saqlash choralari.

Fermer xo'jaligi bo'yicha Ustav fondi miqdori yig‘ma dalolatnomasi.

Ustav fondini nomoddiy faollar, intellektual mulk hisobiga ko‘paytirib borishning ahamiyati ortib boradi. Intellektual mulk — bu muassisning aqliy salohiyati va faolligining puldag‘i ifodasıdir. Intellektual mulknı baholashning birinchi usuli yetishtiriladigan mahsulot qiyomatining 25% darajasidagi tashkiliy xarajat asos qilib olindi. Sababi, fermer ko‘zlangan hosilni olish uchun imtiyozli kredit hamda ajratiladigan yonilg‘i-moylash materiallari, o‘g‘it va boshqa xizmatlar haqidan tashqari o‘zining kumida 25% ekvivalentida kuch ishlataadi.

Ikkinci usul fermer xo'jaligining yerdan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqini hisoblashga asoslanib aniq raqamlar vositasida hisobot ma'lumotlari bo'yicha aniqlab chiqiladi.

Uchinchi usul fidoyilik sarmoyasi deb ataladi.

Fermer xo'jaligining buxgalteriya hisobida aks ettiriladigan Ustav fondi miqdori muassisning qarori bilan tartibga solinadi. Muassisning qarorida ko'rsatilgan summa belgilangan tartibda buxgalteriya balansida aks ettiriladi. Balansda aks ettiriladigan Ustav fondi miqdoriga aniqlik kiritish quyidagi izchillikda amalga oshiriladi.

1. Ustav fondining ko'p bo'lishi samarasini e'tiborga olgan holda fermer xo'jaligining salohiyatini munosib belgilash va shakllantirish uchun maqbul bo'lgan qiymat aniqlab olinadi.

2. Aylanma mablag'larning eng muhim turlarini hisoblab chiqilgan me'yor darajasida saqlashni tashkil qilish.

3. Qonun hujjatlarda belgilangan tartibda oilaga tegishli mulkni Ustav fondida aks ettirish uchun ularning roziligini olish.

4. Ustav fondini nomoddiy aktivlar (intellektual mulk) hisobiga ko'paytirish hisobini tayyorlash.

5. Fermer xo'jaligi bo'yicha Ustav fondi miqdori yig'ma dalolatnomasini tuzish.

6. Yig'ma dalolatnoma yig'indisi miqdorida Ustav fondi shakllantirilganligi to'g'risida qaror qabul qilish.

Fermer xo'jaligi Ustav fondidagi intellektual mulkni baholash uslubi. 1- usul.  $T_x$ , M, J.  $T_x$  — tashkiliy xarajatlar. M — yetishtiriladigan mahsulotning o'rtacha qiymati. J — joriy koeffitsiyent 0,25%.

2- usul.  $E_m$ ,  $E_m$ ,  $Sh_y$ , G.  $E_{ix}$  — yerdan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqi.  $E_m$  — yer maydoni,  $Sh_y$  — shartnomadagi yillar soni, G — bir gektarga to'g'ri keladigan sof foya.

3- usul.  $F_s$ ,  $K_k$ ,  $Y_s$ .  $F_s$  — fidoyilik sarmoyasi,  $K_k$  — kelishilgan qiymat,  $Y_s$  — yillar soni.

Ustav fondi miqdorini buxgalteriya hisobida aks ettirish «Buxgalteriya hisobi to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, buxgalteriya hisobi milliy standarti talablari asosida tartibga solinadi.

Bunda quyidagi holatlarga e'tibor berish tavsiya qilinadi.

Ustav fondidagi moddiy boyliklar bo'yicha:

— balansda aks ettirilgan summadagi qiymatda Ustav fondini tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi;

— kirim, chiqim va eskirishga oid hujjatlarning to'g'riliqi;

— balans ma'lumotlarini o'z vaqtida belgilangan tartibda inventarizatsiya qilishga rioya qilish.

Ustav fondidagi nomoddiy boyliklar bo'yicha:

- balansda aks ettirilgan summada tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi;
- nomoddiy aktivlar tarkibi to'g'ri belgilanishi;
- nomoddiy aktivlar qiymatini asosli belgilash choralar: kelishilgan qiymat hisobi, nomoddiy aktivlarni yaratishdagi haqiqiy xarajatlar hisobi, bepul qabul qilish holatlarida ekspert bahosi;
- nomoddiy aktivlarni kirim qilish qoidalariga rioya qilish: Ustav fondiga to'lov, sotib olish, bepul tushum, xususiy yaratish hisob-kitobi va boshqalar.

(Namuria)

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasiغا

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

“\_\_\_” 200 \_\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Fermer xo'jaliklari faoliyatida Ustav fondlari miqdorini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini oiziqtiradigan holatlar.	Shakllantirilgan Ustav fondi miqdorining ahamiyati, Ustav fondining moliya xo'jalik faoliyatiga ta'sirini oshirish, Ustav fondini moliya xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini rejalashtirishni asoslantirishga xizmat qiluvchi mulkiy manba darajasiga ko'tarishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar loyihasi.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalinish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Ustav fondi miqdorini shakllantirishga yaroqli deh hisoblangan mol-mulk qiymati, birgailikdagi oila mulki bo'lgan, lekin fermer xo'jaligi yuritish uchun to'liq foydalishga berilayotgan mol-mulklar, shu jumladan, notarial tasdiqlangan mulklar qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyigi.	Hujjatlar rasmiylashtirilayotgan jarayonda zaruratga qarab.

«Buyurtmachi»

F.I.O. lavozimi

---

**3. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda  
agrotexnika talablariga rioya etishni  
texnologik karta va agrotexnologik davr  
bo‘yicha tuziladigan  
biznes-reja asosida tashkillashtirishga  
ko‘maklashish xizmatlari**

---

Quyida mahsulot yetishtirish texnologiyasiga rioya etish uchun texnologik kartadan foydalanish samaradorligi targ'ib qilinadi va asoslab beriladi.

Texnologik karta tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish yangi mazmunda bo'lib, manfaatdor fermer xo'jaligi tomonidan paxta-g'alla yetishtirishda agrotexnika talablari asosida hisob-kitobni tashkil qilishni ta'minlanadi. Shuningdek, paxta-g'alla yetishtirish xarajatlarini mahsulot yetishtirish bo'yicha texnologik kartaga muvofiq-lashtirish bilan birga xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va mahsulot tannarxini boshqarish imkonini yaratiladi.

Har qanday mahsulot (xizmat)ni ishlab chiqarish (xizmat ko'r-satish) ma'lum texnologiyaga asoslanadi. Texnologiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, soddaroq ifodalanganda mahsulot yetishtirish qoidalari, tartiblari va inahsulotga sarflanadigan moddiy-texnik resurslar miqdori yoki hajmini bildiradi. Bunday qoidalarga, tartiblarga rioya qilmaslik yoki sarflanadigan resurslarni me'yorida ishlatmaslik mahsulotni sifatlari ishlab chiqarish imkonini bermaydi. Binobarin, bu holat muayyan oqibatlarga olib keladi. Bu oqibat mahsulot ishlab chiqaruvchining faoliyatiga yakuniy baho beradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish agrotexnikasi — bu qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash bo'yicha ilmiy asoslangan qoidalardir. Bu qoidalarga rioya qilmaslik qishloq xo'jaligi ekinlarining parvarishlasni jarayoni buzilishida ifodalangan oqibatlarga olib keladi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi tabiiy iqlim sharoitlari bilan uzviy bog'langan. O'sinlikni yetishtirish texnologiyasi, bu jonli organizm bilan munosabatga kirishishdir. Bu munosabat ma'lum bir qoidalalar asosiga qurilmasa tuzatib bo'lmas oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Shu sababli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish agrotexnikasi talablariga rioya etishda texnologik karta tuzishning ahamiyati

katta. Texnologik karta—qishloq xo'jalik ekin agrotexnikasi, ya'ni qishloq xo'jalik ishlari muayyan bajarilishi belgilangan tadbirlarning nomi, o'lchov bir kategoriyasi, ishchi kuchi sarfi, o'g'it va yoqilg'i sarfi k turlarini asoslantirgan holda hisob-kitobini chiqarish jara. Bunday hisob-kitob 1 gektar yerga yoki 1 tonna mahsulot yetirishga sarflangan xarajatni aniqlashda muhim rol o'yndaydi.

Texnologik karta agrotexnologik davrlar bo'yicha tuziladi. Bu 4 ta davrni o'z ichiga oladi.

1. Ekishgacha bo'lgan davr.
2. Ekish davri.
3. Parvarish davri.
4. Yig'im-terim davri.

Qishloq xo'jaligi muhim tabiiy boylik—yer bilan bog'langan bo'lib, hamma jarayon yer maydonlari bilan bog'liqdir. Ekishgacha bo'lgan davr asosan yer maydonini ekishga tayyorlash bilan bog'liq tadbirlarni o'z ichiga olsa, ekish davrida yerga qishloq xo'jalik ekini ekiladi, parvarish davrida yerga ishlov berish yo'li bilan ekinlar parvarish qilinadi, yig'im-terim davrida yerda yetishtirilgan o'simlik hosili yig'ishtirib olinadi. Ko'rinish turganidek, barcha tadbirlar yerga ishlov berish, yer munosabatlari kirishish bilan uzviy bog'langan. Binobarin, yer qatlamiga belgilangan ishlovni bermaslik, yerning unumdotligini saqlab turmaslik qishloq xo'jalik ekinlari parvarishini izdan chiqaradi hamda mahsulot yetishtirish mo'ljalini barbob qiladi.

Demak, texnologik karta tuzishning ahamiyati quyidagilarda ko'rindi:

- bajariladigan ishlar ro'yxatini tuzish va zarur bo'ladigan muddiy-texnik resutslar hisob-kitobini tayyorlash. Biznes-reja ishlab chiqish;
- bajariladigan ishlarning kalendar navbatini ishlab chiqish va shunga qarab chetdan jalb qilinadigan kuchlarning harakatini qilish;
- yer ijara shartnomasi shartlarining bajarilganligining isboti bo'la oladi.

Yuqoridagi xulosaga ko'ra har bir fermer xo'jaligi o'ziga ijaraga berilgan yer maydonida o'stiriladigan qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash bo'yicha texnologik kartani tuzishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun texnologik karta tuzishni o'rganish kerak va bunday ko'nikmalar rivojlantirilishi zarur. Mantiqan olib qaraganda texnologik karta tuzish namunaviy ustulga asoslansa-da, aslida juda

*'karini panvarishlash  
t'kemra-ketikkda  
'igi, ish hajmi.  
'abi xarajat  
'onidir.  
'ish-*

Ish turlari birma-bir ro'yxat qilinganda g oqibati, ishlarini bajarmaslik oqibatlari uing ortida qanchalik mas'uliyat turganligi

isulotlari yetishtirishda agrotexnika talab-logik karta va agrotexnologik davr bo'yicha asosida tashkillashtirishga ko'maklashish olib boriladi.

...azkur nomdag'i kitobchani yetkazib berishdan iborat bo'la... Kitobchaga paxta va g'alla yetishtirishda qo'llaniladigan texnologik karta namunalari ilova qilinadi.

Ikkinchchi bosqich termer xo'jaligi tomonidan beriladigan buyurtmada yozilgan holatlар qanchalik obyektiv yoritilsa, natijasi shuncha yaxshi bo'ladi. Binobarin, xizmat ko'rsatish buyurtmachini qiziqtirgan holatlarni hisobga olgan holda davom ettiriladi.

Uchinchi bosqichda, basharti, buyurtmachi ushbu bosqichda ham xizmat ko'rsatilishini talab qilgan bo'lsa, uning buyurtmasida ifodalangan muammolarning yechimi sifatida o'zaro hamkorlikda tayyorlangan 2 ta mahsulot paydo bo'ladi.

1. Fermer xo'jaligining aniq yer o'lchami bo'yicha tuzilgan texnologik karta.

2. Texnologik karta asosida tuzilgan biznes reja.

Biznes-reja shakli to'ldirilgan va hisob-kitob yakuniga yetkazilgan holatda tayyorlab beriladi. Asosiy muammo texnologik karta va biznes-rejadagi tadbirdirlarga og'ishmay rioya etish bo'lib hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 476- sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi» hamda 2004- yil 26- avgustda qabul qilingan «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning yangi tahririda fermerlarga yuklatilgan majburiyatlar aniq ifodalab qo'yildi. Ushbu majburiyatlarni biznes-rejalarda aks ettirish talabi qayd etildi. 2005- yildan boshlab davlat buyurtmasidagi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni bo'naklash o'rniiga imtiyozli kreditlash tartibi joriy qilindi.

Ushbu tadbirdilar biznes-reja ahamiyatini oshirdi. Biznes-reja tayyorlashga o'z ustavi va amaldagi qonunlar doirasida mas'ul bo'lgan «Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi biznes-rejaning texnologik kartaga asoslangan mazmundagi namuna shaklini ishlab chiqdi. Viloyat Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasida mazkur reja har tomonlama o'r ganib chiqildi. Asosiy e'tibor «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonunning talablari

hamda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasida belgilab berilgan huquq va burchlarni bajarishga qaratilgan tadbirlar, jadvallar, raqamlar muayyan ketma-ketlik va izchillikda ifodalanishiga qaratildi.

## **Texnologik karta asosida tuziladigan biznes-rejaning asosiy afzalliklari**

Ma'lumki, fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish (imtiyozli kredit ajaratish) moddiy texnik resurslar yetkazib berish va xizmat ko'rsatishni tashkil qilishda asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha namunaviy texnologik kartalardagi me'yorlar asos qilib olinadi. Ushbu texnologik kartalarda qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish 4 ta davrga bo'linadi. Bular ekishgacha bo'lgan davr, ekish davri, parvarish davri hamda yig'im-terim davrlaridir. Taklif qilinayotgan biznes-reja shakllarining hammasi qat'yan mana shu texnologik davrlar bo'yicha tuzishga asoslanadi hamda har bir davrga alohida mahsulot yetishtirish xususiyati va talabidan kelib chiqib daromad va xarajatlar rejalashtiriladi.

Obyektiv xulosa chiqarish adolatli xolisona yondashuvni, ma'lumotlarni sun'iy yaxshilamaslikni ko'zda tutadi. Bu tamoyilga asoslanmagan har qanday tahlil samarasizlikka yuz tutishi muqarrardir. Ijobiy yoki salbiyligidan qat'iy nazar, har bir natijaga ta'sir etgan omillar kuchini aniqlashga jiddiy e'tibor berildi. Namunaviy biznes-rejadan o'r'in olgan jadval shakllari mazmuniga qisqacha sharh alohida keltirilmoqda.

Tahlil qilishning taqqoslash, balanslashtirish, grafik hamda matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Berilgan huquqlardan samarali foydalanish va yuklatilgan majburiyatlarni to'liq bajarish fermer xo'jaligi uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilishi;
- to'lov va shartnoma intizomiga rioya qilish;
- xarajatlar belgilangan me'yordan oshmasligini nazorat qilish;
- iqtisodiyotda mablag'lar aylanishini tezlashtirish.

Biznes-rejada qayd qilingan quyidagi bandlar fermerning qonun bilan mustahkamlanib qo'yilgan huquqlarini amalga oshirishga yordam beradi:

- davlat buyurtmasidagi mahsulotlarni joylashtirish rejasini mustaqil ishlab chiqish;

- davlat buyurtmasidan ortiqcha yetishtirilgan mahsulotni shart-noma vositasida sotish usulini ifodalash;
- texnologik kartaga asosan 1 hektar yerga ketadigan mehnat va moddiy xarajatlar me'yori.

Biznes-rejada qayd qilingan fermerning majburiyatlarini tashkil qiluvchi quyidagi bandlar bajarilishi uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga imkon beradi:

- yuridik shaxsga qo'yiladigan talablarning bajarilishi;
- davlat buyurtmasidan ortiqcha yetishtirilgan mahsulotlar sotilganda pul tushumi oqimi haqidagi hisobot;
- rentabellik ko'rsatkichlarining xilma-xil ko'rinishlarini hisoblash orqali tashqi investorga ochiq va tushunarli informatsiya berish.

Fermer uchun texnologik karta va biznes-reja:

- ko'zlangan mahsulotni yetishtirish yoki xizmatlarni bajarishni kerakli muddatlarda va talab qilingan sifatda ta'minlash uchun ishlab chiqarish quvvatiga ega ekanligini isbotlash;
- mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish;
- xarajat va daromadni taqqoslay bilishdir.

Mahsulot yetishtirish texnologiyasini hamda texnologik karta tuzishni bilmagan fermer:

- o'z xo'jaligi kelajagini aniq tasavvur qila olmaydi;
- yuz berishi mumkin bo'lgan muammolarni yechish usullarini oldindan ko'ra bilmaydi;
- faoliyatni amalga oshirish uchun barcha zarur shartlar mayjud bo'lsagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkiinligini anglab yetmaydi.

Texnologik karta asoslangan biznes-reja iqtisodiy islohotlar va Agrar siyosat samarasiga foydali bo'lishi bilan birga nazorat organlari, xususan, soliq organlari va tijorat banklariga Ko'p sonli fermer xo'jaliklari faoliyatini nazorat qilishni tartibga solish, buning uchun ularning biznes-rejada mujassamlashgan shaxsiy tashabbuslaridan foydalanish, hisob-kitob ishlarini yaxshilash, naqd pul tushumi oqimini nazoratga olish vositasiga ega bo'ladilar. Binobarin, bu hodisa jamiyatda daromadlar manbalarini yashirmaslik, yashirganlik uchun mas'uliyat va javobgarlik muqarrarlikni his qilish hamda xo'jalik faoliyatining barcha jarayonlari hisobi yuritilishi, hisobga o'tkazilishidan manfaatdorlikni anglash fuqarolik burch ekanligini targ'ib qiladi.

**Fermer xo'jaligining namunaviy biznes-rejasidan o'r'in olgan jadval  
shakllarining mazmuniga qisqacha shari**

<b>Nº</b>	<b>Jadval №</b>	<b>Jadval sarlavhasi nomi</b>	<b>Qisqacha mazmuni va ahamiyatli jihatlari</b>
1.	1.	Fermer xo'jaliklariga yuridik shaxs sifatida qo'yiladigan talablarni bajarish amaliyoti (ushbu tadbirlar yuridik shaxsga yuklanadigan majburiyatlarni bajarish maqsadida yo'nga qo'yilgan).	Yuridik shaxsga qo'yiladigan talablar bajarilganligini qayd qilish bilan birga bajarilishi maqsadga muvofiqligini eslatib turadi.
2.	2.	«_____» fermer xo'jaligi to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.	Fermer xo'jaligi to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.
3.	3.	Tuzilgan shartnomalar.	Tuzilgan shartnomalarni qayd qilish bilan birga ularni tuzish tashhabusini shakllantiradi.
4.	4.	Yerning ball-bonitetini saqlab turish va oshirib borish dinamikasining kelgusi 5 yillik bashorat rejası.	Yerning ball-bonitetini oshirib borish majburiyatini qabul qilishga olib keladi.
5.	5.	Agrotexnologik karta bo'yicha mahsulot yetishtirish uchun yer maydoniga mutanosib talab qilinadigan texnika vositalari bilan ta'minlanganligi yoki shartnoma asosida chetdan jalb qilinishi mo'ljallanganligi.	Agrotexnika ishlari kimga tegishli texnika vositalarida amalga oshirilishini ko'rsatib beradi. Xususiy transport egalari bilan ham shartnomaviy munosabatlari o'rnatish odatini shakllantiradi.
6.	6.	Fermer xo'jaligining ekin maydonlari to'g'risida ma'lumot.	Ekish maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ifodalaydi.
7.	7.	200__yil davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik ekinlарini joylashtirish rejası.	Tuman hokimi tomonidan tasdiqlangan ekinlarni joylashtirish sxemasi ma'lumotlarini ifodalaydi.
8.	8.	Yer uchastkasini uzoq muddatga ijara olish shartnomasiga asosan 1 hektar yer ijara huquqi qiymatini aniqlash hisob-kitobi.	1 hektar yer ijara huquqi qiymatini aniqlash hisobi moliyalashtiruvchi bank talab bo'yicha taqdim qilinadi.
9.	9.	Biznes-rejani amalga oshirish grafigi.	Biznes rejani amalga oshirish grafigi qaysi kalendar oylariga to'g'ri kelishini ifodalaydi.

10.	10.	200_yil paxta-g'alla hosilini moliyalashitirish uchun jalb qilinadigan imtiyozli kredit mablag'lari hisob-kitobi.	Imtiyozli kredit mablag'lari hisob-kitobi bank talab qiladigan shaklda texnologik karta davrlarini hisobga olib ishlab chiqilgan.
11.	11.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun 1 gектар yerga ketadigan mehnat va moddiy xarajatlar me'yori.	Mehnat va xarajatlar me'yori har yili yangilanib turishi mumkin.
12.	12	Ma'danli o'g'itlarning yillik me'yorlarni agrotexnik muddatlar bo'yicha tahsimlanishi.	Ma'danli o'g'itlarning qo'llanish vaqt va miqdori haqida ma'lumot beradi.
13.	13.	Yoqilg'i-moylash mahsulotlarining yillik me'yorlarni agrotexnik muddatlar bo'yicha taqsimlanishi.	YOMM ning agrotexnik muddatlar bo'yicha taqsimlanishini asoslaydi.
14.	14.	Xodimlar soni va mehnat haqi fondi hisobi.	Xodimlar soni va mehnat haqi fondi sarfini asoslaydi.
15.	15.	Sug'orish suvining 200_yil sug'o-rish mavsumida cheklangan suv miqdori (limiti) va xarajatlar hisobi.	Sug'orish suvining normasi va hajmini texnologik karta davrlari bo'yicha asoslab beradi.
16.	16.	Dehqonchilik mahsuloti ishlab chiqarish tannarxi.	Mahsulot tannarxini ifodalaydi.
17.	17.	Fermer xo'jaligining yalpi daromadi (ming so'm)	Yalpi daromad to'g'risida ma'lumot beradi.
18.	18.	200_yil uchun mahsulot balansi.	Yetishtirilgan mahsulotni sotish yo'nalishlari bo'yicha taqsimlaydi.
19.	19.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish.	Yetishtirilgan mahsulotni sotish natijalarini ifodalaydi.
20.	20.	Pul oqimlari rejası.	Pul oqimlari rejasini ifodalaydi. Fermer xo'jaligidagi naqd pul tushumini bank orqali kirimi bo'yicha takliflarni rag'battan-tiradi.
21.	21.	Zararsizlik nuqtasining hisobi.	Zararsizlik nuqtasi mahsulot ishlab chiqarilishining foyda olinishdan oldingi, eng quyi minimal miqdorini ko'rsatib beradi.
22.	22.	Mavjud va harakatdagи valyuta. Imtiyozli kredit mablag'laring olinishi va qaytarilishi.	Hisob raqamdagи mablag'larning texnologik kartadagi davri bo'yicha harakatini ifodalaydi.

23.	23.	200__yil hosilidan davlat buyurtmasidan ortiqcha sotilgan,xo 'jalik ixtiyorida qolgan mahsulot miqdori, uni erkin (kelishilgan) sotish bahosi to'grisida ma'lumot.	Davlat buyurtmasidan ortiqcha yetishtirilgan mahsulotning sotish bahosini ko'rsatib beradi.
24.	24.	Tashqi iqtisodiy faoliyat rejasি.	Sharhnomalar asosida tashqi iqtisodiy faoliyat mo'ljali bayon qilinadi.
25.	25.	Byudjetga to'lanmalar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi.	Byudjetga to'lanmalar hisobi ma'lumotlari keltiriladi.
26.	26.	Moliyaviy natijalar.	Moliyaviy natijalar ifodalanadi.
27.	27.	Aylanma mablaglarga bo'lgan talabni aniqlash va moliyalashtirish manbalarini tashkil qilish hisob - kitobi.	Aylanma mablag'larga bo'lgan talabni ifodalaydi va unga rioya qilinishiga undaydi.
28.	28.	Rentabellik ko'rsatkichlari.	Rentabellik ko'rsatkichlari asoslab beriladi.
29.	29.	«_____» fermer xo'jaligining O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, fuqarolik kodeksi, 2004 —2006- yillarda fermer xo'jaliklarini rivoj-lantirish konsepsiysi, fermer xo'jaligi to'g'risida 2004- yil 26- avgustda qabul qilingan qonun hamda fermer xo'jaligining Ustaviga asosan «_____» fermer xo'jaligiga mustaqil xo'jalik yurituvchi yuridik shaxs sifatida berilgan huquqlardan foydalanish va yuklangan majburiyatlarni bajarishni ta'minlash choralarini to'liq hisobga olib biznes reja ishlab chiqilganligi to'g'risida 200__yil «_____holatiga ma'lumot.	Fermer xo'jaligining o'z majburiyatlarini bajarishni qanday tashkil qilganligi va huquqlardan foydalanishi to'g'risida ma'lumot beradi.
30.	30.	200__yil xo'jalik faoliyatidan olinadigan sof foydani taqsimlash smetasi.	Sof foydani taqsimlash mo'ljali ifoda etiladi.

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

«\_\_» \_\_\_\_ 200\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda agrotexnika talablariga rioya etishni texnologik karta va agrotexnologik davr bo'yicha tuziladigan biznes-reja asosida tashkillashtirishga ko'maklashish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Mahsulot yetishtirish texnologiyasi va texnologik kartadan foydalanish samaradorligi, texnologik jarayonlar, ish turlarining bajarilish muddatlari va agrotexnologiya bo'yicha sarflanadigan moddiy texnik resurslar hisob-kitob asos qilib olishga biznes-reja shaklidan foydalanib fermer xo'jaligi iqtisodini yaxshilash chora-tadbirlari.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Texnologik karta va unga asoslanib tuziladigan biznes-rejani asoslash uchun kerak bo'ladijan xo'jalikning o'z ichki manbalari va mo'ljallanayotgan jalb qilishlar hisob-kitobi loyihasi.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi.	Agrotexnologik karta va biznes-reja tuzish jarayonida zaruratga qarab.

«Buyurtmachi»

F.I.O. lavozimi

---

**4. G‘o‘za va don ekinlarini navlar bo‘yicha  
joylashtirishning belgilangan talablariga rioya  
etilishiga va davlat ehtiyojlari uchun  
yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik ekinlarining  
joylashtirilishida fermerning mulkdorlik  
mas’uliyatini shakllantirishga ko‘maklashish  
xizmatlari**

---

Quyida navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablari bu mintaqsha sharoitiga mos navni chish majburiyati va unga riosa etmaslik oqibatlari asoslab beriladi. Fermer xo'jaliklari tomonidan davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan paxta va g'alla ekinlarini ixtisoslashuvga va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga asosan mustaqil joylashtirishlari mumkinligi hamda ekinlar hosildorligini belgilashda yerning ball-boniteti ko'rsatkichi asos qilib olinishini qo'llash yuzasidan uslubiy tavsiyalar va amaliy maslahatlar beriladi.

G'o'za va don ekinlari navlarini ilmiy asoslangan holda joylashtirishning belgilangan talablariga riosa etish ularning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashning asosiy kafolatidir. Bunday kafolat har bir hududning suv ta'minoti, tuproq sharoiti va boshqa omillar bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlarning o'tkazilishiga bog'liqdir.

«Fermer xo'jaligi to'g'risida» gi qonunning 17- moddasiga ko'ra fermer xo'jaliklariga g'o'za va don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga riosa etish majburiyati yuklatilgan. Nav tanlash va ularni tuproq iqlimi sharoitlariga mos holda joylashtirishni tashkillashtirish Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va uning hududiy boshqarmalari bilan birgalikda davlat urug' nazorati tashkilotlari tomonidan olib boriladi. Ular tomonidan yo'lga qo'yilgan nazorat tizimi va urug'liklar bilan ta'minlash mexanizmi jiddiy qoidabuzarliklarga deyarli o'rinn qoldirmaydi. Shunday bo'lsa ham bunda qonun buzilish ehtimoli mavjud bo'lib turadi.

O'zbekiston Respublikasining «Urug'chilik to'g'risida»gi qonuni, «Seleksiya yutuqlari to'g'risida» gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2004- yil 23- dekabrdagi 604- sonli «G'o'za urug'chiligini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarori mazkur masalani tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlardir.

G'o'za va don ekinlari navlarini ilmiy asoslangan holda joylashtirishda quyidagi tushuncha va xususiyatlarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. Sertifikatlangan urug'liklar — Davlat standartlari talablariga to'liq javob beradigan urug'liklar.

2. Genetik sifat (nav sifati) — muayyan nav urug'likning genetik nav jihatidan qanchalik toza ekanligini bildiruvchi ko'rsatkichlar majmui.

3. Ekinboplrik xususiyati — urug'liklarning ekishga qanchalik yaroqli ekanligini bildiruvchi ko'rsatkichlar majmui.

4. Aprobatsiya qilish — o'simliklarning genetik (nav) jihatidan qanchalik toza ekanligini, kasalliklarga, zararkunandalarga chidamliligi va ekishga mo'ljallangan urug'likning umumiy holatini aniqlash maqsadida dalada o'tkazilgan tadqiqot.

Bundan tashqari tanlangan navning vegetatsiya davri, o'rtacha hosildorligi va boshqa xususiyatlari e'tiborga olinishi kerak. Shu o'rinda g'o'za va don ekinlarinij/ navlar bo'yicha joylashtirishga vakolatli hamda mas'uliyatli davlat organlari va muassasalari tarkibi aniq belgilab qo'yilgan. Bular:

1. Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.
2. O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy ishlab chiqarish Markazi.
3. Paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti.
4. O'zbekiston g'o'za seleksiysi va urug'chiligi ilmiy-tadqiqot instituti.
5. Respublika qishloq xo'jalik ekinlari birlamchi urug'chiligi va urug'shunoslik stansiyasi.
6. Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash Davlat komissiyasi.
7. Respublika g'o'za urug'chiligi Markazi.
8. Davlat reestriga kiritilgan va respublika hududlariga tavsiya etilgan g'o'za navlarining superelita, elita va birinchi avlod urug'larini yetishtiruvchi elita urug'chiligi xo'jaliklari.
9. O'zpaxtasanoat uyushmasi va uning tizimidagi korxonalar.
10. Qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini sertifikatsiyalash va sifatini nazorat qilish Davlat Markazi («O'zdavurug'nazoratmarkaz»).

G'o'za va don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya etish quyidagi ijobi omillarga olib keladi:

- sifatli mahsulot yetishtirilishini ta'minlash;
- navning xususiyatlaridan oqilona foydalanish;
- eng yuqori imkoniyat darajasidagi mahsulotni yetishtirish
- mintaqqa tabiiy-iqlim sharoitidan samarali foydalanish.

G'o'za va don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya etmaslik quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

- kutilgan hosildorlikka erisha olmaslik;
- navning foydali xossalardan foydalanish imkoniyatining che langanligi;
- iqtisodiy zarar ko'rish xatari paydo bo'lishi

- mintaqaning tabiyy iqlim sharoitidan maksimal foydalanish imkoniyati cheklanib qolishi;
  - kasalliklar va zararkunandalar ta'siriga nisbatan chidamsizlik.
- Yer kadastr ma'lumotlari ekinlarni navlar bo'yicha joylashtirish va yerdan oqilona foydalanishni tashkil qilishda asosiy belgilovchi mezondir:
- yagona yer solig'ini hisoblab chiqish;
  - yer munosabatlariga doir bitimlar tuzish;
  - yer sifatini obyektiv belgilash va davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan mahsulot va erkin bahoda sotiladigan qismi ulushini hamda ekinlar hosildorligini belgilash masalalari ham shunga asoslanadi.

Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 31- dekabrdagi 543- sonli qarori 1- ilovasi bilan tasdiqlangan «Davlat yer kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi Nizom» da davlat yer kadastrining mazmuni berilgan. «Quyidagilar davlat yer kadastrining mazmunini tashkil etadi: yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish, yer miqdori va sifatini hisobga olish (tuproq bonitetini aniqlash), yerni qiymat jihatidan baholash, shuningdek, yer kadastro axborotini tizimlashtirish, saqlash, yangilash va manfaatdor shaxslarga tegishli shakllar va hajmlarda berish».

- Ushbu Nizomning 30- bandida quyidagi holatlar bayon etilgan:
- «Yer resurslari davlat qo'mitasi:
- tuproq, geobotanika tekshiruvlarini va maxsus tekshirishlarning boshqa turlarini, yerlarni baholashni tashkil etadi;
  - yer kadastro axborotining sifatiga va uning turli-tumanligiga bo'lgan talabni muntazam o'rganib borishni amalga oshiradi, yer kadastrini yuritish texnologiyasini takomillashtirishni ta'minlaydi;
  - respublika mintaqalari bo'yicha yer kadastro hujjatlarini yangilash navbatni va muddatlarini asoslab beradi;
  - yer bo'yicha axborotlarning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etishni va uning ishlashini amalga oshiradi;
  - yer kadastro axborotini e'lon qilishni amalga oshiradi, manfaatdor vazirliklar va idoralarga ma'lumotlar taqdim etadi;
  - har yili 1- martgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yer resurslarining holati to'g'risidagi milliy hisobotni taqdim etadi».

Nizomning 19- va 21- bandlari qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini to'liq ifodalagan: «Yer sifatini hisobga olish quyidagilarini o'z ichiga oladi: tabiiy qishloq xo'jaligi va yer kadastro bo'yicha rayonlashtirish, yer tasnifi, ularni ekologiya, texnologiya va shaharsozlik belgilari va boshqa belgilari bo'yicha

tavsiflash, tuproq va yerni guruhlarga ajratish. Yerlarning o'chami, joylashgan o'rni, ekin maydonlari turlari va sifat holatiga oid qayd etiladigan ma'lumotlar yerni hisobga olish axborotini tashkil etadi».

Yerlar qiymatini baholash turli maqsadlarga mo'ljallangan yerlardan foydalanish samaradorligining hozirgi vaqtagi darajasini aniqlash, kelajakda uni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish, asoslash, yer solig'i va boshqa to'lovlarni, uning me'yoriy bahosini hisoblab chiqarish, yerlarni davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishda yo'l qo'yilgan nobudgarchilik va ko'rilgan zararlarni qoplash, yerlardan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish uchun amalga oshiriladi. Barcha toifadagi yerlarni baholash qonunchilik bilan belgilangan tartibda natura (yerlarning har bir toifasi uchun o'ziga xos bo'lgan) va qiymat ko'rsatkichlari tizimi yordamida amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ham tuproqning unumdonlik quvvati — tuproq boniteti bo'yicha qiyosiy baholash amalga oshiriladi. Yerlarning qiymat bahosiga va tuproq bonitetiga doir ma'lumotlar yer bahosiga oid axborotni tashkil etadi».

Nizomning 24- va 26- bandlarida yer kadastriga daxldor tomonlarning tarkibi va mas'uliyati belgilangan.

Yer kadastriga doir ma'lumotlarning ishonchliligi uchun davlat yer kadastrini yuritish vazifasi yuklangan tumanlar yer resurslari va davlat kadastro bo'limlarining vakolatli shaxslari, shuningdek, yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer uchastkalari mulkdorlari javob beradilar.

Dastlabki kadastr ma'lumotlari yangilanayotganda yer uchastkalaring huquqiy holatida, yerlarning sifat holati va ulardan foydalanishda, ularni baholashda yuz berayotgan o'zgarishlar aniqlanadi va ro'yxatdan o'tka'ziladi. Yer uchastkalari mulkdorlari, yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar davlat yer kadastrini yuritish vazifasi yuklangan tegishli xizmatlarga ko'rsatib o'tilgan o'zgarishlar to'g'risida o'n kun muddatda axborot berishga majburdirlar.

G'o'za va don ekinlarini belgilangan tartib asosida joylashtirishni ta'minlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

Öqilona joylashtirishning maqsadi:

- ekin maydoni birligida, ya'ni 1 hektarga eng ko'p va sifatlari mahsulot yetishtirish;
- resurslar tejalishi va agrotexnika tadbirlari o'z muddatida amalga oshirilishi;
- 1 hektar hisobiga eng ko'p foyda olish.

I. Tabiiy shartlarga talabi bo'yicha:

– tuproqning tarkibi, sho'rланish darajasi, suv bilan ta'minlan-ganlik darajasiga talabi, samarali harorat miqdoriga talabi.

**II. Agrotexnika tadbirlariga talabi bo'yicha:**

- oziqlantirish me'yordari va muddatlari;
- agrotexnika tadbirleri muddatlari;
- hosilni yig'ish usuliga talabi (qo'lda yoki mashinada).

**III. Biologik xususiyatlari:**

- o'sib rivojlanish davri davomiyligi (vegetatsiya davri);
- o'rtacha hosildorligi;
- kasalliklarga va zararkunandalarga chidamliligi.

**IV. Texnologik talablarga javob berishi:**

- tola chiqish salmog'i va sifati;
- tayyorlov korxonasining talabiga javob berishi.

**V. Iqtisodiy tavsifi bo'yicha:**

- paxta tolasiga jahon bozoridagi talab va taklif darajasi;
- ichki va tashqi bozordagi baho darajasi.

Hozir mamlakatimizda paxtaning ro'yxatdan o'tkazilgan 20 ga yaqin navi, don ekinlarining 10 ga yaqin navidan foydalanilmoqda. G'o'za va don ekinlarining navlari Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlariga asosan mintaqalarning tabiiy-iqlim sharoitidan, suv bilan ta'minlanish darajasidan kelib chiqib joylashtiriladi.

Demak, tanlangan yoki belgilangan navni ekish, faqat majburiyatni bajarishdangina iborat bo'lib qolmaydi. Aksincha, tanlangan navdagagi ekinni yetishtirish texnologiyasiga rioya etishni tashkil-lashtirish va barcha imkoniyatlarni shunga bo'ysundirishdir. Ekinlarni navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya etish—bu hudud uchun tavsija qilingan eng maqbul bo'lgan navdan foydalanish imkoniyatini amalga oshirishdir.

Fermier xo'jaliklari va turman hokimliklari o'rtaida tuziladigan yer ichastkasini uzoq muddatli ijara qilish shartnomasida davlat ehtiyojlari ichun yetishtiriladigan qishloq xo'jalik ekinlarining joylashtirilishi va hosildorligini belgilashga asos bo'luvchi shartlar va holatlar ifodalangan. Ekinlarni joylashtirish va hosildorlikni belgilashga asos bo'ladigan holat bu fermier xo'jaligining ixtisoslashuvi hamda ijara qilishning o'rtacha yo'llchanan bali, yer uchastkasining kuchsizlanganligi darajasi va belgilangan almashlab ekishlar eng muhim ko'rsatkichlardir. Ijaraga beruvchi va ijara qilishning majburiyat va huquqlari mana shu ko'rsatkichlardan kelib chiqib belgilanadi va tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003- yil 24- martdagি

«Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi Farmonida shunday tartib o‘rnataligan, bunda:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi va viloyat hokimliklarining taklifiga muvofiq qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar bilan tayyorlov tashkilotlari o‘rtasida tuzilgan kontraktatsiya shartnomalarini umumlashtirish asosida joriy yilga paxta va don yetishtirish prognoz ko‘rsatkichlari respublika va mintaqalar darajasida belgilanadi;

b) qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilar xo‘jaliklarning ixtisoslashuvini hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga asosan qishloq xo‘jalik ekinlarini mustaqil ravishda joylashtiradilar;

d) xo‘jaliklar o‘z mehnat natijalarini, shu jumladan, yetishtirilgan mahsulotni, o‘zlariga tegishli mol-mulk, moliyaviy va moddiy resurslarni o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etadilar.

Farmomonning mazkur bandi hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirishning prognoz ko‘rsatkichlarini respublika va mintaqalar darajasida belgilashni tartibga soluvchi asosiy me‘yoriy hujjat bo‘lib qolmoqda.

«G‘o‘za va don ekinlarini navlar bo‘yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya etishni va davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik ekinlarining joylashtirilishi va hosildorligini belgilashni qonuniy hal etilishiga ko‘maklashish xizmatlari» uch bosqichda olib boriladi. Har bir keyingi bosqichda xizmat ko‘rsatish ko‘lami kengayib murakkablashib boradi.

Birinchi bosqich ko‘maklashish xizmatlari mazkur nomdag‘i risoladan iborat bo‘ladi. Xizmat ko‘rsatish birinchi bosqichda to‘xtatilsa, uning yakuniy natijasi ekinlarni navlar bo‘yicha joylashtirish davlat nazoratida ekanligi, xo‘jalik yurituvchi subyekt davlat ro‘yxatiga kiritilgan navlarning birini ekib, shu navga mos agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish choralarini ko‘rishi lozimligi, davlat buyurtmasidagi qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirish va hosildorlik ko‘rsatkichlarini belgilash mexanizmi haqida ma‘lumot beriladi.

Ikkinci bosqich qo‘srimcha adabiyotlarni yetkazib berish va axborot-maslahat xizmatlarini ko‘rsatish bilan to‘ldiriladi. Bunda manfaatdor xo‘jalikning buyurtmasidagi holatlarga e’tibor beriladi. Uchinchi bosqichda ko‘maklashish xizmatlari bevosita yakuniy bosqichgacha olib boriladi. Fermer xo‘jaligida ekilgan g‘o‘za va don ekinlari navlari va ularni joylashtirish, hosildorlikning belgilangan

ko'rsatkichlari buyurtmachining ma'lumotlari asosida tahlil qilib chiqiladi. Bunda buyurtmachi joylashgan tuman, hudud bo'yicha ma'lumotlar boshqa ishonchli manbalardan ham olinadi va solishtiriladi. Asosiy e'tibor Davlat yer kadastro yuritilishi barcha yuridik oqibatlari bilan asosli ekanligi, yer sifatini obyektiv belgilash o'z vaqtida amalga oshirilishi, yer kadastr ma'lumotlarining ishonchliligi va pirovardida davlat majburiyatlarining ijrosi to'g'ri tashkil etilganligiga qaratiladi. Yerning sifat ko'rsatkichlari obyektiv emasligi oqibatida fermer xo'jaligiga berilgan bahoga aniqlik kiritishga harakat qilinadi.

Xizmat ko'rsatish vaqtida buyurtmachining shaxsan ishtirot etishi shart emas.

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasiiga

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

“\_\_\_” 200\_\_ - yil

1. Xizmat turi.	G'o'za va don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya etilishiga va davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan qishloq xo'jalik ekinlarning joylashtirilishida fermerning mulkdorlik mas'uliyatini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Ekinlarni joylashtirish va hosildorlik ko'rsatkichi to'g'ri belgilanganligi.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar yoki ma'lumotlar.	Yerning sifat ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar. Ekinlarni joylashtirish rejasi ko'rsatkichlari.
4. Boshqa holatlar.	Yerning hududga xos sharoitidan farq qiluvchi alohida xususiyatlari.
5. Xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi.	Qo yilgan muammo yechim topganiga qadar har haftada.

**Izon:** manfaatdor subyekt o'zi lozim topgan dalillarni batafsil ilova qilishi mumkin.

«Buyurtmachi»

“\_\_\_\_\_”

fermer xo'jaligi boshlig'i \_\_\_\_\_

---

**5. Yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rioya etishga hamda yer ijara shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo‘luvchi holatlarni bartaraf etishga ko‘maklashish xizmatlari**

---

Ushbu qismda yer uchastkasini saqlash shartlariga rioya etish uchun talab qilinadigan tadbirlar ahamiyati asoslab beriladi. Bunda mablag‘ mavjud emasligi olingan majburiyatni bajarmaslikka asos bo‘lmasligini, buning uchun harakat qilish lozimligi va ushbu tadbirlar mazmuni yoritib beriladi.

Yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rioya etishga hamda yer ijara shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo‘luvchi holatlarni bartaraf etishga ko‘maklashish xizmatlarini ko‘rsatishdan maqsad, bunday xizmatlar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etmaslik natijasidagi salbiy oqibatlardan himoya qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi yer Kodeksining 10- moddasida yer uchastkasiga quyidagicha izoh berilgan. «Yer uchastkasi — yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimga hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarning davlat yer kadastrida va davlat ro‘yxatga olish hujjatlarida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo‘lgan qismidir».

«Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonunning fermer xo‘jaligini tashkil etish shartlari haqidagi 5- moddasida shunday deyilgan: «Yer uchastkalari berilganda fermer xo‘jaligi o‘z zimmasiga qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi (uch yil uchun o‘rtacha yillik hisobida) yerning kadastr bahosidan kam bo‘lmasligini ta‘minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo‘yiladi». Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 30- oktabrdagi 476- sonli qarori 7- ilovasi bilan tasdiqlangan «Fermer xo‘jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning namunaviy shartnomasi»da ijaraga yer maydoni oluvchi fermer xo‘jaligi qis‘iloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini (uch yil mobaynidagi o‘rtacha yillik hisobda) yerkarning normativdagi kadastr bahosidan past bo‘Imagan darajada bo‘lishini ta‘minlashga majburligi belgilab qo‘yilgan.

Yer uchastkasini saqlash shartlariga rioya etish darajasini to'g'ri belgilash va baholashda Vazirlar Mahkamasining 2005- yil 15-fevraldag'i 66- sonli qarori 2- ilovasi bilan tasdiqlangan «Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to'g'risida» gi Nizom katta ahamiyatga ega.

Ushbu Nizomga asosan yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, maxsus vakolatli davlat organlari O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro Davlat qo'mitasi va Respublika tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur davlat organlari qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga ijara berilgan yer maydonlarining kuchsizlanib qolganligini belgilash haqida mahalliy davlat hokimiyati organlariga takliflar kiritish huquqiga ega.

Nizomning 16- muddasiga ko'ra, Yerdan foydalanish va uni muhofaza qiliish ustidan davlat nazoratini amalg'a oshiruvchi mansabdar shaxslar o'z faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayoni yerdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga aniqlik kiritib, manfaatdor tom'onlarning tutgan o'rniiga obyektiv baho berishni zaruriyatga aylantirmoqda.

«Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 17- muddasiga ko'ra fermer xo'jaliklariga yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitulgara rioya etish, yer uchastkasidan qonun hujjatlarida va ijara olish shartnomasida ko'rsatilgan shartlar asosida, belgilangan maqsadda, samarali va oqilona foydalanishni ta'minlash majburiyati yuklatilgan. Bu majburiyatning yana ham aniq ifodasi yer unumdarligini saqlash va oshirish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini soz holatda saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Yer uchastkasini saqlash shartlariga rioya qilish quyidagi ijobiy omillarga olib keladi:

- tuproq unumdarligi ortadi;
- yer uchastkasidan samarali foydalanishga imkon yaratiladi;
- huquqiy himoyalanishga, zarur bo'lganda buzilgan huquqlarni tiklashga imkoniyat yaratiladi.

Yer uchastkasini saqlash shartlariga rioya etmaslik quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

- yerning sifat ko'rsatkichlari pasayib ketishi;

— yer uchastkasini ijaraga beruvchisining e'tiroziga sabab bo'lishi;

— ijara shartnomasiga ko'ra yerdan foydalanish huquqining bekor qilinishiga sabab bo'luchchi holatlar paydo bo'lishi;

— huquqiy himoyalanish va buzilgan huquqlarni himoya qilish mumkin bo'lmay qolishi bilan birgalikda moddiy javobgarlik holatlari kelib chiqadi.

— yer bonitetiga mutanosib hosildorlikni pasaytirib yuborgan fermerdan yer maydon belgilangan tartibda olib qo'yiladi. Yerga yetkazilgan zarar aybdor tomonidan qoplanadi.

Yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rioya etish ko'nkmalarini rivojlantirish uchun nima qilish kerak?

Quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Mavjud moddiy texnik resurslar, imkoniyatlar ishbilarmonlik aloqalarini jamlab, shundan qanchasi yer maydoniga yo'naltiriladi? Hisob-kitobini chiqarish kerak.

2. Ekinlarni parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha texnologik karta tuzish, texnologik tadbirlarning qanchasi o'z mablag'lari, qanchasi chetdan jalb qilinadigan kuchlar yordamida bajarilishini aniq hisob-kitob qilish.

3. Mavjud imkoniyatlarni jadal ishga solish va chetdan jalb qilinadigan imkoniyatlar yuzasidan tegishli bitim va shartnomalar tuzish. Yerga oid huquqiy munosabatlarni belgilashda va xo'jalik faoliyatini mukammal tashkil etishda servitut kelishuvlari ham muhim ahamiyatga ega.

Servitut — bu boshqa yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqidir yoki ijaraga yer oluvchisining huquqlarini boshqa shaxslar foydasiga cheklash servitut deb ataladi. Servitut asosida yerdan foydalanish huquqi tomonlar o'rtasidagi kelishuvga asosan vujudga keladi va bekor bo'ladi. Yer uchastkasidan o'zgalarning ham qisman foydalanishi mumkinligi davlat hokimiyati organlarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Quyidagi ko'rinishdagi servitutlar ko'p uchraydi:

— yer maydonidagi umumiy foydalaniladigan inshootlardan tekin va to'siqsiz foydalanish: elektr va aloqa liniyalari;

— yer maydoniga suv olib o'tish imkoniyati;

— yer maydoniga joylashgan obyektlarga piyoda yoki transportda o'tish uchun maydonga kirish imkoniyati;

— mol haydab o'tish;

— ihota daraxtzorlari barpo etish.

Servitutdan foydalanish mohiyatan ma'lum bir ehtiyoj va zaruriyat tug'ilganda qo'llanadi. Bunda, bir tomonidan, ixtiyorida yer uchastkasi bo'lgan tomonga noqulaylik tug'diradi, ba'zan zarar yetkazishi ham mumkin, lekin, ikkinchi tomonidan, boshqa tarafning huquqini himoya qiladi. Qaysiki bu mazkur tarafga bir tomonlama berilgan imtiyoz yoki yengillik emas aslo. Davlat yer mulkdori sifatida barcha yerdan foydalanuvchilarga teng sharoitlar yaratib berish maqsadida ushbu huquqiy tartibot vositasidan foydalaniladi.

Servitut kelishuvi tomonlarga ma'lum bir huquqlarni berishi bilan birligida majburiyatlar ham yuklaydi. Natijada tomonlar o'z harakatlarini tartibga soladilar, o'z faoliyatlarini ushbu huquqiy vositaga bog'lagan holda rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shunisi ahamiyatlici, yer Kodeksining 30- moddasiga ko'ra servitut belgilashni talab qilingan holatlar bo'yicha kelishuvga erishilmagan holatlarda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi va kelishuv belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olinadi.

Yer uchastkasini ijara berish shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish shartnomaga tuzgan tomonlarning kelishuviga ko'ra, basharti kelishuvga erishilmasa, sud qaroriga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Yer ijara shartnomasi yer uchastkasini ijara oluvchisining aybi bilan bekor qilinishiga sabab bo'luvchi holatlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjalariiga muvofiq ijara qilishga yaroq qilib turadigan shartnomasi;
- bekor qilish shartnomasi qarzini amaldagi eng kam ish haqining 500 karrasidagi miqdordan oshib ketganda kreditorlarning yoki nazorat organlarining da'vo arizasi asosida;

- yer uchastkasini ijara qilish huquqidani ixtiyoriy ravishda voz kechilganda: fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan ixtiyoriy ravishda ariza berilganda;

- yerdan belgilangan maqsadda foydalanilmaganda, kontraktatsiya shartnomasida ko'zda tutilgan paxta va g'alla ekilishi mo'ljallangan yerkorda boshqa ekinlar ekinligi natijasida mahsulot yetkazib berish hajmlari kamayib ketishiga olib keladigan holatlar yuzaga kelganda;

- samarasiz foydalanilganda, muntazam ravishda normativdagi kadastr bahosi bo'yicha belgilanganidan kam hosil yetishtirilganda;

- ekologik holat ijara chining aybi bilan yomonlashuvi yuz berganda;

– yer uchastkasi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda olib qo'yilganda: mazkur yer uchastkasida (m. aholi punktiga tutash joylarda) turar joy obyektlari barpo etilishi va boshqalar.

Yer ijara shartnomasining yerni ijaraga oluvchisining aybi bilan bekor qilinishiga sabab bo'luvchi holatlар tahlil qilinganda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

Yerni ijaraga oluvchisi tomonidan yer ijara shartnomasida ko'zda tutilgan shartlar asosida mahsulot ishlab chiqarish faoliyatining tashkil etilganligi:

– tuproq unumdorligining oshishiga qaratilgan, fermer xo'jaliqning imkoniyatlari bilan bajarilishi kerak bo'lgan agrotexnik tadbir-larning bajarilish holati;

– har bir agrotexnik tadbir bajarilishi yuzasidan o'z imkoniyatlari yetmasligi ma'lum bo'lganda chetdan moliyaviy va boshqa resurslarni jalb qilish choralar ko'rilmaganligi;

– tuzilgan boshqa shartnomalar yuzasidan o'z majburiyatlarini bajarilishini tashkil etganlik darajasi va boshqa tarafning shartnoma majburiyatlarini o'zining manfaatiga bajarilishi uchun sharoitlar yaratib bergenligi hamda huquqlarini talab qilganligini tasdiqlovchi dalillar.

Yuqoridagi shartlar bajarilganligi natijasiga qarab ijaraga oluvchining e'tirozlari o'rganib chiqiladi. Masalan, tuproqning unumdorlik quvvati — yerning ball-bonitetining haqiqiy ko'rsatkichi kadastr ma'lumotlariga mos emasligi (kadastr ma'lumotlari yuqori darajada ekanligi) natijasida ijaraga oluvchiga asossiz kamshitilgan baho berilganligi ehtimoli tahlil qilinadi.

«Yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga riosa qilishga hamda yer ijara shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo'luvchi holatlarni bartaraf etishga ko'maklashish xizmatlari» uch bosqichda olib boriladi. Har bir navbatdagi bosqichda xizmat ko'rsatish ko'lami kengayib murakkablashib boradi.

Birinchi bosqich «Yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga riosa qilishga hamda yer ijara shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo'luvchi holatlarni bartaraf etishga ko'maklashish xizmatlari» nomli kitobchani yetkazib berishdan iborat bo'ladi. Xizmat ko'rsatish birinchi bosqichda to'xtatilsa, uning yakuniy natijasi yer uchastkasini saqlash shartlariga, servitutlarga va yer ijara shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo'luvchi holatlarni bartaraf etish bo'yicha qonun hujjalaringin mazmuni, yer uchastkasini saqlash shartlariga, servitutlarga va qonun hujjalari

talablariga rioya etishning afzalliklari hamda yer uchastkasini saqlash shartlariga rioya etmaslik oqibatlari haqida ma'lumot beriladi.

Ikkinchi bosqichda qo'shimcha axborot maslahat xizmatlari va zarur adabiyotlarni yetkazib berish davom ettiriladi.

Uchinchi bosqichda fermer xo'jaligining buyurtmasida ifodalan-gan holatlar tahlil qilinadi va xizmat ko'rsatish yechilishi mumkin bo'lgan darajagacha davom ettiriladi.

Bunda yer ijara shartnomasini bekor qilishga olib keluvchi holatlarni buyurtmachining bergan ma'lumotlari asosida tahlil qilish amalga oshiriladi. Asosiy e'tibor yer uchastkasini ijaraga olgan tomonning aybdorlik darajasi to'g'ri asoslاب berilganligini aniqlash, basharti aybdorlik darajasi ijaraga oluvchiga bevosita bog'liq bo'lmagan holatlarni asos qilib olingan bo'lsa, ijaraga yer oluvchining buzilgan huquqlarini himoya qilish choralarini ishlab chiqiladi.

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

«\_\_» \_\_\_\_ 200\_\_ - yil

1. Xizmat turi.	Yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rioxat etishga hamda yer ijara shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo'luvchi holatlarni bartaraf etishga ko'maklashish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Servitutlarga rioxat etish va yer ijara shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo'luvchi holatlarning kelib chiqishi.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar yoki ma'lumotlar.	Servitut kelishuvlari, yer ijara shartnomasi bekor qilinishiga asos qilingan holatlar.
4. Boshqa holatlar.	Yer ijara shartnomasidagi shartlar bajarilganlik darajasi haqida izohlar.
5. Xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi.	Muammo yechilishiga qadar har haftada.

**Izoh:** buyurtma beruvchi o'ziga ma'qul kelgan uslubda muammolarni izohlashi mumkin.

«Buyurtmachi»

“\_\_\_\_\_”

F.x. boshlig'i \_\_\_\_\_

---

**6. Fermer xo‘jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda ichki monitoringni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish xizmatlari**

---

Bu o'rinda shartnoma munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, tartibga solish, majburiyatlar ijrosini tashkil qilishni yozma holda asoslab berish, majburiyatlar bajarilishini kuzatib borish va natijasi bo'yicha tezkor chora belgilash hamda huquqlarni talab qilish uchun asos bo'ladigan holatlarni vujudga keltirishni yozma ravishda aks ettirib borish tajribasi tavsiya shaklida asoslab beriladi.

Mazkur uslubiyat shartnoma munosabatlarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida» gi qonuni, fuqarolik Kodeksi va boshqa me'yoriy hujjatlar talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, fermer xo'jaligi uchun shartnoma munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, tartibga solish, ish yuritish jarayonida ushbu munosabatlarni yozma ravishda aks ettirib borish tajribasini qo'llashni tavsiya shaklida asoslab beradi.

Buning uchun, bizningcha, har bir shartnoma ijrosi bo'yicha misol qilib keltirilgan jadval shaklida tahliliy jarayon yuritiladi. Asosiy e'tibor shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqadigan burch va xatti-harakatlarning ta'minlanishiga ko'rildigan chora-tadbirlar hamda shartnomada qayd qilingan huquqlardan foydalananish, shartnomada qatnashayotgan tarafdan huquqlari buzilmasligini talab qilishdan iborat.

Ma'lumki, shartnomada bir tarafning huquqi ikkinchi tarafning majburiyatini tashkil qiladi va aksincha. Shu sababdan ham shartnomaning har bir bandi bajarilishi uchun tadbir belgilanadi, bu chora-tadbir yozma ravishda rasniylashtirib qo'yiladi, har bir holatda shartnoma sharti bajarilmay qolishi xatari paydo bo'lganda monitoring daftarida tegishli belgi yozuv paydo bo'ladi. Agar vaziyatni o'nglash imkonи yo'qligi aniq bo'lib qolsa va bu korxonaning tijorat sirini tashkil qilmasa, shartnoma qatnashchisiga ma'lum qilinadi.

Shartnoma sharti bajarilmasligining oldi olinishi uchun mas'ul shaxslar belgilanadi. Fors-major holati yo'qligi tahlil qilib chiqiladi.

Korxonaning huquqini tashkil qiluvchi shartnoma shartlarining monitoringi ham shu tartibda amalga oshiriladi.

Monitoring yuritish kitobi 4 bo'limdan iborat. Bo'limlarning nomlanishiga fermerning bevosita faoliyati davrlari asos qilib olingan. Shuningdek, bu nom asosiy qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha namunaviy texnologik kartalardagi davrlarning nomlanishiga ham mos keladi. Bular ekishgacha bo'lgan davr, ekish davri, parvarish davri va yig'imterim davrlaridir. Birinchi qism, ekishgacha bo'lgan davrning birinchi bo'limi xo'jalik shartnomalarini tuzishni tashkillashtirish va xo'jalik faoliyatini lashtirish deb atalsa, to'rtinchi qismning oxirgi yettinchi bo'limni yil natijasini sarhisob qilish deb ataladi. Qismlarning boshqa nomlari bir xil bo'lib, har bir bo'limda muayyan ketma-ketlikda takrorlanadi. Har bir qismga bir xil nomdag'i va muayyan ketma-ketlikdagi 6 ta ilova hamrohlik qiladi. Qoida bo'yicha dastavval ilovalar to'ldirilishi lozim. Ilovalar asosan xo'jalik shartnomalarini bajarishni tashkil qilish bo'limi, ishlab chiqarishni va xo'jalik shartnomalari ijrosi monitoringini tashkil qilish bo'limiga taalluqli bo'lsa-da, boshqa bo'limlarga qo'yilgan vazifalarning yechimi ham xo'jalik faoliyatini boshqarishni tashkil qilishga xizmat qiladi.

Monitoring kitobining birinchi ilovasi fermer xo'jaligi a'zolari hamda jalb qilingan (yollanma) xodimlarning bajaradigan (ish, xizmat) majburiyatları taqsimotiga bag'ishlangan. Fermer o'ziga tegishli mehnat resurslari faoliyatini tashkil qilar ekan, ularning majbur'itlarini bajarish muddatlarini sana yoki maqbul muddatlar bo'yicha belgilab, mas'uliyatlarini ham ko'rsatib beradi. Bunda xizmat vazifasiga bo'lgan javobgarlik hissi paydo bo'ladi, binobarin, huquqlarini ham anglay boshlaydi.

Monitoring kitobining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi ilovalari qishloq xo'jalik ekinlarining rivojlanish fazalariga bag'ishlangan. Chunonchi, g'o'zaning rivojlanish fazasi, g'allaning rivojlanish fazasi va boshqa ekinlar rivojlanish fazalaridir. Bu jadval o'ziga xos agromifik kuzatuv xaritasi bo'lib, o'simlik ekiladigan yer maydonini tayyorlashdan tortib to ekish, parvarish qilish va hosilni yig'ib olishgacha bo'lgan jarayonlar qayd qilib boriladi. Barcha fazalarga xos davriy bo'linish bo'yicha rivojlanish alomatlari yozib boriladi.

Har bir jadval davr boshidagi ahvol, davr davomidagi o'zgarishlar va davr yakunidagi ahvol deb nomlangan.

Eng qiziqarli jihatlaridan biri jadvalning so'nggi qatorlarida mazkur fazaga tegishli bo'lgan yakuniy xulosa sanasi bilan beriladi. Bu narsa keyingi fazaning boshlanish vaqtiga mavjud holatni to'la aks ettiradi. Masalan, ekishgacha bo'lgan davr uchun ekishga yer maydoni tayyorlangan sana, ekish davri uchun ekish tugallangan sana, parvarish davri uchun yetishtirilgan hosilni chamlash (oprobatsiya) mo'ljallangan sana tegishli sifat ko'rsatkichlari bilan ifodalanishi o'sha vaqtga qadar sodir bo'lgan jarayonning yakuniy manzarasini ko'rsatib beradi. Natijada hosil bo'lgan parametrlarga asoslanib agrotexnik tadbirlarni o'tkazish muddatlariga aniqlik kiritiladi. Amaldagi shartnomalarga ilova qilingan grafiklarga tuzatish kiritiladi. Eng muhimmi, mahsulot yetishtirish texnologiyasini ilmiy asosda boshqarish ta'minlanadi.

Kitobning 5- ilovasi tuzilgan shartnomalarda xizmatlar ko'r-satilishi yoki mahsulotlar yetkazilishi grafik muddatlari, undagi o'zgarishlar va nihoyat davr so'ngiga yakuniy majburiyatlar holati aks ettiriladi. Ma'lumki, shartnoma majburiyatlari ijrosi grafigi juda murakkab bo'lib, grafikka har doim ham riosa qilinmaydi. Ko'pincha bundan faqat fermer xo'jaligi aziyat chekadi. Shu sababli fermerning talabi va ehtiyojidan kelib chiqib taklif qilingan shaklda hisob yuritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kitobning oltinchi ilovasi shartnomaviy majburiyatlarning ijrosi belgilangan sana va bajarilgan sanani solishtirish orqali kelib chiqadigan taqqoslash farqini aniqlashga xizmat qiladi.

Kitobning yettinchi ilovasi oldingi ilovalarning mantiqiy yakuni bo'lib, pirovardida fermer xo'jaligiga shartnoma taraflari tomonidan vujudga keltirilgan shartnoma intizomining buzilishidan ko'rilgan zarar, ko'rilgan choralar, qilingan sarf-xarajat hisobi aks ettiriladi va yakuniy xulosa chiqariladi.

Fermer xo'jaliklari uchun ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish ichki monitoringini yuritish tajribasi endigina paydo bo'lmoqda. Bundan hech qanday monitoring yuritilmagan, degan xulosa chiqmaydi, aslo. Fermer xo'jaliklarimizda ishlab chiqarishni tashkil qilishning o'ziga xos tajribasi mavjud. Davlat buyurtmasidagi paxta-g'alla hosildorligini belgilangan darajaga yetkazib kelayotgan fermerlarning o'z hisob-kitoblari borligi shubhasiz. Lekin bozor munosabatlari rivojlanib borar ekan, shartnoma ishtirokchilari o'rtasidagi har bir holatga yetarli

aniqlikdagi huquqiy baho berilishi maqsadga muvofiqdir. Sharhnomaviy munosabatning har bir e'tirozli jihatni tartibga solinishi va aniq ifodalangan huquqiy baho berilishi har ikki tomoniga ham birdek foydalidir. Xuddi shu yerda mas'uliyat paydo bo'ladi, javobgarlik belgilanadi. Rivojlanishga zamin yaratiladi. Sharhnomasi ishtirokchilarining o'rtasidagi e'tirozlarini bartaraf etishning yo'lga qo'yilmasligi, bunga e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lish, bir tomonning huquqini buzsa, ikkinchi tomonning mas'uliyatini pasaytirib yuboradi, natijada iqtisodiy rivojlanishda to'siq paydo bo'ladi.

Iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri shuki, sharhnomalar taraflari o'rtasida nizoli holatlarga olib keluvchi holatlar bo'lmasligi kerak. Bunday holatlar paydo bo'lganda tartibga soluvchi vositalar albatta tayyor turishi kerak.

«Guliston Agrokonsalting» fermerlar uchun monitoring kitobini taqdim qilar ekan, kitobni mukammal holatga keltirish chorasi ko'rilib yotganligini ham ma'lum qiladi. Basharti imkoniyatingiz bo'lsa, taklif va mulohazalar bildirilsa, albatta, inobatga olinadi.

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

«\_\_» 200\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda ichki monitoringni yo'lga qo'yishga ko'maklashish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda ichki monitoringni yo'lga qo'yish uchun bajarilishi zarur bo'lgan chora tadbirlar loyihasi.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Ishlab chiqarishni tashkil qilish va ichki monitoringni yo'lga qo'yish uchun mavjud va jalb qilingan imkoniyatlar, kuchga kiritilgan shartnomalar, ularning bajarilish muddatları to'g'risidagi ma'lumotlar.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi.	Ichki monitoring yuritishni yo'lga qo'yish jayronida zaruratga qarab.
5.	

«Buyurtmachi»

\_\_\_\_\_ F.I.O. Iavozimi

---

**7. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni  
chuqurlashtirishni va moliya-xo‘jalik  
muammolarining yechimini ta’minlaydigan  
«Fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar  
loyihalari»ni manfaatdor yuridik va jismoniy  
shaxslarning faoliyatiga tadbiq etilishini  
tashkillashtirish xizmatlari**

---

Quyida fermer xo'jaliklari o'zлari uchun to'siq bo'layotgan iqtisodiy muammolarni taklif qilinayotgan usullarni qo'llab yechishlari mumkinligi asoslab beriladi. Bu jarayonda fermerlarning o'zлari ham bevosita ishtirok etadilar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaсидаги pul majburiyatлари va huquqlари ular uchun qulay va manfaatli ko'rinishlarga olib keltiriladi. Qonun yo'l qo'yadigan asoslarda munosabatlarga aniqlik kiritiladi. Huquq va majburiyatлarni manfaatdor tomonlarga o'tkazish bilan munosabatlarga aniqlik kiritiladi.

Subyekt o'zi uchun noqulay bo'ilgan holatni bartaraf etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar foyda olish ilinjida tavakkal qiladilar. Faoliyat natijasi esa har doim ham foyda bilan yakunlanavermaydi, zarar ko'rishga ham, faoliyatni to'xtatishga ham to'g'ri keladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ham buni tasdiqlamoqda: barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning miqdoriga nisbatan 20–25% bankrotlik qismatiga duchor bo'lib yopilsa, taxminan yana shunchasi yangi subyekt sifatida paydo bo'ladi.

Shunday davr keladiki, unga ko'ra, basharti moliya xo'jalik faoliyati muvaffaqiyatsiz yakunlansa, korxona moliyaviy operatsiyalarning bir-biriga bog'liq holda harakatdan butunlay yoki qisman to'xtab qolish holati yuz berishi mumkin. Bunday vaqtida korxonaga noto'lovlar tizimi huruj qilgan bo'ladi va tezkor holda moliyaviy holatga aniqlik kiritishga to'g'ri keladi.

Moliyaviy oqim yuz berishi qiyinlashadi. Balansini esa tozalash kerak bo'ladi, ya'ni olinadigan mablag'ni tezkor undirish va shuning hisobidan kreditorlik qarzlarini to'lab berish talab qilinadi. Korxona misolida olinadigan bo'lsa, debitorlik qarzi sifatida manba mavjud. Bir so'z bilan aytganda, moliyaviy inqiroz sharoitida korxonaning moliyaviy holatini noto'lovlar xurujidan himoya qila oladigan samarali amaliyot zarur.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi tomonidan ushbu ko‘rinishdagi muammolarning yechimiga doir yaxlit xizmatlar ko‘rsatish majmuasi ishlab chiqildi. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishni va moliya-xo‘jalik muammolarining yechimini ta’minlaydigan «Fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar loyihalari» mazkur muammolarni yechishga yordam berishi mumkin.

Fuqarolik Kodeksining tegishli moddalariga asoslanib ishlab chiqilgan va taklif etilayotgan shartnomalar loyihalari mazmunan yangilik emas. binobarin, xalq xo‘jaligida bundan oldin ham shunga o‘xhash muammolar yechib kelingan. Xususiy sektor rivojlanib, xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni muttasil o‘sib borayotganligi sababli bir xil mazmundagi muammolar yechimi uchun shunga mos amaliyot taklif qilinmoqda.

Taklif etilayotgan «Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi», «Qarzdan voz kechish shartnomasi», «Qarzni boshqa shaxsga o’tkazish shartnomasi» va «Debitorlik qarzini undirish (kamaytirish)ni ta’minlashga xizmat ko‘rsatish shartnomasi» loyihalari moliya-xo‘jalik faoliyatida yuz bergan muammoli vaziyatlarda o‘zgarishini, fuqarolik Kodeksi va boshqa qonun hujjalari ko‘ra yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan holatlarda ifodalab asoslab beradi. Muammo tomonlar o‘rtasidagi shartnomalar shartlarini bajarishlari bilan yechiladi. Buning uchun tanlab olingan yirik kreditor sxemasiidan foydalanish mumkin (ilova qilinadi).

Ushbu mazmundagi shartnomalar loyihalarini tuzish va shartnomalar shartlarini bajarish quyidagi ijobjiy o‘zgarishlarga olib keladi:

- qarzlär tarkibini maqsadga muvofiq o‘zgartirish va yangilash;
- korxona balansidagi harakatsiz kapitalni harakatga keltirish;
- korxona nufuziga salbiy ta’sir qilayotgan qarzdorlikni samarali boshqarish;
- balansni nolikvid aktivlardan tozalash.

«Garov ta’minoti yaratishga qo‘shilish shartnomasi» mohiyatiga ko‘ra tashkiliy masalalarni hal qilishga xizmat qiluvchi shartnomadir.

Mazkur shartnomalar loyihasi har qanday ko‘rinishdagi garov ta’minotini yaratishga rozi bo‘lgan, ushbu shartnomaning oqibatidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni yagona maqsad asosida birlashtiradi.

Shartnomani tuzish tashkilotchisi tomonidan taklif qilingan garov ta’minotini yaratish tashabbusiga rozi ishtiroy etuvchilarining im-

koniyatlar va aniq mavzulari bo'yicha ma'lumotlar bazasi yaratiladi.

Yirik miqdordagi investitsiya yoki sotib olinayotgan mulk uchun garov ta'minoti qonun talablari asosida vujudga keltiriladi.

Qoidaga ko'ra bunday xizmatlarni ko'rsatishni yo'lga qo'ygan konsalting firmasi («Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi) bunday xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarni hisobga olib ma'lumotlar bazasini yaratadi.

Busiz xizmat ko'rsatishni tashkil qilib bo'lmaydi. Buning uchun garov ta'minotini yaratishga qo'shilish shartnomasi qatnashchisining bildirishnomasi shaklidagi so'rovnama bo'lg'usi shartnoma ishtirokchilariga tarqatiladi. Bildirishnoma maxsus so'rovnomadan iborat bo'lib, barcha ma'lumotlar mas'uliyat bilan aks ettirilishi lozim. So'rovnomaning har bir bandi kelajakda yuridik oqibat keltirib chiqarishini e'tiborga olish kerak.

Bildirishnomalar to'planib aniqlangan ma'lumotlar bazasi asosida asosiy garovga oluvchining huzurida garovga qo'yish masalalari muhokama qilinadi. Bunda garovga qo'yuvchilar garovga qo'yishni tashkillashtirayotgan konsalting firmasi timsolida ikkinchi tomonini tashkil qiladi.

Shartli misol yordamida ushbu shartnomaning afzalligini quyidagicha izohlash mumkin. Masalan, kichik bir qishloqning hududiga bir dona yirik qiymatdagi «Altay» haydov traktori yoki hududdagi infratuzilma xizmatlarini zamonaviylashtirish uchun yirik miqdordagi sarmoya jalb etilishi muammosi turgan bo'lsin. Har ikki muammoning yechimi qishloqning iqtisodiga ijobjiy ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olsak, yechilmay turgan garov ta'minotini yaratish masalasiga qishloqdagi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslar manfaatli asosda imkoniyatlari darajasida ishtirok etishga rozi bo'ladilar.

Buning uchun kimda nima bor? Nimani garovga qo'ysa bo'ladi? Oqibati nima bilan tugashi mumkin, kabi tashkiliy masalalar yoki oddiy qilib aytganda, ma'lumotlar bazasi kerak bo'ladi. Basharti qishloqda bu muammoning yechimini hech kim o'z zimmasiga olmagan bo'lsa, konsalting firmasi tezda yetib keladi va ishni boshlaydi. Pirovardida notarius huzurida garov ta'minoti bo'yicha barcha tartibotlar va hujjatlar tayyorlanadi. Rasman imzolash marosimiga butun qishloq ahli notarius huzuriga yoki, aksincha, notarius qishloq hududiga taklif etilishi mumkin.

Shunday qilib, qishloq muammosi yechiladi, qishloqda yer haydayotgan «Altay» traktorining sug‘urta hodisasiga oid xatar ko‘rinishlari ham hamqishloqlar tomonidan nazorat qilinadi.

Xususiy transport egalarining manfaatlarini himoya qilish shartnomasi hudud prinsipi asosida tuzishga mo‘ljallangan. Ya’ni, bu shartnomaning samarasi ma’lum bir hududni to‘liq qamrab olganda ko‘proq bilinadi va shartnomaga qatnashchilar uchun birdek nafsi tegadi.


Ushbu shartnomani tuzish quyidagi ijobiylar o‘zgarishlarga olib keladi:

- qishloqda shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirish;
- deklaratsiyalanmagan daromadlarni kamaytirish;
- xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat bo‘lishini ta’minalash;
- shartnomaga qatnashchilarining qonuniy huquqlarini himoya qilish;
- xususiy transport egalari tomonidan vujudga keltirilayotgan xizmat ko‘rsatish bozorini tartibga solish.

Debitorlik qarzini undirish (kamaytirish)ni ta’minalashga xizmat ko‘rsatish shartnomasi fuqarolik-huquqiy tusdagi bitimlar tuzish, qarorlar qabul qilish, kafolatlar taqdim qilish yo‘li bilan majburiyat-dagi shaxslarning o‘zgarishi tarzida yuz beradigan jarayon asoslari beriladi.

Taklif etilayotgan shartnomaga loyihalari namunaviy bo‘lib, manfaatdor subyektga taalluqli shart-sharoitlar asosida aniqlik kiritilishi mumkin.

Xizmat ko‘rsatish 3 bosqichli bo‘lib, I- bosqichda nazariy ma’lumotlar va shartnomaga mavzulari beriladi. Ikkinci va uchinchi bosqichlarda qiziqish bildirgan buyurtmachini qiziqtirgan mavzular va holatlar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatiladi.



- Dastlabki qarzdor majburiyatları harakati.
- Talabdan voz kechuvchining haqdorligi harakati.
- Tanlab olingan yirik kreditorga huquq va majburiyatları harakati.
- Yangi qarzdorga qarz harakati.
- Talabni qabul qiluvchiga majburiyat harakati.

**«Garov ta'minotini yaratishga qo'shilish shartnomasi»  
qatnashchisining bildirishnomasi (loyiha)**

«\_\_» \_\_\_\_ 200\_\_ - yil

---

Shartnomma qatnashchisi huquq va majburiyatlarının dastlabki asosiy shartnomaoaldi loyihasi.

1. \_\_\_\_ quyidagi ro'yxatda ko'rsatilgan, garov ta'minotiga o'tishi mumkin bo'lgan, tasarruf qilish huquqi mavjud bo'lgan ashyolar bilan qatnashmoqchi ekanligini bildiradi:

Nº	Nomi	O'Ichov birligi	Miqdori	Narxi	Qiymati	Izoh
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
	Jami					

2. Garovga qo'yish huquqi quyidagi maqsadlar uchun, ya'ni o'zimizga ma'qul kelgan qulay shartlar mavjud bo'lganda dastlabki shartnomaoldi majburiyatları olishga rozilik bildiriladi:

Nº	Garov ta'minoti maqsadi va yo'nalishlar mazmuni	%	Summa	Izoh
1	2	3	4	5
1.	Hududga jalb qilinayotgan investitsiyalar uchun			
2.	Texnika vositalari uchun			
3.	_____			
	Jami			

3. Ushbu yuqoridagi shartlarda asosiy shartnoma loyihasini imzolashga roziman.

(subyekti nomi yoki F.I.O)

\_\_\_\_\_ imzo

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasiiga

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

«\_\_» 200\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar loyihalarini tuzishni tashkillashtirish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar loyihalarini fermer xo'jaligi faoliyatida tadbiq etish muammolari va yechimlari yuzasidan chora-tadbirlar loyihasi.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar tuzish, ushbu shartnomada taraf sifatida ishtirok etish va undan naf olish imkoniyatlari to'g'risida xomcho't hisob-kitoblari.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyiliqi.	Zarur mavzular bo'yicha shartnoma tuzish oldidan o'tkaziladigan muzokaralar vaqtida zaruratga qarab va kelishilgan tahrirdagi shartnoma imzolanayotgan vaqtida.
5.	

«Buyurtmachi»

\_\_\_\_\_ F.I.O. lavozimi

---

## **8. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro munosabatlaridagi ziddiyatlari holatlarni maqsadli kuzatish xizmatlari**

---

Quyida xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan shartnoma tuzgan boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik qobiliyatini to'g'risida ma'lumotlarni to'plash hamda bu ma'lumotlardan samarali foydalanish huquqidan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari asoslab beriladi. Ziddiyatlar bayoni loyihasi subyekt bilan birgalikda ishlab chiqiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'tasidagi shartnoma munosabatlarining rivojlanishi tuzilgan shartnomalarning har bir bandiga alohida e'tibor bilan qarashni talab qilmoqda. Chunki har bir band yoki ibora ma'lum bir huquqiy oqibatni keltirib chiqaradi.

«Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 12- muddasida, agar taraflar o'tasida shartnomaning barcha muhim shartlari bo'yicha kelishuvga erishilgan bo'lsa, xo'jalik shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi, deya yozib qo'yilgan. Binobarin, shartnoma tuzish mutlaqo ixtiyoriy bo'lib, qonun talablariga mos bo'lishi lozim. Qonun talablariga rioya qilinishi xo'jalik yurituvchi subyektning o'ziga katta naf keltiradi, huquqlarini himoya qilish ham samarali yakunlanadi.

Amaliyotda esa xo'jalik shartnomasi katta ta'sir kuchiga ega huquqiy hujjat ekanligiga loqaydlik bilan qarayotgan subyektlarning iqtisodiy zarar ko'rishi ko'plab uchramoqda. Bunday subyektlar, ayniqsa, shartnomadagi boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash hamda bu ma'lumotlardan samarali foydalanish huquqidan yetarli darajada faol foydalanmayaptilar. Natijada shartnoma shartlarini o'zgartirish, bekor qilish va maksimal darajada manfaatlarni ifodalaydigan qilib tuzishga e'tibor berilmayapti. Buning sabablaridan biri subyektlar o'tasidagi to'lov intizomi pastligi va bir-biridan bo'lgan qarzdorliklarning yuqoriligidir. Faqat mahsulot yetkazib berish hajmlari va unga to'lanadigan haq miqdorigina nazarda tutilib, har ikki omilga ta'sir qiluvchi hamda mohiyatiga ko'ra shartnoma

shartlariga jiddiy buzish deb qaralishi mumkin bo‘lgan holatlarda ham e’tiroz bildirish, shartnoma shartlariga o‘zgartirish kiritish uchun taklif berish yoki umuman yozma munosabat bildirish ham amalga oshmayapti.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shartnoma munosabatlaridagi kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ziddiyatli holatlarni kuzatish yo‘nalishidagi xizmat turini joriy etdi. Unga ko‘ra manfaatdor xo‘jalik yurituvchi subyekt konsalting korxonasiga o‘zi uchun shartnoma tarafi hisoblangan subyekt bilan munosabatlaridagi ziddiyatli holatlarni maqsadli kuzatish va bashorat natijalarini taqdim qilib turish to‘g‘risida buyurtma beradi va xizmat ko‘rsatish shartnomasini tuzadi.

Buyurtmada kuzatib turilishi lozim bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektni qiziqtiradigan barcha holatlar aks ettiriladi. Masalan, shartnoma tarafining faoliyatida jiddiy moliyaviy yo‘qotishlar kutilayotganligi, mahsulotlari sotuvi dinamikasi jahon konyukturasiga qaramligi ortib borishi, tashkilotga qo‘yilayotgan talablar kuchaytirilishi holatlarida o‘ziga bog‘liq bo‘lмаган ташқи омил ta’sirida shartnoma shartlari buzilishi muqarrar ekanligi ochiq-oydin ko‘rinib turgan holatlarni iqtisodiy xatar sifatida baholab tegishli xulosa, zarur bo‘lganda esa ziddiyatlar bayoni loyihasini tayyorlab berishni buyurtma qilishi mumkin. Buyurtma qilinayotgan holatlar erkin holda bayon qilinadi.

Shuningdek, subyektni qiziqtirayotgan holatlarni mukammal tadqiq qilib borish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar, manbalar va ro‘yxatlar bilan ta’milnadi. Ma’lumotlarni buyurtmachiga taqdim qilish muddatlari, usullari va hisob-kitob qilish shartlari kelishib olinadi. (Namunaviy buyurtma shakli va ziddiyatlar bayoni loyihasi ilova qilinadi).

Shartnoma tarafining iqtisodiy ahvolini kuzatib borish va uning bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirini bashorat qilish buyurtmachi bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektga mazkur salbiy ta’sir oqibatlarini yumshatish imkonini beradi. Ushbu xizmat turidan foydalanmaslik nuqtai nazaridan shartnoma oqibatlarini butunlay ikkinchi tomonga da’vo tartibida o‘tkazib qo‘yish mumkin. Lekin bu bilan zarar miqdorini yoki noqulay sabablar ta’sirini oshirishga erishish mumkin, xolos. Masalan, xo‘jalik sudi tegishli sud ajrimini da‘vogarning foydasiga chiqarib berishi mumkindir, lekin birlamchi maqsad raqib ustidan ma’nisiz g‘alaba qozonish emas, balki iqtisodiy zarar oqibatlarini iloji boricha bartaraf etishdir.

Shu ma'noda olganda ushbu xizmat turi qaysi xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining faoliyatini normal izga tushirib olgan bo'lsa, shartnomaviy munosabatlarga jiddiy qarayotgan bo'lsa, o'zining faoliyat natijalari tashqi omil ta'siriga bog'liqligini tushunib yetsa, binobarin, tashqi omil ta'sirining oqibatlari va uni yumshatishga doir axborot qiziqrarli bo'lsa, konsalting xizmatlaridan foydalanish, albatta, iqtisodiy samarali foyda beradi. Holbuki, nisbatan uncha ko'p bo'limgan xizmat haqi evaziga ahamiyati jihatidan juda qimmatli axborotga ega bo'lish mumkin.

Ushbu xizmat turining zarur ekanligiga shubha yo'q, faqat shartnomaviy munosabatlar va shartnoma shartlari taraflar tomonidan to'liq ta'minlanmayotganligi taklif etilayotgan xizmat turining ahamiyatini anglashga bir oz to'sqinlik qildi. Ammo aynan shu holat bu xizmat turi oldida juda ko'p hajmdagi ishlar turganlididan ham dalolat beradi. Ehtiyoj talabga aylanadimiyo'qmi? Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning ushbu xizmat turidan foydalanish xohishiga bog'liq.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasiiga

---

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

“\_\_” \_\_\_\_ 200\_\_- yil

---

1. Xizmat turi: Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro munosabatlaridagi ziddiyatli holatlarni maqsadli kuzatish.

2. Xo'jalik yurituvchi subyektni qiziqtiradigan holatlar:

a) kontraktatsiya shartnomalarining namunaviy shakllarida hamkorlik qilayotgan tashkilotlarga nisbatan qo'yilayotgan talablar kuchaytirilishi \_\_\_\_\_ holatlarida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar haqida ogohlantirish, zarur bo'lganda ziddiyatlar bayoni loyihasini tayyorlash.

b) \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

d) \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

3. Subyekt tomonidan xizmatda  
foydalinish uchun beriladigan  
hujjatlar ro'yxati. Xo'jalik shartnomalari matnlari ksero-  
nusxalari \_\_\_\_\_ jami.

\_\_\_\_\_

4. Boshqa holatlar: xizmat  
yuzasidan bog'lanish davriyligi: Jiddiy sabab yuzaga kelganda  
har kuni, boshqa vaqtlarda zaruratga qarab.

\_\_\_\_\_

«Buyurtmachi»

\_\_\_\_\_

F.I.O. lavozimi

**«Buyurtmachi»**

F.I.O. lavozimi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

shartnomasi yuzasidan

### **Ziddiyatlar bayoni loyihasi**

“\_\_” 200\_\_ yil \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ tahriri “\_\_\_\_\_”  
fermer xo'jaligi tahriri

Yakuniy xulosa	Yakuniy xulosa

Natija: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ fermer xo'jaligi boshlig'i:  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_

**Izoh:** ushbu ma'lumotlar yuzasidan axborot almashinushi bo'yicha  
 «Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi xizmat ko'rsatadi.

---

---

**9. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab  
chiqaruvchilari uchun «Uya»li eksport  
uslubini joriy qilish orqali eksportni  
tashkillashtirish xizmatlari**

---

---

Quyida kam hajmli (miqdordagi) qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi ko'p sonli subyektlarning «taklif»ini ushbu mahsulotlarni sotib oluvchilar «talab»i bilan yuzlashtirishga asoslangan uslub haqida gap yuritiladi, unga ko'ra mahsulot yetishtiruvchilar hisobi maxsus jadvallardagi «Uya»lar bo'yicha olib boriladi hamda huquq va majburiyatlar qat'iy shaklda oldindan belgilab qo'yilgan uslub asosida shakllantirilgan eksportni tashkillashtirish mexanizmi asoslab beriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksportini tashkil qilish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, uni tashkil etish juda murakkab jarayondir. Tovar pul va shartnoma munosabatlari yaxshi ishlab turgan sharoitda eksportni tashkil etish tez va ortiqcha muammolarsiz hal etiladi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqamizda eksportni rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy baza yildan-yilga takomillash-tirilib, qulay darajaga keltirilmoqda. Eksportning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolardan biri shartnoma shartlariga rioya etish talab darajasida emasligi bois, eksport shartnomasi tuzishga tayyor emaslik, bunday darajadagi kontraktlarda ishtirok etish uchun alohida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lisl lozimligi kuzatilmoqda. Ya'ni, asosiy muammo mahsulotning o'zini ishlab chiqarish, majburiyatlarni shartnomada belgilangan vaqtida bajarilishini tashkil qilish va ishlab chiqarishini ta'minlashni uddalay olinmayotganligidadir. Albatta, eksport to'xtab qolgani yo'q, lekin juda ko'p tashkiliy-moliyaviy muammolar yechimiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Mamlakat yalpi ichki mahsulotning salmoqli qismini yaratadigan qishloq xo'jaligi sohasida davlat buyurtmasidan boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish real imkoniyatlarga qaraganda ancha past darajani tashkil etmoqda. Bu olinmagan daromad, rivojlanishiga imkon topa olmayotgan xizmat ko'rsatuvchilar va shunga yarasha kechirilayotgan hayot tarzida ko'rinoqda.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun «uya» li eksport uslubini joriy

qishloq organi eksportni tashkilishini xizmatlari uchun ta'min qilmoqda. (Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga tayyorlash «Uyali uslub» chizmasi va bu xizmatlardan foydalanuvchilarning namunaviy buyurtma loyihasi ilova qilinmoqda). «Uyali uslub» eksportni tashkil qilish bo'yicha qamaldagi qonun va qoidalarga tayangan holda uning bevosita qishloqda tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilarga yaqinlash-tirish mexanizmini ta'minlab berishga xizmat qiladi.

Bu xizmat turining dastlabki bosqichida manfaatdor konsalting korxonasi tomonidan mazkur uslub to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ma'lumotlar bazasini tashkil qilinadi. Ma'lumotlar bazasi ushbu uslubda mahsulot eksportini tashkil etish istagida bo'lgan mahsulot ishlab chiqaruvchilarning so'rovnoma buyurtmasidan iborat bo'ladi. Tovar ishlab chiqartuvchi konsalting korxonasidan import qiluvchi, tayyorlovchi haqidagi ma'lumotlarni, shartnoma shartlari, oldindan to'lov miqdorlari, mahsulotlarni tayyorlash muddatlari jadvallarini so'raydi. O'ziga qulay bo'lgan holatlar mavjud bo'lganda kontrakt tizimiga rozi ekanligini bildiradi.

Ushbu ma'lumotlar bazasiga tayanib konsalting korxonasi mahsulotlarni import qiluvchi va tayyorlovchini (agar jalb qilingan bo'lsa) qiziqtirgan mahsulotlar yetishtirilishini tashkillashtirishni boshlaydi. Eksport ishtirokchilarini jadval asosida tashkil qilingan «Uya»larga joylashtirish loyihasini tuzadi. Eksport shartlari eksport qiluvchilarga ma'qul kelgan bo'lsa, ular o'rtaida tuziladigan shartnomaga vositachilik qiladi. Eksport shartnomasi shartlari belgilangan tartibda shartnoma taraflari tomonidan muhokama qilinadi.

Barcha bandlar bo'yicha kelishuvga erishilgan bo'lsa shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Konsalting korxonasi bir tomonlama shartnoma taraflariga yon bosmaydi. Balki har ikki tomonni shartnomada birlashtirgani uchun siylov va konsalting xizmatlari haqi oladi. Bular alohida shartnoma bilan tartibga solinadi.

Asosiy muammo, qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiruvchilarni olgan majburiyatlar o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashga yordam berish, mahsulot yuklanishi jadvali bilan uyg'unlikda tashkiliy masalalarini hal etishdan iboratdir. Albatta, bu muammolar uchun mas'uliyat shartnoma tuzgan taraflarning zimmasida bo'ladi. Lekin «Uya»li uslub rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan konsalting korxonasi pirovardida ushbu xizmatlarning a'lo darajada bajarilganligi uchun haq oladi.

Ko'rinib turibdiki, konsalting korxonasing o'rni manfaatdor subyektlarga ularni qiziqtiradigan informatsiyani yetkazib turishdan iborat. Buning uchun korxona ortiqcha darajadagi talab va taklif haqidagi bazaga ega bo'lishi maqsadga muvosiq. Ana shunda eksport shartnomasi, albatta, amalga oshadi.

Uslubning «Uya» li deb atalishiga sabab va o'ziga xosligi shundan iboratki, eksportga jo'nataladigan mahsulot yuklanadigan sanaga mahsulot tayyorlovchilardan biri yoki bir nechta imkoniyati yetmay qolganda, belgilangan eng kam muddatdan kam bo'limgan vaqt ichida ushbu kontraktda ishtirok etuvchi yana bir subyektning tayyorlab borilishidir. Bunda eksport asosiy shartlari saqlanib qoladi. Shartnomaning barcha bandlari navbatdagi ishtirokchiga tadbiq etilaveradi. Demak, ishtirokchi «Uya» dan faqat imkoniyati yetmay qolishi sababli emas, balki ixtiyoriy holda boshqa shartnomada shartlaridagidek, o'z huquqidan foydalangan holda ham shartnomada ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Agar bu hodisa import qiluvchini umid qilishi mumkin bo'lgan foydadan mahrum etsa, oqibatlari belgilangan tartibda aybdor tomonidan zararni qoplash chorasi belgilanishi mumkin.

«Guliston Agrokonsalting» korxonasi qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini tashkillashtirar ekan, uning yana bir muhim qulayligini ta'kidlaydi. Ya'ni, ortiqcha qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun juda kichik miqdorni tashkil qiluvchi hajmda ham buyurtma berish mumkin. M: 100 dona qovun, 1 tonna piyoz va boshqalar. «Uya»li tizimning qulayligi, shartnomaga tuzgan mahsulot tayyorlovchining o'zi dehqonning oldiga 100 dona qovun va 1 tonna piyoz ortib ketishga keladi. Bunda bir vagon yuk uchun 20–30 kishining mahsuloti kerak bo'ladi. Eng muhimi, belgilangan sanaga mahsulotni yetishtirish va tayyorlash shart bo'ladi.

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasiga

tomonidan


BUYURTMA № \_\_\_\_

«\_\_» 200\_\_ - yil

1. Xizmat turi.	Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun «Uya» li eksport uslubini joriy qilish orqali eksportni tashkillashtirish.
2. Xo'jalik yurituvchi subyektni qiziqtiradigan holatlar.	Eksportbop qilib yetishtirilishi mo'ljallangan qishloq xo'jalik mahsulotlarining bo'lg'usi xaridorini aniqlash, shartnomaga tuzish, oldindan to'lanadigan to'lov masalasini kelishish, eksport qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlash jadvallari, standart talablar
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Eksportga mahsulot yetishtirish imkoniyatlari haqida ma'lumot niyatlar bayonnomasi va boshqa
4. Boshqa holatlar xizmat yuzasidan bog'lanish davriyig'i.	Taklif va talab bo'yicha har kuni boshqa vaqtarda zaruratga qarab.

«Buyurtmachi»

F.I.O. Iavozimi



1. Mahsulot tayyorlashni tashkillashtirish.
2. «Uya» li tizim shartini belgilash.
3. «Uya» larni belgilash.
4. Mahsulotni tayyorlovchiga uzatish.
5. Importorga mahsulot yetkazish.

---

---

**10. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab  
chiqaruvchilari uchun «Uya» li lizing  
(sublizing) uslubini joriy qilish orqali  
lizingdan foydalanish imkoniyatlari  
oshirish xizmatlari**

---

---

Quyida lizingdan foydalaniш imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni asoslab beruvchi uslub haqida gap boradi. Unda lizing predmeti majburiyatları manfaatdor subyektlar o'rtasida mutanosib taqsimlanib, lizing jalb qilish imkoniyati vujudga keltirilishi mumkinligi asoslab beriladi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari faoliyatida lizing munosabatlari mustahkam o'rin olmoqda. Lizing asosida olingan qishloq xo'jalik texnikalaridan samarali foydalaniлmoqda. Shu bilan birga lizing operatsiyalari, qishloq hududlarida rivojlantirishning juda ko'п imkoniyatları mavjud. Ayniqsa aholi turmush darajasi nochor bo'lgan joylar uchun lizing amaliyotining kirib borishi katta ahamiyatga ega.

Lizing bo'yicha munosabatlар fuqarolik Kodeksining 587—599-moddalarida tartibga solingan bo'lib aniq ta'rif berilgan.

Qishloq hududlarida lizing operatsiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi muammolar yechilishi zarur:

- aksariyat xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati nochorligi natijasida lizingda ishtirok etishga imkoniyati cheklanganligi;

- shartnoma munosabatlari, shartnoma intizomiga rioya qilish yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, mablag'larni ishonchli tarzda eng yaxshi ko'rsatkichga ega subyektga biriktirib, sublizing shaklidan foydalaniш imkoniyati chegaralanganligi;

- moliyaviy imkoniyatlarning nochorligiga bog'liq bo'lgan boshqa sabablar.

Buning natijasida lizing operatsiyalarining hajmi haqiqiy ehtiyojga qaraganda ancha orqada qolmoqda. Ba'zi qishloq hududida lizingga umumiy ehtiyoji yo'q, deya xulosaga kelingan misollar ham mavjud.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun «Uya» li lizing uslubini joriy qilish orqali lizingning qishloq hududlariga kengroq kirib borishini

tashkillashtirish xizmatlarini taklif etmoqda. (Lizing operatsiyalardan foydalanuvchining namunaviy buyurtma loyihasi ilova qilinmoqda). «Uya» li uslub lizing operatsiyalarini tashkil qilish bo'yicha amaldagi qonun va qoidalarga tayangan holda uning bevosita qishloq tovar ishlab chiqaruvchilariga yaqinlashtirish mexanizmini ta'minlab berishga xizmat qiladi.

Bu xizmat turining dastlabki bosqichida manfaatdor konsalting korxonasi tomonidan mazkur uslubda samarali xizmat ko'rsatish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ma'lumotlar bazasi tashkil qilinadi. Mazkur uslubdan foydalanib, lizing xizmatlaridan foydalanishni istagan xo'jalik yurituvchi subyektlar namunadagi shaklda buyurtma va o'zлari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadilar. Xo'jalik yurituvchi subyekt konsalting korxonasidan lizing beruvchi va lizing mahsulotini ishlab chiqaruvchi haqidagi ma'lumotlarni, shartnomalari, oldindan to'lov miqdorlari, lizing davri haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi. O'ziga qulay bo'lgan holatlar mavjud bo'lgandagi shartnoima tuzishga rozi ekanligini bildiradi.

Ushbu ma'lumotlar bazasiga tayanib konsalting korxonasi lizing ga beriladigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va lizing beruvchini tashkilot manfaatlarni ko'zlab talabni shakllantirishni boshlaysdi. Lizing ishtirokchilarini jadval asosida tashkil qilingan «Uya» larga joylashtirish loyihasini tuzadi va hisobni yuritadi. Lizing shartlari ishtirok etuvchilarga ma'qul kelsa, ular o'rtaida tuziladigan shartnomalarni imzolani shartnomalarni tashkil qiladi. Konsalting korxonasi shartnomalarni taraflariga bir tomonlama yon bosmaydi, balki har ikki tomon uchun kelishilgan shartlarda xizmat ko'rsatadi.

Asosiy muammo ishtirokchi qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini talab darajasiga yetkazish uchun mazkur holatda talab etiladigan miqdordan kam bo'limgan miqdorda ishtirok etayotgan subyektlar tomonidan moliyaviy majburiyatlar taqsimlanadi va subsidiar javobgarlik masalasi ham kelishib olinadi.


Ko'rinishi turganidek, aniq bir qishloq hududining muammosi darajasiga ko'tarilgan lizing obyekti, shu qishloqda faolivat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning imkoniyatlari darajasida, tegishli hujjalarni qonun me'yorlariga ko'ra ramiylashtirib olinishiga erishiladi. Lizing obyekti xavf soladigan xatarlar yoki boshqa majburiyatlar mas'uliyati tomonlar o'rtaida mutanosib bo'llinadi. Qiyosiy misol tariqasida olganda, kichik bir qishloqqa salmoqli bahoga ega bo'lgan «Magnum» haydov traktorini lizingga olib kelish uchun qishloqning barcha ichki imkoniyatlari konsalting

korxonasi tomonidan tadqiq qilib o'rganiladi, egallab turgan yer maydonlari o'lchami yoki boshqa xususiyatlariga qarab kelishilgan holda majburiyatlar bo'linadi.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi ta'kidlaydiki, lizing munosabatlarini qishloq joylarda rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish orqali qishloqqaga lizing uskunalarini olib kelishni tashkil lashtirish, sanoatni qishloqqaga olib kelish barobarida qishloqning daromadini ko'paytirib, hayot tarzini butunlay o'zgartirib yuborish mumkin.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi barcha darajadagi manfaatdor qishloq xo'jalik korxonalariga o'z xizmatlarini taklif qiladi.

**Lizing operatsiyalarini rivojlantirish «Uya» li uslubi  
chizmasi**



1. Dastlabki muloqot. Mahsulot namunasi.
2. Talabni shakllantirishga buyurtma.
3. Mahsulot haqida ma'lumotlar.
4. Talabni shakllantirish hisobi.
5. Imzolangan kontraktlar.
6. Mahsulotni yetkazib berish haqida kelishuv.
7. Lizing mahsulotlarining tarqatilishi.

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

«\_\_» 200\_\_ - yil

1. Xizmat turi.	Qishloq xo'jaligi tovar ishlab ishlab chiqaruvchilari uchun «Uya» li lizing (sublizing) uslubini joriy qilish orqali lizingdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish.
2. Xo'jalik yurituvchi subyektni qiziqtiradigan holatlar.	Lizing asosida qishloq xo'jalik texnikalarini olish. _____ _____ _____
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Moliyaviy imkoniyatlar to'g'risida ma'lumot _____ _____ jami
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi.	Talab va taklif bo'yicha har kuni qolgan vaqtarda zaruratga qarab.

«Buyurtmachi»

\_\_\_\_\_  
F.I.O. lavozimi

---

## **11. Qishloq tumanlarida (cho'l zonasida) terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirishni o'zaro manfaatli investitsiya vositasi sifatida tashkil qilish va uning mas'uliyatini muvozanatlashtirish xizmatlari**

---

Quyida qishloq tumanlarida asosan suv yo'li bo'ylariga terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirishni ko'p tomonlama shartnomia asosida tashkil qilish, ishtirokchi tomonlarning maqomini belgilash, ichki va tashqi investitsiya mezonlarini belgilash orqali yangi ish o'rinalarini ochish, aholining yog'och mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va daromadini oshirish texnologiyasi haqida gap boradi.

Terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirish an'anaviy mohiyatiga ko'ra yangilik bo'la olmasa-da, bu faoliyatni tadbirkorlik yo'nalişlaridan biri sifatida rivojlantirish dolzARB muammoga aylanib bormoqda. Bu o'rinda gap aholi kam yashaydigan hamda beton konstruksiya asosidagi suv yo'llarining yonida bo'sh yotgan yer maydonlarida terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirish biznesi haqida ketmoqda. Yaqin vaqt largacha hozir eslatib o'tilgan yer maydonlari bo'sh bo'limgan. Xuddi o'sha joylar terak va qayrag'ochlar bilan to'la edi. Qaysidir ma'noda ular biologik drenaj vazifasini ham bajarayotgandi. Lekin tabiat qonuniga ko'ra terak va boshqa daraxtlar tabiiy yoshiga ko'ra ham kesilishi natijasida borgan sari kamayib, ular egallagan, xo'jaliklar ixtiyorida bo'lgan yer maydonlari nozirgi kunda asosan hududlardagi yer egalariga xizmat qiluvchi suvdan toydalauvchilar uyushmalari tasarrufiga berilgan.

Yuzaga kelayotgan muammo esa ushbu olinishi mumkin bo'lgan samara olinmayotganligidadir.

Taxminiy zarar shunday yondashuv bilan hisoblanishi o'rinniki, birinchidan, daraxt yo'qligi sababli shamol va izg'irinni to'xtatish imkonи chegaralanganligi, ikkinchidan, daraxt ko'karib turgandagi biologik drenaj yoki tabiatga o'simlik sifatidagi foydasi, uchinchidan, yog'och mahsuloti olish imkeniyati yo'qotilayotganligi, to'rtinchidan, shunga bog'liq holda foydali ish bilan ta'minlanishi yuz bermayotganligi va nihoyat, eng achinarlisi, suv manbaining yonidagi verlar cho'llashib qolayotgani, suv yo'llarining o'zi ham ta'mirtalab bo'lib borayotganligi to'liq hisob-kitob qilinishi kerak.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi yuqoridaagi masala-larning tijorat asosida yechilishi mo'ljallangan «Terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirishni o'zaro manfaatli investitsiya vositasi sifatida tashkil qilish va uning mas'uliyatini muvozanatlashirish» xizmatlarini taklif etmoqda.

Buning uchun terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirish biznesi bilan shug'ullanuvchilarni investitsiya qatnashchilarini sifatida qabul qilib, ular to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini tashkil qilish kerak bo'ladi. Ma'lumotlar bazasi namuna sifatida keltirilgan «Terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirish bo'yicha investitsiya majburiyatini oluvchisi tomonidan buyurtma» shakliga rioya qilgan holda yaratiladi. Shu asosda manfaatdor tomonlar ishtirokida investitsiya kiritish izchilligi, yo'nalishi va maqsadi tasdiqlab olinadi.

Navbatdagi yirik tadbir investitsiya shartlarini belgilash, uni bevosita va bilvosita kiritish tartibini ishlab chiqish:

- yer egalari va yerdan foydalanuvchilar bilan yer ijarasini shartnomasi loyihasini ishlab chiqish va joriy etish;
- tashqaridan investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini va ichki investitsiya mezonlarini belgilash;
- tanlab olingen ma'lumot bir hudud yoki joy uchun talab qilinadigan mablag'lar smetasi parametrlarini asoslab berish va shu asosda olinadigan majburiyatlarga aniqlik kiritish.

Ko'zda tutilgan tadbirlar amalga oshishi nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqligi aniqlangan, tashqi investorlarning fikrlari asosida ularni bajarish muddatlariga ham aniqlik kiritiladi.

Terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirish jarayoniga biznes sifatida qaralar ekan, uning ishtirokchilarini shartli ravishda 4 guruhga ajratish mumkin.

1. Qishloq xo'jaligi korxonalari.
2. Yer egalari (yerdan birlamchi foydalanuvchilar).
3. Investorlar.
4. Fugarolar.

Bir sikl mahsulot yetishtirish jarayoni 10–12 yildan kam bo'lmasligi, binobarin, sarflangan sarmoya shu davrdan o'tgandan keyin samara berishi mumkinligini e'tiborga olsak, tomonlarning har birini hech bir istisnosiz investitsiya ishtirokchisi sifatida bahola shrimiz maqsadga muvofiqdir. Oddiy voqeа sifatida bu, yer egasimmiyerning ma'lum bir qismiga imkoniyati darajasida terak ekib olib ehtiyojga ishlatalish imkoniga ega bo'lishdan boshqa narsa emasdek tuyulishi mumkin.

Vaholanki terak va yog'ochbop daraxtlarni biznes sifatida tashkil qilish keng qamrovli maqsadlarni ko'zlaydi. Uning ishtirokehilari ham hamkorlikda tashkil etilgan biznesdag'i o'rniغا ko'ra teng darajadagi ahamiyatga ega. Fuqarolar yollanma ishechi sifatida 10–12 yil davomida ish haqi olib turishlari rejalahtirilsa-da, ularning biznesdag'i alohida ulushlari bo'ladi, qaysiki fuqarolar u yoki bu tarzda ulushli bo'lishdan chetlashtirilsa-da, ularning noroziliklari oqibatida terak va yog'ochbop daraxtlar yetishtirish biznesi butunlay barbod bo'lishi mumkin. Qolgan ishtirokchilar ham o'z xususiyatlari va imkoniyatlariga yarasha teng ahamiyatlici, kimadir ustunlik berish bilan kimnidir chetga surish jabrlanuvchi sifatida uning umumiy biznesiga qarshi zarbasi bilan yakun topsa, boshqalar nafaqat zarar ko'radi, balki biznes barbod bo'lishi xatari paydo bo'ladi.

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasiga

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

“\_\_” 200\_\_ - yil

1. Xizmat turi.	Qishloq tumanlarida (cho'l zonasida) terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirishni o'zaro manfaatli investitsiya vositasi sifatida tashkil qilish va uning mas'uliyatini muvozanatlashtirish xizmatlari.
2. Xo'jalik yurituvchi subyektni qiziqtiradigan holatlar.	Terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirib yog'och mahsulotlariga ega bo'lish. _____
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Moliyaviy imkoniyatlar to'g'risida ma'lumotlar _____
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi:	_____
5.	

«Buyurtmachi»

\_\_\_\_\_ F.I.O. lavozimi

**Terak va yog'ochbop daraxtlar yetishtirish biznesini tashkil  
qilish uchun talab qilinadigan mablag'lar  
Smetasi hisob-kitobi**

1. Bir gektar yerga to'g'ri keladigan foydali yer maydoni 10000 kv.m.
2. Bir gektar yerga joylashtirish mumkin bo'lgan daraxt soni 3000 dona.
3. Bir dona terak yoki yog'ochbop daraxti yetishtirishi natijasida olinishi mumkin bo'lgan yog'och mahsuloti 0,75 m<sup>3</sup>.
4. Bir gektar yerdan yetishtiriladigan terak 2200,0 m<sup>3</sup>.
5. 1 m<sup>3</sup> yog'ochning o'rtacha narxi 200,0 m. so'm.
6. Sirdaryo viloyatida barcha darajadagi suv yo'llarining uzunligi 6000 km  
Shu jumladan:
7. Lotoklar uzunligi 3000 km.
8. Ariqlar uzunligi 3000 km.
9. Viloyat bo'yicha rejalashtirilishi mumkin bo'lgan foydali yer maydoni 6000 ga.  
(suv yo'llarining ikki tomoni ham minimal hisobga olinganda).
10. Viloyat bo'yicha 2015–2017- yillarda yetishtirilishi mumkin bo'lgan yog'ochbop daraxt materiallari 13200,0 m<sup>3</sup>.
11. 2015–2017- yillarda yetishtirilishi taxmin qilingan yog'ochbop daraxt materiallарining qiymati 26400,0 m. so'm.
12. 2015–2017- yillarda terak va yog'ochbop materiallар yetishtirishni moliyalashtirish namunaviy parametrlari (taxmin qilingan yog'ochbop daraxt materiallari qiymati 26 mlrd 400 mln so'mga nisbatan, shu jumladan:  
2006–2007- y., 2008–2009- y., 2011–2015- y.,  
10% darajasida 2640,0 mln so'm 1320 660 660  
25% darajasida 6600,0 mln sum 3300 1650 1650  
50% darajasida 13200,0 mln so'm 6600 3300 3300  
Ko'rinib turibdiki, 13200 m/m<sup>3</sup> 26400 mln so'mlik yog'ochbop material yetishtirish biznesi uchun kamida 2 mlrd 640 mln so'mlik moliyaviy oqim yuz berishi kerak ekan.
13. Moliyalashti;ish majburiyatlarining manfaatdor tomonlarga vuklanishining taxminiy hisob-kitobi:  
Jadvalda ko'rinib turganid., moliyalashtirish majburiyatları iloji

Nº	Nomi	Umumiy ulush %	Asosiy majburiyat	Izon
1	2	3	4	5
1.	Qishloq xo'jalik korxonalarini.	25%	Mol-mulk va taoliyatni tashkil qilishdaqи ishtiroki bilan.	
2.	Yer egalari (Yerdan birlamchı foydalananuvchilar) (tuman hokimlari).	25%	Yer maydonini ijara berish va suv bilan ta'minlash.	
3.	Investorlar.	25%	Faoliyatni mablag' va boshqa ta'minot turlari bilan ta'minlash.	
4.	Fuqarolar.	25%	Terak va daraxtlarni ekish va parvarishlash.	

boricha teng ulushlarda taqsimlanadi. Eng muammoli ishtirokeni bu investorlar toifasi bo'lib, bu toifani shakllantirish uchun xorijiy va mahalliy ishbilarmonlarga taklif yuboriladi. Umumiylar shartlari asosida ular bilan muzokaralar olib boriladi. Investorlarga mo'ljalangan ulush boshqa ishtirokchilarga taqsimlanishi ham mumkin. Bu holda investorlarga mo'ljalangan majburiyatlar ham taqsimlanadi. Shu jumladan, fuqarolar olishlari mumkin bo'lgan ish haqini olishdan voz kechib, ushbu miqdordagi investitsiya ulushiga ega bo'lishlari mumkin. Boshqa fuqarolar ham maqsadli investitsiya kiritishlari mumkin.

Yuqoridaq hisob-kitob shartli raqamlar vositasida umumiylasavvur hosil qilish uchun keltirilgan raqamlar edi. Terakehilik biznesi kelajagi porloq biznesdir. Bu biznesni tashkil qilmoq va taklif qilingan mexanizmni takomillashtirmoq kerak.


Terakehilik biznesi quyidagi muammolarni hal qiladi:

- qishloq xo'jaligiga investitsiya oqimini kuchaytirish orqali tarmoq rivojlanadi;
- yog'och mahsulotlariga bo'lgan talab qondiriladi;
- fuqarolar uchun qo'shimcha daromad manbai va kelajagini ta'minlash uchun mustahkam asos;
- ushbu biznesni qo'llab-quvvatlaydigan fuqarolar uchun investor bo'lish imkoniyati hamda o'z kelajagi uchun maqsadli xarajat.

Mazkur biznes fuqarolar manfaatini ko'zlaganligi e'tiborga olimib, iukumut darajasida o'r ganib chiqilsa hamda fuqarolarning shaxsiy jamg'armalarini investitsiya vositasi sifatida ishtirok etishining

tashkiliy texnik tomoni ishlab chiqilsa, xalq manfaati uchun foydali bo'ldi.

### Terak va yog'ochbop daraxtlar o'stirishni biznes vositasi sifatida tashkil qilish chizmasi



1. Konsalting korxonasida ma'lumotlar bazasini shakllantirish.
2. Investorlar taklifini o'rganib chiqish.
3. Terak yetishtirish biznes ishtirokchilarini tarkibini aniqlash. Investitsiya shartlarini belgilash.
4. Ko'p tomonlama biznes shartnomalarini tuzish va ularning hisobini yuritish.
5. Shartnomada belgilangan sanada yoki mahsulot yetishtirish davri so'ngida tayyor mahsulotni yoki uning qiymati (foydasi)ni ishtirok etganlik darajasiga mutanosib taqsimlash (natura va so'mda).

---

---

**12. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni  
«Boy berilgan foydani hisoblash uslublari»  
bilan ta'minlash va javobgarlik mas'uliyatini  
shakllantirish xizmatlari**

---

---

Ushbu qismda xo'jalik yurituvchi subyektlar xo'jalik faoliyatida o'zining va o'zgalarning aybi bilan aniq ifodalangan harakati yoki harakatsizligi bilan yetkazilgan zararni, shu jumladan, boy berilgan foydani hisoblash va o'zida javobgarlik mas'uliyatini shakllantirib borishni ta'minlaydigan uslublar asoslab beriladi.

Fermer xo'jaliklari mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida ko'plab boshqa xo'jalik va korxonalar bilan o'zaro kelishib, aloqada bo'lib ish olib borishiga to'g'ri keladi. Mahsulot ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalar ham xo'jalik shartnomalari vositasida o'zaro hisob-kitoblarning g'oyat ko'p oqimlari ta'sirida yuz beradi.

Bunday sharoitda hamkor sheriklarga ziyon yetkazmaslik, ularning biznesiga xalaqit bermaslik muhim ahamiyatga ega. Bino-barin, qonunlarda bunday ziyon yetkazishlarga nisbatan iqtisodiy va jinoiy jazolar belgilangan.

Yana bir muhim holat, bu — basharti iqtisodiy ziyon yetkazish qo'shnilar tomonidan yoki umuman boshqalar tomonidan yo'l qo'yilgan bo'lsa, ushbu holatlarga nisbatan qanday munosabat bildiriladi. Qonun nuqtai nazaridan buning yechimi aniq, da'vo arizasi kiritilsa kifoya. Lekin bizning sharoitimizda bunday holatlar yoki vujudga kelgan odatlar yoki shakllangan ish muhiti yaxshimi yoki yomonmi? Buning ham yaxshi, ham yomon jihatlari mavjud. Jahon amaliyoti tajribalari va qonunchiligimiz da'volashishni va, o'z navbatida, mas'uliyatni his qilishni talab qiladi.

Ko'p yillar mobaynida vujudga kelgan manfaatlar tarqoqligi, yetarli darajada bir-birini qo'llamaslik va o'zaro yordam bermaslik holatlari o'z-o'zidan bartaraf etilmaydi. Endi bir-biriga ko'maklashish qanchalik faol rivojlansa, kamchiliklar o'z vaqtida tugatilsa, hamkor sheriklar bir-biriga ziyon yetkazmay ishlashni o'r ganib olishadi, bu zamonning eng muhim talabi va jadal rivojlanishning asosiy shartidir.

Demak, fermer xo'jaligi o'z faoliyatini yuritar ekan, xo'jalik faoliyatida o'zining va o'zgalarning aybi bilan aniq ifodalangan

harakati yoki harakatsizligi bilan, boy berilgan foydani hisoblash metodikasini qo'llash amaliyotini bilishi, shuningdek, javobgarlik mas'uliyatini o'zida shakllantirib borishi kerak. Aks holda, xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga ziyon yetkazishi davom etaveradi. Eng yomoni qonun kuchiga ishoneh kamayadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, termer xo'jaligining pirovard foydasini kamaytirishga sabab bo'lgan omillar mavjud, ularning aybdorlari ham aniq. Lekin shu bilan birga termer xo'jaligining o'ziga bog'liq sabablari ham bor. Boy berilgan foydani hisob-kitob qilishda ushbu sabablar ham, albatta, e'tiborga olinadi. Eng asosiysi, fermer xo'jaligi yoki har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt, o'z xo'jaligiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olishi kerak.

Har kim mas'uliyatni anglash zarurati va unga qat'iy rioya qilish shartligini anglashi lozim.

Boy berilgan foydani hisoblash uchun talab qilinadigan manbalar:

1. Ko'zlangan foydani olishga imkon bermagan holatlar bo'yicha aybdor tashkilot va mansabdor shaxslar F.I.O ko'rsatilgan dalolat-noma.

2. Shartnoma yoki boshqa asoslar ko'rsatilgan hujjatlardan nusxalar.

3. Favqulodda holatning oldini olish to'g'risida yozilgan ogohlantirish xatlari nusxalari.

4. Boshqa manbalar

---

---

---

Ko'rinib turganidek, boy berilgan foydani hisoblash murakkab jarayon bo'lib, har bir holatda alohida yondashuvni talab qiladi. Shu bilan birgalikda boy berilgan foydani tashkil qiluvchi holatlar doimiy ravishda tahlil qilinib borilishi kerak. Bunda o'z faoliyatidagi nuqsonlarni bartaraf etish bilan boshqa tarafga to'lanishi ehtimoli bo'lgan zarar xatarining oldi olinadi.

«Guliston Agrokonsalting» korxonasi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarni xo'jalik faoliyatini benuqson olib borishga chaqiradi hamda lozim bo'lganda korxona xizmatlaridan foydalanishni tavsiya qiladi.

Fermer xo'jaligi faoliyatida eng ko'p uchraydigan boy berilgan foydani hisoblashga olib keladigan xo'jalik nizolarining ko'rinishlari

Xo'jalik nizolarining ko'rinishlari	Kelib chiqishining sabablari
Tuman MTP ning aybi bilan yerni shudgorlash kechiktirilganligi.	Shartnoma bo'yicha shudgorlash muddatlarini aniq ifodalanmaganligi, fermer tomonidan aylanma mablag'lari zaxirasi yaratilmaganligi.
Sug'orish suvining SFU tomonidan limitdagi hajmda ta'minlanmaganligi.	Sug'orish suvidan samarali foydalanish tadbirlari ko'rilmaganligi, agrotexnika o'z muddatida o'tkazil-maganligi. Sug'orish suvidan ommaviy foydalanish boshlanganligi sababli limitdagi miqdorni mavsumda yetkazib berish barbob qilinganligi.
Fermer xo'jaligi a'zosining aybi bilan chopiq qilish, sug'orish va boshqa dala ishlari kechiktirilganligi natijasida hosil nobud bo'lishi.	Fermer tomonidan ish haqi to'lanishi, natura to'lovleri kechiktirilganligi natijasida xo'jalik a'zolarining ish joyini tark etishi.

Fermer xo'jaligi faoliyatidagi boy berilgan foydani hisoblashning umumiy uslubi

Boy berilgan foydani hisoblash uchun asos bo'lgan nizo ko'rinishlari va buning natijasidagi oqibatlari	Keltirilgan zararni hisoblash formulasiga aniqlik kiritish uchun talab qilinadigan asoslar
Tuman MTP ning aybi bilan yerni shudgorlash ishlari 20 kunga kechiktirilganligi natijasida boshqa agrotexnik tadbirlarni bajarish mumkin bo'lmay qolganligi.	Davlat buyurtmasidagi ekinlar ekiladigan yer maydonlari agrotexnika muddatida shudgorlash natijasida, boshqa tadbirlarni ham yil davomida qulay muddatlarda bajarib olinishi mumkin bo'lgan, biznes-rejada tasdiqlangan foya miqdoridan, joriy yil haqiqiy natijasini chegirish natijasida paydo bo'lgan zarar. Ma'naviy zararni hisoblash natijasi va boshqa zararlar hisobi.
Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi tomonidan limitdagi suv ta'minlab berilmaganligi natijasida agrotexnika tadbirlari o'z muddatida o'tkazilmaganligi.	Sug'orish suvni limitdagi tasdiqlangan miqdorda olib, vegetatsiya davrining boshqa xususiyatlarini ham hisobga olib, agrotexnika qoidalariga riyo qilib yetishtirilgan hosil sotilishi natijasidagi rejada tasdiqlangan foya miqdoridan, joriy yil haqiqiy natijasini chegirish natijasida paydo bo'lgan zarar miqdori.

Fermer xo'jaligi a'zosining aybi bilan g'o'zani chopiq qilish, sug'orish va boshqa dala ishlari kechiktirilganligi natijasida hosil nobud bo'-lishiga xo'jalik a'zosining o'z ish joyini ruxsat etilmagan vaqtida tark etishi.	Fermer xo'jalingina joriy yil uchun yer maydonidan olinishi rejalashtirilgan foyda miqdorini xo'jalik a'zosi mehnat qilgan qismidagi ulushiga to'g'ri keladigan foyda miqdoridan ushbu yer maydonidan olingan natija qandaybo'lmasin aniqlanganidan keyin paydo bo'lgan zarar miqdori.
--	--

**Izoh:** boy berilgan foydani hisoblash formulasi har bir holatga alohida yondoshilgan holda, fuqarolik Kodeksi va boshqa tegishli qonun talablari hamda shartnomalariga asosan ishlab chiqiladi.

BUYURTMA № \_\_\_\_

— \_\_\_\_ 200 \_\_\_\_ - yil

1. Xizmat turi.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarni «Boy berilgan foydani hisoblash uslublari» bilan ta'minlash va javobgarlik mas'uliyatini shakllantirish xizmatlari.
2. Xo'jalik yurituvchi subyektni qiziqtiradigan holatlar.	Shartnoma tarafining boy berilgan foydasini to'lash xatarini bartaraf etish uchun tegishli informatsiyaga ega bo'lish.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Xo'jalik shartnomalari nusxalari. _____ _____
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyiligi.	_____ _____
5.	

«Buyurtmachi»

\_\_\_\_\_  
F.I.O. lavozimi

---

**13. Xorijiy va mahalliy tovar ishlab  
chiqaruvchilar va investorlar bilan amaliy  
aloqalarni «Aniq manzil» usulida  
tashkillashtirish xizmatlari**

---

Quyida manfaatdor xo'jalik yurituvchi subyektlarni boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga manfaatli shartlarda tanishtirish, hamkorlik mavzularini o'rganish va pirovardida o'zaro foydali bitim tuzishni tashkillashtirish usulublari asoslab beriladi.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun «Xorijiy va mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar va investorlar bilan amaliy aloqalarni aniq manzil usulida tashkillashtirish» bo'yicha xizmatlarni taklif etmoqda.

Aniq manzil usulining mohiyati va maqsadi manfaatdor xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shu jumladan, xorijiy subyektlarga manfaatli shartlarda tanishtirish, hamkorlik mavzularini tadqiq qilish va pirovardida o'zaro foydali bitim tuzilishiga erishishni tashkillashirishdan iborat.

Shu maqsadda amaliy aloqalarni tashkillashtirishda manfaatdor bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risida ma'lumotlar bazasi tashkil qilinadi. Harakat izchilligi yo'nalishlari belgilanadi. Shuningdek, ishtirok etuvchilarning shaxsini va maqsadini aniq ifodalash maqsadida «mehmon», «mezon», «taklif», «tashrif» iboralariga aniqlik kiritiladi.

Eng asosiy axborot manbai amaliy aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning buyurtmasi shaklidir. Manfaatdor tomonlar ushbu shaklda o'z faoliyati doirasi o'rganib chiqilishi haqida istak bildiradi yoki tegishli taklif-tavsiyalar berishni so'raydi. Konsalting korxonasi talab va taklifni manfaatdor tomonlarga ularning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda qanoatlantiradi.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasi tomonidan to'planadigan ma'lumotlar bazasi mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar haqidagi axborotlardan iborat. Ushbu ma'lumotlar bazasida xorijiy hamkorlar, ularni qiziqtiradigan ma'lumotlar jahon amaliyotida belgilangan tartibda ular tomonidan bildirilgan axborotlar asosida

yig'ilib boriladi. Bunday axborot qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisiga uning talabiga binoan belgilangan shakl va mazmunda yetkazib beriladi.

Amaliy aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan subyektlarning qiziqishlarini ifodalash shartlari va usullari namuna silatida keltirilgan buyurtma shakli bilan cheklanib qolmaydi. Bu amalda qiziquvchi va qiziqtiruvchi tomonlarning erkin ifodalanadigan istaklarini ular istagan shaklda va usulda yetkazib berish kaflatlangan, ya'ni bir-birlaridan ko'radigan foyda hajmiga bog'liq bo'limgan holda, buyurtma berilgan axborotni tahliliy ma'lumotni yoki tadqiqot xulosasini ular istagan shaklda yetkazib berilishi hajmi bilan belgilanadi. Demak, so'r aladigan axborotning buyurtma shakli, shartlari va usullarini mijoz belgilaydi.

Konsalting korxonasi talab va taklifni guruhlaydi, yuzlashtiradi va tomonlar bilan kelishilgan holda aniq sanalarda ifodalangan muloqot vaqtini ham tashkil qiladi.

Tomonlar bir-birlarini yetarli darajada sirtdan o'rganib olgalaridan keyin, basharti, bevosita uchrashish, muzokara olib borish, joyning o'zida tanishish, sotib olinadigan yoki sotiladigan mahsulot tayyorlanishi jarayonini bevosita o'rganish istagini bildirsalar, u holda ushbu xizmat turi so'nggi jarayongacha bajarilgan bo'ladi.

Demak, amaliy aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun, eng avvalo, manfaatdor tomonlarning o'zları haqidagi beradigan axborotlari muhim o'rinn tutadi. Shundan keyin tomonlar o'matilishi ehtimol tutilgan amaliy aloqalarning aniq sharoitlari tomonlarni qanoatlantirsa, o'zaro foydali bitim tuzilishi ham ehtimoldan xoli emas.

Basharti, pirovardida shartrnomaviy munosabat yoki bitim tuzish bilan yakunlanmasa ham, bu mutlaqo befoyda yoki samarasiz bo'lmaydi. Agrokonsalting korxonasi tomonlarga manfaatsiz, xolis yondashuv asosida xizmat ko'rsatadi.

**BUYURTMA № \_\_\_\_**


«\_\_\_\_» 200\_\_ - yil

1. Xizmat turi.	Xorijiy va mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar va investorlar bilan amaliy aloqalarni «Aniq manzil» usulida tashkillashtirish xizmatlari.
2. Xo'jalik yurituvchi subyektni qiziqtiradigan holatlar.	Xo'jalik yurituvchi subyekt haqida ma'lumot tayyorlash _____
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Pirovardida qo'shma loyiha yoki hamkorlik haqidagi taklif olinishiga erishish
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyiliги:	Moliyaviy tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
5. _____	_____

«Buyurtmachi»

F.I.O. lavozimi

**Amaliy aloqalarning aniq manzil usuli chizmasi**



1. Talab va taklifning konsalting korxonasida to'planishi.
2. Talab va taklifi guruhlash hamda aniq sanalarda belgilash.
3. Talab va taklifi yuzlashish.

---

---

**14. Qishloqda biznes muhitni  
takomillashtirish, tashkiliy tarqoqlikni  
bartaraf etish va biznes xulqi ko'nikmalarni  
rivojlantirishni uslubiy ta'minlash xizmatlari**

---

---

---

Bu o'rinda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlarining xizmat ko'rsatish darajasiga baho berish va tarmoqda shartnomaviy muhitni yaxshilash hamda biznes xulqini shakllantirish bo'yicha uslublar asoslab beriladi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar izchil davom ettirilayotganligi, qishloq hududlari darajasida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub mohiyatini targ'ibot qilish maqsadida hamda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga busiz ham juda yaxshi ma'lum bo'lgan ushbu holatlар ma'lum bir tizimga solinib, pirovardida biror-bir faol munosabat ishlab chiqilishi va muammolar yechimiga harakat qilinishiga da'vat qilish maqsad qilib qo'yildi.

Shu maqsadda 3 ta ilova taklif qilinmoqda, birinchidan, ilovada tarmoq tashkilotlari tomonidan qishloq xo'jalik korxonalarini (shirkat, fermer xo'jaligi) ga nisbatan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaslik, shu jumladan, lozim darajada bajarmaslik yo'li bilan ta'sir o'tkazish holatlariga huquqiy baho berish monitoringi berilgan. Monitoringda qishloq xo'jalik korxonalarini bilan birga ishlaydigan tashkilotlar nomi va shu tashkilotlar faoliyatida eng ko'p uchraydigan yoki alohida ahamiyatli qonunbuzilish holatlari qisqacha tarzda bayon qilingan.

Ikkinci ilovada tarmoq tashkilotlariga nisbatan qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatida biznes muhitni takomillashtirish, tashkiliy tarqoqlikni bartaraf etish va belgilangan tartib qoidalariga riosa etish ko'nikmalarini rivojlantirish monitoringi berilgan. Monitoringda birinchi ilovadagi nuqsonlarni tugatishga qaratilgan, qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatida eng ko'p uchraydigan hamda alohida ahamiyatli tashkiliy tarqoqlik holatlarining qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan bartaraf etilishi mumkinligining taxminiy tadabirlari berilgan.

Uchinchi ilovada qishloq xo'jalik korxonalarini majburiylari ijrosi ular tomonidan ta'minlashini tashkillashtirish monitoringi berilgan.

Monitoringda ichki xo'jalik majburiyatlarning asosiy ko'rinishlari va holati hamda shu majburiyatlarning aksariyat hollardagi ijro etilish darajasiga baho beriladi.

Demak, ko'riniб turganidek, bu shartnomaviy muhitni yaxshilash bo'yicha tahlillar, muammolar yechimi bo'yicha tahlillar, muammolar yechimi bo'yicha taxminiy taklifni ham o'z ichiga oлади. Qishloq xo'jaligi korxonasi o'z muammolarini yechishda qanday yo'l tutadi, bu uning vakolatidagi huquqi, pirovard natija foyda yoki zarar ham unikidir.

Shu narsa aniqliki, davlat siyosatining tadbirkorlarga, shu jumladan, qishloq xo'jalik korxonalariga qo'yayotgan asosiy talabi mavjud qonunchilik doirasida faoliyat yuritish, qonunni boshqalar buzishi oqibatidagi sabab bo'lganda ham qonun talablarini buzmaslik, bu bilan qonunni buzgan tarafga da'vo bildirish imkoniyatini kuchaytirish muhitini yaratishdir. Ana shunda qonuniy daromad olishga va farovonlikka keng yo'l ochiladi, tashkiliy tarqoqlik bartaraf etiladi, biznes xulqi vaxshilanadi.

Uslubning o'ziga xosligi shundaki, bundan muayyan biznes xulqini shakllantirish ustida doimiy izlanish olib borish va jamiyatdagi muhitni hisobga olgan holda unga moslashishni, shuningdek, tartibga solinmagan holatlarga duch kelinganda uning yechim topishini targ'ib qilishdir. Jamiyatda islohotlar olib borilayotgan ekan, muammolar va ziddiyatli holatlар bo'lishi aniq. Ana shunday vaqtarda «jiddiy jabrlanuvchi» bo'lib qolmaslik uchun boshqalar fikrini ham e'tiborga olish, o'z fikriga ishontirishga harakat qilish va pirovardida hech bo'limganda ko'pchilikni o'ziga ergashtirish erishish mumkin bo'lgan eng samarali natija bo'lib qoladi.

Ushbu uslubning mohiyatini tushunib olish uchun qishloq xo'jalik korxonalariga xizmat qilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning «Idoraviy ichki xudbinligi» oqibatlarini bilish lozim. Tarmoq tashkilotlarining «xudbin»ligini bartaraf etish mazkur «xudbin»likning ildizlarini hamda ta'sir doirasini o'rganib chiqish, uning tub mohiyatini anglashga imkon beradi.

Tarmoq tashkilotlari tomonidan qishloq xo'jalik korxonalari (shirkat, fermer xo'jalik)ga nisbatan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaslik, shu jumladan, lozim darajada bajarmaslik yo'li bilan ta'sir o'tkazish holatlariiga huquqiy baho berish monitoringi

<b>No</b>	<b>Tarmoq tashkilotlari nomi</b>	<b>Eng ko'p uchraydigan yoki alohida ahamiyatli qonunbuzilish holatlari</b>
1.	1. Tayyorlov tashkilotlari. Don (g'alla) qabul qilish korxonalari.	Qishloq xo'jalik korxonalarida g'alla, paxta, pilla mahsulotlarini tayyorlov korxonalarida qabul qilib olishda, sifatini belgilashda miqdori o'lchanganda suiste'molchilik mavjud. Topshirilgan mahsu-lotning puli uzoq vaqt ushlaniб turiladi.
2.	Paxta qabul qilish korxonalari.	Topshirilgan paxta chigit uchun yog' zavodidan olinayotgan o'simlik yog'i bozor narxi bilan teng ravishda hisob-kitob qilinyapti.
3.	Pilla qabul qilish korxonalari.	Topshirilgan pillaning puli vaqtida to'lanmaydi.
4.	Neft mahsulotlari unilar korxonalari.	Ba'zan iste'molchilarga mahsulot tarqatishda to'liq hajmda berilmaydi, 10-25 % gacha ba'zan undan ham yuqori darajada kam beriladi. Sun'iy taqchillik vujudga keltiriladi. Bu ishga ayrim subyektlarni ham jaib qilib, ularga me'yordan ortiqcha mahsu-lot jo'natib, boshqa tarzda ehtiyojini qondirib, boshqa subyektlarni ham suiste'molchilik qilishga majbur qilishadi. Yoki mahsulot yetkazib berish jadvallariga umuman riosa qilinmaydi, qancha miqdorda kunlik mahsulot ajratishga taqsimotchilik funksiyasi yuklatilgan qo'shimcha noqonuniy tuzilma ham taoliyat ko'rsatadi. Natijada umumiyy hisob bo'yicha mahsulot belgilangan hajm bo'yicha yetkazib berilgan bo'lib chiqsa ham, oraliq vaqtida sun'iytaqchillik hisobiga mahsulot o'z egalariga to'liq hajmda yetib bormaydi. Bu holat yozib qo'yilmagan, lekin qat'iy riosa qilinadigan qoida darajasiga ko'tarilgan.
5.	Mineral o'g'it yetkazib beruvchi shoxobchalarda ham o'lhash vositalari taqchilligi mavjud, mahsulot to'liq hajmda tarqatilmaydi. Vegetatsiya davriga mos bo'lgan, ya'ni talab qilingan vaqtida agrotexnik muddatlarda mahsulot yetkazib berish jadvaliga har doim ham riosa qilinavermaydi. Bu yerda ham umumiyy hisobda yetkazib berilgan o'g'it me'yor darajasiga yaqinlashib qolsa ham yetkazib berish muddatlariaga riosa qilinmasligi, o'g'itning amalda ishlatalmasligiga yoki ortiqcha isrof bo'lishiga olib keladi.	

**Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar**

6.	Bank muassasalari.	<p>Banklar soni ko'p bo'lsa ham amalda ular o'rtaida mijoz uchun raqobat kurashi yo'q, binobarin, banklarning mijozlarga nisbatan monopol mavqeい va shunga yarasha ustunligi saqlanib turibdi.</p> <p>Naqd pul berish majburiyati bajarilishini tasdiqlangan jadval asosida taqqoslash amaliyoti yaratilmagan.</p> <p>Bu bankning imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanmoqda. Mijozning buyurtma rasmiliyashtirishi ham bankning talabi bilan bank imkoniyatlari darajasida amalga oshirilayti.</p> <p>Natijada bank mijoz talab qilgan naqd pulni ajratgan bo'lib chiqyapti.</p> <p>Bundan tashqari bank mijoz o'rtaсидаги shartnomaga ko'ra mijoz tomonidan berilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning taqdim qilinishini talab qilmaslik, binobarin, bu bilan bank majburiyatlarini kuchaytirmaslik, mijozlarni o'z huquqlarini keyinchalik talab qilishining oldini olish harakatlari ko'p (m: kassa buyurtmanomasi korxona balansiga oid hujjatlar va boshqalar).</p> <p>Natijada mijoz bankning imkoniyatlariга to'liq moslashadi, undan ortig'iни yoki o'z talabiniligi surishni befoya deb hisoblaydi. Bu holat har kuni o'z tasdig'iни topayapti.</p>
7.	Texnika xizmatlari ko'rsatuvchi mashina-traktor parklari	<p>Fermer xo'jaliklarining asosiy qismida texnika vositalari yetishmasligi sababli MTP lar ham mono-pol mavqelarini saqlab turibdilar. Shunga bog'liq holda xizmat ko'rsatish muddatlariga rioya qilmaslik, xizmat ko'rsatish muddatlarining noaniqligi MTP larga nisbatan e'tiroz bildirish va da'volashishni samarasiz qilib qo ymoqda.</p> <p>Manitan olganda M: yerni sifatli shudgorlash, boshqa xizmatlarni ham sifatli bajarish. MTP larga o'z mijozining xo'jalik taoliyatini muvaffaqiyatlari yakunlashi va MTP ga ham to'lov qobiliyati paydo bo'lib hisob-kitob qilishi darajasi yaxshilanishi bilan javob qaytishi lozim. Arnalda esa ba'zan aksи bo'lyapti. Sifatli ish bajarisnga qarshilik yo'qdek ko'rinnadi, lekin unutmaslik kerakki, sifatli ish nisbatan ko'p vaqtini oladi hamda suiiiste'mollikka o'rinn kam qoladi. M: dizel yonilg'isi kam sarflab sifatsiz ish bajarilganda, ko'proq suiiiste'molchilik qilishiga imkoniyat yaratiladi.</p>

8.	Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari (SFU).	Ushbu infratuzilma qishloq xo'jaligi uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lsa ham o'z o'rnni yetarli topa o'tnayapti. Sababi, SFU larning moddiy texnika bazasi yetarli darajada tashkil etilmagan. Ta'sischi bo'lib kirgan fermer xo'jaliklari bilan shartnomaviy munosabatlар rivojlanmagan. Suvdan foydalanish-ning bozor prinsiplari yo'lga qo'yilmagan. Natijada sug 'orish suvidan foydalanishni qonun yo'l qo'ygan asoslarda cheklash yoki taqiqlab qo'yish amaliyoti qo'llanilmasdan kelmoqda. Shu boisdan suvdan foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilish amalga oshmayapti.
9.	Zooveterinariya xizmati ko'rsatish korxonaları.	Ushbu tarmoq qishloq xo'jaligi agrar siyosatini joylarda to'g'ri olib bormaslik natijasida rivojlanib ketmayapti.
10.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash va solish shoxobchalari.	Iste'moldan ortiqcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, uni qayta ishlash va solish tizimi mukammal ishlab chiqilmaganligi sababli, tarmoqdagi ulkan salohiyatdan deyarli foydalanilmayapti. Mavsumda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi juda arzon bo'lib qolyapti. Mintaqada qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish hajmlari joriy yil bashorati yuritilmasligi sababli mansulot yetishtirish xatarini sug'urtalash tizimi ham ishlamayapti.
11.	Axborot ta'minoti va konsalting xizmati ko'rsatish shoxobchalari.	Axborot ta'minoti va konsalting xizmatlaridan foydalanishi mumkin bo'lgan subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatida tartibga solinmagan muammolar ko'p bo'lganligi sababli amaldagi qonunlarga rioya qilish va ularni o'rganib borish hamda faoliyatga tadbiq etish juda sekin rivojlanyapti. Shunga bog'liq holda axborotni iste'mol qilish va foydalanishga bo'lgan talab o'smayapti.

Tarmoq tashkilotlariga nisbatan qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatida biznes muhitini takomillashtirish, tashkiliy tarqoqlikni bartaraf etish va belgilangan tartib-qoidalarga rioya etish ko'nikmalarini rivojlantirish monitoringi

<b>Nº</b>	<b>Tarmoq tashkilotlari nomi</b>	<b>Eng ko'p uchraydigan hamda alohida ahamiyatli tashkiliy tarqoqlik holatlarni qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan bartaraf etilishining taxminiy tadbirlari</b>
<b>I. Tayyorlov tashkilotlari</b>		
1.	Don (g'alla) qabul qilish korxonalarini	G'alla (don)ni belgilangan tartibda quritib, talab qilingan sifat ko'rsatkichlarga mos holda topshirish. Mahsulotni qabul qilish paytda sifati to'g'ri belgilanishida faol qatnashish, o'z huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik. E'tiroz bildirishning bosqichlariga va tartib izchilligiga rioya qilish. Mahsulot puli o'z vaqtida to'lanishini talab qilish.
2.	Paxta qabul qilish korxonalarini	Paxta xomashyosini agrotexnika qoidalari asosida, Davlat standartlari darajasida yetishtirish. Mahsulot topshirayotganda sifat va miqdorni belgilashda o'z huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik. E'tiroz bildirish zarurati tug 'ilganda, mazkur masalani nazorat qilishga mas'ul mansabdor shaxslarga va idoralarga belgilangan murojaat qilish izchilligida va tartibda munosabat bildirish. Mahsulot puli o'z vaqtida to'lanishini talab qilish.
3.	Pilla qabul qilish korxonalarini	Mahsulot topshirayotganda miqdori va sifatini to'g'ri belgilanishi choralarini ko'rish. Mahsulot puli o'z vaqtida to'lanishini talab qilish.
<b>II. Moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilar</b>		
4.	Neft maxsulotlari korxonalarini	Neft mahsulotini qabul qilib olishda o'z huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik, yetkazib berilgan mahsulotning pulini o'z vaqtida to'lash choralarini ko'rish, neft mahsulotlari maqsadsiz ishlatalishi va isrof qilinishiga yo'l qiymaslik.
5.	Mineral o'g'it yetkazib beruvchi korxonalar	Mineral o'g'it agrotexnik tadbirlar boshlanishidan oldin, o'z muddatida yetkazib berilishini talab qilish. Yetkazib berilgan o'g'itni agrotexnik muddatda ekinlarga solib o'g'itlarda samarali foydalanish. O'g'itning pulini o'z vaqtida to'lab berish.
<b>III. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar</b>		
6.	Bank muassasalarini	Bank hisob varag'i shartnomasiga ko'ra talab qilinadigan hujjatlarni to'liq taqdim qilish va olingan boshqa majburiyatlarini bajarilishini, shu jumladan, o'z vaqtida naqd pul berilishini, talab qilish. Bank majburiyatlarining bajarilmasligi xo'jalik faoliyatiga jiddiy ta'sir etganda, boy berilgan foydani hisoblab chiqish va to'lov da'vosini kiritish.

7.	Texnika xizmatlari k'rsatuvchi mashina-traktor parklari.	MTPlar bajarib berayotgan xizmattarning sifatini tekshirib qabuk qilish va ish bajarish jarayonining o'zida kamchilik va nuqsonlar tuzatib berilishini talab qilish. Xizmat ko'r-satish jadvallariga rioya qilinishini boshqa subyektlar bilan birgalikda kuzatib turish va talab qilish. E'tiroz bildirilganda subordinatsiya qoidalariiga rioya qilish. Ko'r-satilgan xizmat va bajarilgan ishga o'z vaqtida haq to'lash.
8.	Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari (SFU).	Suv munosabatlarni tartibga soluvchi, suvni bevosita yetkazib beruvchi, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari bilan shartnomaviy munosabatlarni kuchaytirish, uyush-maning badalini yoki xizmat to'lovini o'z vaqtida to'lab berish, suvdan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjat-larida belgilangan huquqlardan foydalanish va yukla-tilgan majburiyatlarni bajarish. Suvdan foydalanishning bozor prinsiplariga qat'y rioya qilish.
9.	Zooveterinariya xizmati ko'r-satish korxonalarasi.	Chorva mollarini zooveterinariya qoidalari asosida parvarish qilib chorva kasalliklari tarqalishiga yo'l qo'ymaslik.
10.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash va sotish shoxobchalari.	Kam hajmi va miqdordagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yuqori sifat bilan quyoshtirish tabiiy issiqlik manbai yordamida yetishtirishni va shunga munosib narxda ichki bozorga va eksportga chiqarishni yo'lga qo'yish, buning uchun import qiluvchilar bilan Fyuchers shartnomalari tuzishni yo'lga qo'yish va mahsulot yetishtirish texnologiyasini mukammal o'zlashtirish va takomillashtirish.
11.	Axborot ta'minoti va konsalting xizmati ko'r-satish shoxobchalari.	Xo'jalik faoliyati va shartnoma munosabatlari takomillasht-magan snaroitdag'i axborot informatsiya tizimi ma'lumotlaridan foydalanishga zarurat kamligi holatiga tanqidiy baho berib, xo'jalik faoliyatini amaldagi qonun talablariga muvofiq tashkil etish, shartnoma qatnash-chilarining qonuniy manfaatlarini hurmat qilish va shu asosda o'zi haqidagi axborot bilan tanishtirishni xo'jalik aloqalarining yangi bosqichi sifatida qarab, axborot ta'minoti va konsalting xizmatlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish.

#### IV. Boshqa tashkilotlar

12.	Tuman hokimlari.	Tuman hokimi bilan tuziladigan yerni uzoq muddatli ijara olish shartnomasiga ko'ra majburiyatlarni bajarish, huquqlari buzilmasligini talab qilish, shu jumladan, ekinlarning ixtisoslashuv, ekinlarni joriy yil uchun joylashtirish rejasи, davlat buyurtmasidan tashqari ekin ekiladigan yer maydonlarining o'lchamiga asoslanib xo'jalik moliya faoliyati ko'r-satkichlari rejalashtirilishi barbob etilmasligini talab qilish.
13.	Yer resurslari xizmati bo'limlari.	Ijaraga olingan yer maydonlarining ball-boniteti hisoni aniq belgilanishini tuman yer resurslari bo'limlardan talab qilish, paxta va g'alla hosilini yerning aniq ball-boniteti asosida belgilanishiga erishish. Shuningdek,yerdan samarali foydalanish darajasiga baho berishda ball-bonitet ko'r-satkichidan foydalanishni hamda yerning kadastr bahosi aniqlanishini talab qilish.

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasiga

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

“\_\_\_” 200\_\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Qishloqda biznes muhitni takomillashtirish. tashkiliy tarqoqlikni bartaraf etish va biznes xulqi ko'nikmalarini rivojlanтирishni uslubiy ta'minlash xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Fermer xo'jaligi bilan shartnomaviy munosabatga kirishgan tomonlar o'ttasida biznes xulqi ko'nikmalarini rivojlanтирish uchun qanday odamlarni shakllantirish zarurligini belgilash yuzasidan chora-tadbirlar loyihasi
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Hamkorlar o'ttasida biznes muhitni takomillashtirish va biznes xulqi ko'nikmalarini rivojlanтирish uchun mavjud imkoniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi.	Munosabatlar qayta belgilanayotgan vaqlarda zaruratga qarab.

«Buyurtmachi»

F.I.O. Iavozimi

**Qishloq xo'jaligi korxonalarining ichki xo'jalik majburiyatlari ijrosini ular  
tomonidan ta'minlanishini tashkillashtirish**  
**MONITORINGI**

Nº	Ichki xo'jalik majburiyatlarining asosiy ko'rinishlari va holati	Majburiyatlarning aksariyat holdagi ijro etilishi darajasi
1.	<p>Amaldagi qonunlarda va me'yoriy hujjatlarda yuridik shaxslarga qo'yiladigan talablarni bajarish.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— Ichki hisob va hujjatlashtirish tizimini belgilangan shakllarda tashkil qilish.</li> <li>— Hujjatlarni belgilangan tartibda Davlat arxiviga topshirish uchun tayyorlab borish va asosiy talablarini bajarish.</li> <li>— Kelib tushgan va bildirilgan axborot va murojaatlarga nisbatan munosabat bildirish va jamiyatda qaror topgan hamma foydalanishi mumkin bo'lgan informatsion oqimni to'ldirish.</li> </ul>	<p>Hujjatlar bilan ishlash va hisob yuritish darajasi va shakli talabga javob bermaydi.</p> <p>Arxivlashtirib borish ishlari talablariga javob bermaydi.</p> <p>Faoi munosabat bildirilmaydi, ko'pincha loqaytdlik qilinadi.</p>
2.	Qishloq xo'jalik ekinlarini parvarish-lashning agrotexnikasiga rioya qilish uchun agrotexnologik kartalardan foydalanish.	Texnologik karta tuzib, undan foydalanish yo lga qo'yilmagan.
3.	Mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan xodimlarning ish sharoiti va daromadi munosib hayot kechirishni ta'minlaydigan darajada bo'lishini ta'minlash.	Yollanib ishlovchilarning pul daromadi juda past darajada, naturada bug'doy bilan ta'minlash hisob-kitobining aniqlik darajasi juda ishonchsiz.

## **15. Fermer xo‘jaliklarida mamlakat agrar siyosatini o‘tkazishda axborot almashinuviga ta’minotini faollashtirishga uslubiy ko‘maklashish xizmatlari**

the first time, and the first time I have seen it. It is a very large tree, and has a very large trunk. The bark is rough and textured, and the leaves are large and green. The tree is located in a park, and there are other trees and bushes around it. The sky is clear and blue, and the sun is shining brightly. The overall atmosphere is peaceful and serene.

Quyida qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish va barqaror rivojlantirishga qaratilgan mamlakatning yagona agrotexnika siyosatini o'tkazishga munosib yondashuvni ishlab chiqish yuzasidan takliflar beriladi. Fermer xo'jaliklarining yuridik mustaqilligi sharoitida hudud boshqaruvining samaradorligini bozor mexanizmlari orqali kuchaytirish yuzasidan takliflar asoslab beriladi.

Qishloq va suv xo'jaligi tizimiga qishloq xo'jahigi mahsulotlari yetishtirish agrotexnikasiga oid tezkor ma'lumotlarni uzatish va toplash jarayoniga ixtisoslashtirilgan tuzilma orqali xizmat ko'rsatish uslubi yoritib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003- yil 24- martdagи «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni qishloq xo'jaligida mamlakat agrar siyosatining yangi davrini boshlab berdi. Farmonda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarni takomillashtirish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini boshqarishning bozor tamoyillariga mos keladigan tashkiliy tuzilmasini tadbiq etish, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining mustaqilligini kengaytirish hamda ularning ishonchli huquqiy muhofazasini ta'minlash maqsad qilib qo'yildi.

Natijada Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 28- iyundagi 290-sonli «O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarori, 2003- yil 4- sentabrdagi 383- sonli «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar ijrosi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 2003- yil 30- oktabrdagi 476- sonli «2004—2006- yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari qabul qilinib, yuqorida Farmonda belgilangan muhim yo'nalishlar ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur farmon va qabul qilinagan qarorlar ijrosini ta'minlash uchun iqtisodiy islohotlarni

chuqurlashtirishni tashkil etishni metodik-uslubiy asoslash hamda tizimdag'i iqtisodiy islohotlarning me'yoriy metodik bazasini takomillashtirish maqsadida fermer xo'jaliklarida mamlakat agrar siyosatini o'tkazishda axborot almashinuvi ta'minotini faollashitirishga uslubiy ko'maklashish xizmatlari ishlab chiqilgan.

Shu maqsadda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimiga qishloq xo'jaligi agrotexnikasi va mahsulot yetishtirishga oid tezkor ma'lumotlarni uzatish va toplash jarayoniga ixtisoslashtirilgan tuzilma orqali xizmat ko'rsatish taklifi ishlab chiqildi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z xo'jalik faoliyatini haqidagi tijorat siri huquqi va ayni vaqtda «Axborot olish kafolatlari to'g'risida»gi hamda «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Shirkat xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlarning talablariga muvofiq bunday axborotni berish majburiyati nuqtai nazaridan yangicha yondashuv kashf qilindi.

Ushbu yo'nalishda axborot olish manbalari, axborot uzatuvchilar, axborot beruvchi va iste'mol qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda axborot xizmatlari ko'rsatuvchilar hamkorligi chizmalari tayyorlandi. Ushbu jarayon, shubhasiz, qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini boshqarishning amaldagi tashkiliy tuzilmasi faoliyatini tartibga solish, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining mustaqilligini amalda ta'minlash va huquqiy himoya qilishni tashkillashtirish mexanizmiga aniqlik kiritish takliflari bilan birgalikda yuz beradi. Faqat qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining manfaatlari ustuvor hisobga olingan, moliyalashtirish manbalari ham bevosita manfaatdor xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ta'minlanadigan hamda ko'rsatiladigan xizmatlar sertifikatlanadigan yoki mas'ul nazorat organlarining ko'rigidan o'tkazilgan, sifati kafolatlangan xizmatlar taklif etiladi.

Ushbu maqsadlar quyidagi uslubda ifodalananadi:

- qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish va barqaror rivojlanishiga qaratilgan mamlakat yagona agrotexnika siyosatini o'tkazishga yagona yondashuvni ishlab chiqish yuzasidan takliflar;
- agrotexnika siyosatini o'tkazuvchilarni qismlarga ajratish;
- agrotexnologik davrlarga ajratish;
- ma'lum belgilarga ko'ra bosqichlarga bo'lib chiqish;
- tadbirlar ketma-ketligini tuzish;
- har bir texnologik davr bo'yicha agrar siyosat o'tkazilganligi hisobotini tuzish.

Faollashtirish yo'llarining tuzilishi.

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimiga axborot almashinuvi ta'minotini faollashtirish.

2. Viloyatlar Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari tizimiga axborot almashinuvi ta'minotini faollashtirish.

3. Tumanlar qishloq va suv xo'jaligi bo'llimlari va qishloq hududlari tizimiga axborot almashinuvi ta'minotini faollash-tirish.

Har bir qism bir xil nomdag'i agrotexnologik karta davrlari nom-lariga mos 4 ta davrga bo'linadi.

1. Ekishgacha bo'lgan davr.

2. Ekish davri.

3. Parvarish davri.

4. Yig'im-terim davri.

Har bir davr bir xil nomdag'i 3 ta bosqichdan tashkil topadi.

1. Agrar siyosatni o'tkazish tadbirlarini ishlab chiqish va muam-molar mundarijasini tuzish bosqichi.

2. Qishloq xo'jaligi muammolari yechimini tanlash va ijrosini tashkillashtirish bosqichi.

3. Ijroni nazorat qilish va hisobot tuzish bosqichi.

Har bir bosqich tarkibida shartli ravishda keltirilgan, qayta aniqlik kiritiladigan 8 tadan qishloq xo'jalik ishlariga oid mavzular o'rinni olgan bo'lib, ular ham, o'z navbatida, kichik guruhlardan tashkil topadi. Tahlil qilinayotgan davrning eng oxirgi bosqichdagi so'nggi 9- mavzusi mazkur davrda mamlakat agrar siyosatining o'tkazilishi haqidagi hisobotdir. Hisobot ma'lumotlari ushbu davrdagi amalga oshirilgan ishlarga xulosa yasaydi, unga tegishli baho beradi.

Har bir qism uchun 100 tadan jami 300 ta ilova qilinishi ko'zda tutilgan monitoring jadvallari shakllari loyihalari taklif qilinadi va axborotning dolzarbligiga qarab o'zgarib turadi.

Agrar siyosatni o'tkazish jarayoni mavzulari 3 bosqich orqali o'tadi, ya'ni birinchi bosqichda mavzu muammo sifatida qo'yiladi, ikkinchi bosqichda bu muammoning yechimi tanlanadi va ijrosi tashkillashtiriladi, uchinchi bosqichda ijrosi nazorat qilinadi va hisoboti tuziladi.

Agrar siyosatni o'tkazish tadbirlarini ishlab chiqish va muam-molar mundarijasini tuzish bosqichi asosan 8 ta mavzudan iborat. Ushbu mavzular qamrovi jihatidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilish masalalarini deyarli to'liq qamrab oladi va bir yaxlit majmuani tashkil qiladi. Keltirilgan mavzular ham, o'z

navbatida, mavzuni kengroq yoritishga xizmat qiladigan kichik mavzulardan tashkil topadi. O'ziga xos xususiyati ushbu mavzular nomlari bo'yicha keyingi bosqichlarda, ya'ni qishloq xo'jaligi muammolari yechimini tanlash va ijrosini tashkillashtirish bosqichi hamda ijroni nazorat qilish va hisobot tuzish bosqichlarida ham ifodalanadi. Eng ahamiyatli tomoni shundaki, mavzularda ifodalangan muammolar bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tganida mazmunan o'zgaradi, shu bilan birga olib borilayotgan jarayonga to'liq ta'rif beradi va, nihoyat, barcha jarayonlar o'tkazilgan agrar siyosat to'g'risidagi hisobotda o'zining yakuniy ifodasini topadi.

Axborot resurslarini tashkil qilish har bir bosqichda, har bir mavzu bo'yicha kelishilgan va maqsadga muvofiq deb belgilangan shakllarda amalga oshiriladi. Bunda axborotni taqdim etish mas'uliyati manfaatdor tomonga yuklatiladi, shu bilan birga uni yig'ishni taqdim etuvchiga qulay bo'lgan holatda amalga oshirishga imkoniyat yaratiladi.

Mamlakatda yagona agrar siyosatni o'tkazishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilish uchun yagona metodologik muntazam yondashuv asoslari aks ettirilgan qo'llanma zarur edi. Mazkur qo'llanmada Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 28- iyundagi 290- sonli «O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarorini amalga oshirish va axborot almashinuvi tamoyillari va vazifalari ochib berilgan. Agrotexnologik karta nomlariga mos davrlar va bosqichlar qo'llanmadan foydalanishda qulaylik tug'dirishi bilan birga har bir davrga muxtasar xulosa yasaydi.




Qo'llanmadan foydalanishni yo'lga qo'yish oqibatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishi jadallahashi. Asosiy mezon bo'lib agrar siyosat o'tkazilishida ishtiroy etuvchilar o'zi haqidagi axborotni xolisona taqdim etishi bo'lib qolaveradi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zları haqidagi ma'lumotni uzatar ekanlar, o'zlariga nisbatan agrar siyosatning samarali o'tkazilishi uchun qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydigan axborotni bergenliklariga umid qila oladilar. O'zi haqidagi axborotni taqdim etmaslik, o'ziga nisbatan qabul qilinadigan qarorlarning ahamiyatini yo'qqa chiqarish va, binobarin, zarar ko'rish xatarini paydo qilish hoiatini keltirib chiqarishi mumkin.

Mazkur qo'llanmaning afzallikkari quyidagicha:


- agrar siyosatni o'tkazishga yagona izchil yondashuvni ishlab chiqish ko'zda tutiladi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy va istiqbol prognozlarini ishlab chiqishga xizmat qiladigan axborot bazasi yaratiladi;
- agrar siyosat ishtirokchilarining faoliyatiga baho berish imkoniyati yaratiladi, shu jumladan:
  - a) mahsulot ishlab chiqaruvchilar bo'yicha;
  - b) xizmat ko'rsatuvchilar va boshqalar bo'yicha;
- olib borilayotgan islohotlarni kuzatib borish va baholash mexanizmlari monitoringi tizimi yaratiladi;
- axborot almashinuvi yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vositasida ixtisoslashgan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ushbu tashkilot berilgan ma'lumotni yig'ib uzatadi va qanday holatda bo'lishi lozimligiga aniqlik kiritmaydi. Natijada axborot mazmunan xolis va to'g'ri bo'ladi;
- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini puxta himoya qilishga qaratilgan huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi.

Axborot resurslari ayirboshlanishiga xizmat ko'rsatish majburiyatini olgan tashkilot bunday axborotni yig'ish va uzatish jarayonida boshidan oxirigacha to'liq ishtirok etadi.

«Qishloq xo'jaligida mamlakat Agrar siyosatini o'tkazish va qishloq xo'jaligi boshqaruvini tizimini takomillashtirish jarayonida axborot almashinuvi ta'minotini faollashtirish yo'llari»ning tarkibiy qismlari.



**«Qishloq xo'jaligida mamlakat yagona Agrar siyosatini o'tkazish va qishloq xo'jaligi boshqaruvi tizimini takomillashtirish jarayonida axborot almashinuviga ta'minotini faollashtirish yo'llari» chizmasi**



**Tasnifi:**

1. Qishloq xo'jalik korxonalarida axborot manbalarining paydo bo'lishi va «Guliston Agrokonsalting» qayta ishlanishi.
- 2—9. Axborot ma'lumotlarining jamlanishi va uzatilishi.

**Agrotexnika siyosatini  
o'tkazish tadbirlarini  
bajarishni  
tashkillashtirish  
mavzulari.**

Qishloq xo'jalik mahsulotlari  
yetishtirishni tashkillashtirish  
monitoringi.

Chorvachilik, parrandachilik va  
baliqchilikni rivojlantirish  
monitoringi.

Sabzavot-polizchilikni,  
bog'dorchilikni rivojlantirish  
va qishloq xo'jalik mahsulotlarini  
qayta ishslash monitoringi.

Qishloqda infratuzilmalar  
barqaror yuritilishini  
ta'minlash monitoringi.

Yer-suv xo'jaligini rivojlantirish  
monitoringi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining  
huquqlarini himoya  
qilishni tashkillashtirish  
monitoringi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining  
majburiyatlari bajarilishi  
monitoringi.

Moliyalashtirish manbalari  
to'g'ri tashkil etilishi  
monitoringi.

Agrar siyosat natijalari  
hisoboti.

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasi

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

«\_\_» 200\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Fermer xo'jaliklarida mamlakat Agrar siyosatini o'tkazishda axborot almashinushi ta'minotini faollashtirishga uslubiy ko'maklashish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Mamlakat Agrar siyosatining mazmuni, axborot almashinushi mazmuni va axborot almashinushi ta'minotini faollashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar loyihasi.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Axborot jo'natish va axborot qabul qilish tizimiga qo'shilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidagi bog'lanish davriyligi.	Axborotlashtirish tizimi to'liq ishga tushib ketishi jarayonida zaruratga qarab.
5.	

«Buyurtnachi»

F.I.O. lavozimi

---

**16. Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlarini  
parvarishlash va mahsulot yetishtirish  
bo‘yicha agrotexnika talablari bajarilishi  
yuzasidan agrotexnologik davrlarga mos  
muvofiglashtirish doimiy monitoring jadvali  
dinamikasini tuzib borilishiga ko‘maklashish  
va ma’lumotlarni manfaatdor  
manzillarga uzatish xizmatlari**

---

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘zлari haqidagi ma’lumotni uzatar ekanlar, o‘zлariga nisbatan agrar siyosatning samarali o‘tkazilishi uchun qarorlar qabul qilinishini ta’minlaydigan axborotni bergenlik-lariga umid qila oladilar.

O‘zi haqidagi axborotni fermerning taqdim etmasligi uning o‘ziga nisbatan qabul qilinadigan qarorlarning ahamiyatini yo‘qqa chiqarishi mumkinligi asoslab beriladi.

Shu o‘rinda monitoring jadvali shaklidan foydalanish fermer xo‘jaliklari uchun agrotexnika talablarini bajarishni tashkil qilishga nisbatan o‘zining aniq hisob-kitobini va munosabatini ishlab chiqishga yordam berishi, xizmat ko‘rsatuvchiga esa o‘z xizmatini taklif qilish imkoniyatini yaratishi ko‘rsatib beriladi.

Mazkur monitoring jadvali asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo‘yicha agrotexnika talablari texnologik kartasi tuzilib tasdiqlanganidan so‘ng tashkil qilinadi. Har bir hudud va joriy yilning iqlim sharoitlari, yog‘ingarchilik va havo harorati, foydali temperatura yig‘indisi hisobga olinib tuzilgan texnologik kartada qayd qilingan ish turlari monitoring jadvalini tuzish uchun asos bo‘ladi. Agrotexnologik davrlarga mos tuzilgan agrotexnika talablari texnologik kartasi asosida har bir davrda kuzgi-qishki tadbirlardan tortib to yig‘interim mavsumi oxirigacha belgilangan ishlar bajarilishi monitoringi olib boriladi.

Monitoring jadvali 15 ta ustunda qayd qilingan agrotexnika talablari bajarilishi jarayoni ifodalishidan iborat. Shu jumladan, birinchi ustun agrotexnika talablarini ro‘yxat bo‘yicha ifodalashi bilan birga, bajariladigan ishlarning ma’lum izchillikdagi tartibini aks ettiradi. Ikkinci ustunda agrotexnika qoidalari bo‘yicha ish turlari beriladi. Uchinchi, o‘n beshinchi ustunlarda agrotexnika talablari bajarilish jarayoni o‘zgarishlari aniqlik kiritishlar bilan birga yuz bergenligi ifodalanadi. Chunonchi, agrotexnika talablarini bajarish muddatlarining boshlanish va tugatiladigan sanalari ikki

varlantida, ya in namunaviy texnologik karta bo'yicha qaysiki nuditda sharoitlari hisobga olingan holatda, shu bilan birga manfaatdor shaxsnинг ichki imkoniyatlарини hisobga olingan holatda beriladi. Bu aniq hisob-kitob va mo'ljalni talab qiladi.

Natijada agrotexnika talablarini bajarish imkoniyatlari hisob-kitobini aniqlash mumkin bo'ladi. Unga ko'ra agrotexnika talabi bajarilishi shart bo'lgan qat'iy belgilangan qoida bo'lib qolaveradi. Hisob-kitoblarda esa agrotexnika talabini subyekt o'zining ichki imkoniyatlari hisobidan yoki chetdan jalb qilinadigan imkoniyatlari hisobidan bajarishni mo'ljallayotgani alohida-alohida ko'rindi. Natijada manfaatdor subyekt mo'ljaldagi chetdan jalb qilinadigan imkoniyatlarni izlab topishi kerak. Shartnomaga asosida ishchi kuchlari va texnika vositalarini jalb qilishi lozim. Aks holda agrotexnika talabi bajarilmasdan qoladi va bu muqarrar ravishda olinadigan hosilni va daromadni kamaytiradi.

Jadvalning 11- ustuni agrotexnika talablarining haqiqatda bajarilgan sanasini yoki davr vaqtini ifodalaydi. Ushbu ustun ma'lumotlari asosida agrotexnika talablari bajarilishining monitoring yakunlarini chiqarish mumkin bo'ladi. Unga ko'ra aniq sanalar bo'yicha tahlil natijasi namunaviy talabga nisbatan ham, xo'jalik yurituvchi subyektning o'z rejasiga nisbatan ham chiqarilib agrotexnika talablari o'z muddatida oldin bajarilganligi (ushbu holat yana qo'shimcha baholanadi) yoki kechikib bajarilganligiga baho beriladi va kelib chiqadigan oqibatlar-bashorat qilinadi.

Qisqa qilib aytganda, taklif qilingan monitoring jadvali shaklidan foydalanish fermer xo'jaliklari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun agrotexnika talablarini bajarishni tashkil qilishga nisbatan o'zining aniq hisob-kitobini va munosabatini ishlab chiqishga yordam beradi. Ushbu ma'lumotlarni maxsus axborot bazasiga kiritish esa hudud manzarasini ifodalaydi.

Monitoring jadvalining yana bir ahamiyati tomoni shundaki, basharti, qishloq xo'jaligi korxonalarini ushbu jadval shaklidan foydalanishni lozim ko'rsalar, u holda qishloq hududlari bo'yicha fermer xo'jaliklari kesimida agrotexnika talablarini bajarishni tashkil qilishga nisbatan aniq hisob-kitob paydo bo'ladi va hududdagi haqiqiy holatga baho berish mumkin bo'ladi.

Bunday axborot, birinchi navbatda, mahalliy hokimiyatlari uchun ham qiziqarli, chunki shu kabi ma'lumotlar hozirgi kunda birinchi manbadan emas, balki taxminiy manbalarga tayanilgan

u haqidagi axborot, albatta, u bilan kelishilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Bunday axborot xizmat ko'rsatuvchilar uchun ham kerak, chunki ular o'z xizmatlarini taklif qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Nihoyat bunday axborot Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi uchun ham kerak, vazirlikka mamlakat Agrar siyosatini o'tkazish va qishloq xo'jaligiga aloqador tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun birinchi manbadan olingan ishonchli axborot zarur.

«Guliston Agrokonsalting» korxonasi manfaatdor qishloq xo'jalik korxonalariga ularning muammolarini tashkil qiluvchi axborotlarni aniqlash va yig'ish xizmatlarini taklif qilish bilan xizmat ko'rsatishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Aslini olganda bu xizmatlar viloyat bo'yicha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishning borishi to'g'risidagi axborot bazasini tashkillashtirishning bir ko'rinishi bo'lib, quyidagi uslubda tashkil qilinadi.

«Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasining informatsiya uzatish tizimini barpo qilish va viloyat bo'yicha qishloq xo'jaligi axborotlari bankini yaratish hamda doimiy yangilab turish mexanizmi quyidagilar:

1. Kirish. Mexanizm mazmuni. Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar fermer xo'jaliklari va boshqa tashkilotlar tomonidan uzatiladigan qishloq xo'jalik ishlaringning borishi va holati to'g'risidagi doimiy yangilanib turiladigan axborotlar. Ushbu axborotlar kunlik tezkor ma'lumot sifatida birinchi manbadan uzatiladi.

2. Mexanizmni joriy qilish shart-sharoitlari. Informatsiya uzatish quyidan yuqoriga tashkil etiladi va, aksincha, quyida joylashgan subyektlar ham zarur informatsiyani talab qilib oladilar. Informatsiyani uzatish negizi ixtiyorilik asosida birdamlik tamoyiliga rivoja qilgan holda tashkil etiladi.

3. Texnologik kartadagi qishloq xo'jalik ishlari ketma-ketligi sharoitida axborot uzatish tizimi, axborot bazasining mazmuni.

Axborot uzatish tizimi: 1) viloyat bazasi; 2) tumanlar bazasi; 3) qishloq hududi bazasi; 4) fermer xo'jaligi; 5) boshqa qishloq xo'jalik korxonasidan iborat.

4. Mexanizm ishtirokchilar: «Guliston Agrokonsalting» korxonasining viloyat, tuman va qishloq hududidagi informatsiya bazalari, fermer xo'jaliklari, boshqa qishloq xo'jalik korxonalari, shuningdek, viloyat hayotiga oid informatsiyani joylashtirgan subyektlar.

3. Informatsiyaga egark qilish, undan foydalanshi. Infor  
matsiyadan erkin foydalaniadi, qonun hujjatlarida belgilanganidan  
boshqa cheklashlar joriy qilinmaydi. Tijorat sirini tashkil qiluvchi  
informatsiyalar berilmaydi.

6. Mexanizmni yo'lga qo'yish samaradorligini oshirish. Axborot  
bazasi samarali bo'lishi uchun informatsiya manbaini tashkil etuvchi  
subyektlarning birdamliqi zarur. Aks holda axborot to'liq manzarani  
aks ettirmaydi, binobarin, yaroqsiz hisoblanadi. Axborot olish  
erkinligi to'g'risidagi qonun, boshqa qonunosti hujjatlariga rioya  
qilgan holda informatsiyalar ishonchli tarzda uzatilishi, to'planishi  
va foydalanimishi kerak.

7. Informatsiyaning ishonchlilik kafolati birinchi manbada turgan  
subyektlarning javobgarligi bilan belgilanadi. Informatsiya yig'uvchi  
ma'lumotlarning to'g'ri jamlanganligi, guruhlanganligi to'g'ri tahlil  
qilinganligi uchun mas'uldir.

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

«\_\_\_» 200\_\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Asosiyqishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha agrotexnika talablari bajarilishi yuzasidan agrotexnologik davrlarga mos muvofiqlashtirish doimiy monitoring jadvali dinamikasini tuzib borilishiga ko'maklashish va ma'lumotlarni manfaatdor manzillarga uzatish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Agrotexnika talablari bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring jadvali dinamikasini tuzib borilishini tashkillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar loyihasi.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun berliadigan hujjatlar ro yxati.	Doimiy monitoring jadvali dinamikasini tuzib borish bilan bog'liq ma'lumotlar.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi.	Zaruratga qarab kelishilgan vaqtarda.
5.	

«Buyurtmachi»

F.I.O. lavozimi

---

---

**17. Fermer xo‘jaligida mehnat munosabatlarini  
to‘g‘ri tashkil etish va xodimlar daromadini  
qonuniy shakllantirishda fermer xo‘jaligi  
boshlig‘ining mas’uliyatini ta’minlashga  
ko‘maklashish xizmatlari**

---

---

Quyida fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etishning ahamiyati, xodimlar mehnat faoliyati hisobini to'g'ri olib borish va buning natijasida xodimlarning daromadini qonuniy shakllantirishning mohiyati ochib beriladi. Fermer xo'jaliklarida qonun ta'lablariiga zid ravishda mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etmaslik, xodimlarning mehnat faoliyati hisobini belgilangan tartibda olib bormaslik va xodimlarning daromadlarini qonuniy shakllantirmaslik oqibatlari haqida fikr yuritiladi.

«Fermer xo'jaliklari to'g'risida»gi qonunning «Fermer xo'jaliklari majburiyatları» nomli 17- moddasida, fermer xo'jaligi o'z xodimlari uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashi shartligi qayd etilgan. Ushbu qonunning 23- moddasi quyidagi tahrirda bayon etilgan: «Fermer xo'jaligidagi mehnat», «Fermer xo'jaligi (ish beruvchi) va uning xodimlari o'rtaсидаги mehnatga oid munosabatlar qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi (kontrakti) bilan tartibga solinadi. Fermer xo'jaligidagi ish tartibi xo'jalik boshlig'i tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Fermer xo'jaligi xodimlarining mehnat faoliyati hisobini olib borish xo'jalik boshlig'i tomonidan tashkil etiladi. Fermer xo'jaligi xodimlarining mehnatga haq to'lash taraflarining kelishuviga ko'ra pul hamda natura tarzida, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'yimagan miqdorda belgilanadi. Fermer xo'jaligining boshlig'i va xodimlari davlat ijtimoiy sug'urtasidan o'tkaziladi. Ularga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va pensiyalar tayinlash hamda to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi». Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etmaslik, xodimlar mehnat faoliyati hisobini olib bormaslik va ularning daromadlarini qonuniy shakllantirmaslik quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

– ish beruvchining xo'jalikda qancha ishchi kuchi ishlashi belgilab qo'yilmaganligi, shtat jadvalini tasdiqlash yo'li bilan tartibga solib qo'yaganligi, ushbu holat ko'pchilik fermer xo'jaliklarida

ham mavjudligi, ishchi kuchini taklif etgan ish oluvchilarning kamsitilgan shartlarda ish olishlariga hamda ularning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan qonunbuzarlik ko'rinishlariga olib kelmoqda:

– ish oluvchilarning vakillik organi yoki kasaba uyushimasi qo'mitasi;

– fermer xo'jaliklari xodimlari bilan mehnat shartnomalari to'liq tuzilmagan, ko'p hollarda xodim doimiy ishga qabul qilinganmi yoki mavsumiy ishga qabul qilinganmi aniq belgilab qo'yilmagan;

– xo'jalikda ishlovchilarga xavfsiz mehnat shartlarini ta'minlash yuzasidan xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirilmagan;

– ish haqini va natura to'lovlарini belgilangan tartibda hisoblash daromad solig'i va byudjetdan tashqari jamg'armalarga o'tkazilishi lozim bo'lган va haqiqatda o'tkazilgan mablag' hisob-kitobiga anqlik kiritishni talab qiladi;

– mehnat daftarchalarini ochish va rasmiylashtirish qoidalariiga hamda mehnat ta'tili berish qoidalariغا e'tibor berilmayapti.

Yuqorida qayd qilingan holatlar ish oluvchilarning manfaatiga zid bo'lган, pirovardida ish beruvchiga ham foydali bo'lмаган holatlarni keltirib chiqarmoqda.

– fermer xo'jaliklarda jaimoa shartnomasi tuzish yo'lga qo'yilmaganligi natijasida xo'jalik xodimlari huquqlarini birlamchi darajada ijtimoiy himoya shartlarining muhofazasi ish vaqtida sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalarda ijtimoiy kafolatlarning belgilanmasdan qolishini keltirib chiqaradi;

– ish beruvchi tomonidan shtat jadvali tuzilmasligi yoki qancha ishchi kuchi ishlashligi belgilab qo'yilmaganligi xo'jalikda mehnat taqsimoti va mehnatni tashkil qilishda noaniqliklarni keltirib chiqaradi;

– mehnat shartnomalarining tuzilmaganligi ish beruvchi hamda ish oluvchilarga o'z huquqlaridan foydalanishni va majburiyatlarining ijrosini aniqlab munosabatlarga anqlik kiritishni qiyinlashtiradi;

– xo'jalik xodimlariga mehnat daftarchalari ochilmaganligi, mehnat daftarchalariga yozuvlari o'z vaqtida rasmiylashtirilmamasligi, xo'jalikka ishga qabul qilish va bo'shatishda buyruq yoki qaroq chiqarmasligi mehnat Kodeksida belgilangan kafolatlardan foydalinish huquqini noaniq qilib qo'yadi;

– ish haqi va natura to'lovlарini hamda soliq inspeksiyasiga to'lanadigan mablag'larning aniq mezon bilan to'lovlari amalga oshirilmasligi ish oluvchilarning daromad miqdorini noaniq qilib qo'yadi va bu salbiy oqibatlarga sabab bo'ladi.

«Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va xodimlar daromadini qonuniy shakllantirishda fermer xo'jaligi boshlig'ining mas'uliyatini ta'minlashga ko'maklashish xizmatlari» 3 bosqichda olib boriladi:

Birinchi bosqich mazkur nomdagi kitobchani yetkazib berishdan iborat bo'ladi.

Ikkinci bosqichda qo'shimcha axborot va maslahat xizmatlari hamda zarur adabiyotlarni yetkazib berish bilan davom ettiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga O'zbekiston Respublikasi mehnat Kodeksi va boshqa mehnat munosabatlarini tartibga soladigan me'yoriy hujatlardan ko'chirma va nuxsalar bo'lishi mumkin.

Uchinchi bosqichda fermer xo'jaligining buyurtmasida ifoda-langan holatlar tahlil qilinadi. Bunda fermer xo'jaliklarida mehnat imunosabatlarining shakllantirilishi ishlayotgan xodimlarning ijtimoiy himoyalanganliklari, fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan mehnat majburiyatlarining bajarilishi, ish oluvchilarining mehnat majbu-riyatlarining bajarilishi hisobini yuritganliklari, shuningdek, «Fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda ichki monitoringni yuritish kitobi»dan foydalanishini tavsiya etadi.

Fermer xo'jaliklarida mehnat munosabatlari O'zbekiston Respublikasi «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni, mehnat Kodeksi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonun va boshqa me'yoriy hujatlar bilan tartibga solinadi.

Fermer xo'jaliklari xususiy mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyekt — ish beruvchi sifatida, fermer xo'jaligidagi mehnat munosabatlarini qonun doirasida tuzilgan mehnat shartnomalari asosida tashkil etishlari lozim. Qonun doirasida tuzilib ish beruvchi va ish oluvchining huquq hamda majburiyatlar barcha oqibatlari bilan to'g'ri belgilangan mehnat shartnomalaridan foydalanilganda ish beruvchining ham, ish oluvchining ham qonuniy manfaatlari himoya qilinishi ta'minlanadi.

**Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani bo'yicha 2006- yil g'alla va paxta yetishtirishda sarflanadigan xarajat va daromad to'g'risidagi tahminiy hisob-kitobi**

№	Ko'rsatkichlar	O'Ichov birligi	G'alla		Paxta	
			1 ga uchun surf me'yori	viloyat bo'yicha 85000 ga	1 ga uchun surf me'yori	viloyat bo'yicha 115300 ga
1	Ekin maydon	ga		8834		13777
	Hosildorlik	s/ga		42		26,85
	Yalpi hosil	tn		37102		37000
2	Xarajat turlari					
	sh.j. 1) Mehnat sarfi	k/soat	152,9	1350,7	602,1	8295,1
	2) Mehnat haqi qo'l. b-n	so'm	50053	442168,2	255164	3515394,4
	3) Urug'lik miqdori	kg	250	2208,5	50	6888,5
	summasi	so'm	58250	514580,5	19200	264518,4
	4) YoMM miqdori	kg	194	1713,8	297	4091,8
	summasi	so'm	40770	360162,2	62415	859891,5
	5) O'git miqdori	kg	370	3268,6	400	5510,8
	summasi	so'm	175687	1552019	194208	2675603,6
	6) Asosiy vositalar	so'm	3035	26811,2	5192	71530,2
	7) Ish va xizmatlar	so'm	76793	678389,4	52887	728624,2
	8) Sug'urta to'lovi	so'm	123841	109400,3	25487	351134,4
	9) Umumiy ishlab chiqarish va xo'jalik xarajatlari	so'm	12077	106688,2	51033	703081,6
	10) Boshqa xarajatlар	so'm	4831	42677	20413	281229,9
	II) Joriy ta'mirlash		4308	38056,9	4390	60481
	Jami xarajatlар		438188	3870953,4	690389	9511489,2
	1 tonna mahsulotning tannarxi	so'm	104330	104332	257128	257067

Sotilgan mahsulot miqdori		4,2	37102	2,685	37000
summasi	so'm	445200	3932812	859200	11840000
1 tonnaning sotish bahosi	so'm	106000	106000	320000	320000
Foyda va zarar	so'm	.+7012	.+61858,6	+168811	.+2328510,8
Rentabellik	%	.+1,6	.+1,6	.Q24,4	.+24,48

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasiga

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

“\_\_\_” \_\_\_\_ 200\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va xodimlar daromadini qonuniy shakllantirishda fermer xo'jaligi boshlig'ining mas'uliyatini ta'minlashga ko'maklashish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlар.	Mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etish uchun kerak bo'ladigan hujjatlarning namunavii yechimlari.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Xodimlar ro'yxati, xodimlar haqidagi ma'lumotlar, xodimlarga taqsimlangan ish vazifalariga asosan belgilangan ish haqi miqdorlari haqida ma'lumot.
4. Boshqa holatlар: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyiliги.	Mehnat shartnomasidagi shartlar va ushbu shartlarni bajarilishi darajasini belgilaydigan mezonlar.
5.	Muammo yechilganiga qadar har haftada.

«Buyurtmachi»

F.I.O. lavozimi

---

**18. Qonun hujjatlarida fermer xo‘jaliklariga  
berilgan huquqlardan foydalanmaslik va  
yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik  
oqibatlari to‘g‘risida qiyosiy tahlil  
ma’lumotlari bilan ta’minlab borish  
xizmatlari**

---

Quyida qonun hujjatlarida fermer xo'jaliklariga berilgan huquqlardan fermer xo'jaliklari boshliqlarining foydalanmasliklari, yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni misolida ko'rsatib beriladi. Fermer xo'jaliklarining talabiga ko'ra qonun hujjatlarini o'rghanishni tashkil qilish va qonun hujjatlari talablarini bajarmaslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil ma'lumotlari bilan ta'minlab borish hamda konkret misollar yordamida sharhlab berish ko'zda tutiladi.

Fermer xo'jaliklarining tashkiliy-huquqiy shakli, huquqlari va majburiyatlar qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan.

Bunday hujjatlar sirasiga O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni, yer Kodeksi, shuningdek, fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan fermer xo'jaligi Ustavi kiradi. Fermer xo'jaligi tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish bilan shug'ullanar ekan, ularga muayyan huquqlar, erkinliklar imtiyozlar berilishi bilan birga ularning zimmasiga shunga mutanosib majburiyatlar ham yuklanadi. Majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektlar bajarishi majburligi darajasida belgilangan burch bo'lib, muayyan mas'uliyat (javobgarlik)ni qo'llashni nazarda tutadi. Burchni bajarishga imkoniyat sifatida huquqlar belgilanadi. Huquqlardan samarali va o'z o'rnila foydalanish majburiyatlarni bajarishga imkon beradi. Shu sababli belgilangan huquqlardan foydalanmaslik, bunday huquqlar mavjudligini bilish yoki bilmasslikdan qat'iy nazar, berilgan erkinlik yoki imtiyozdan foydalanishdan ixtiyoriy ravishda voz kechish, majburiyatni bajarish mas'uliyatidan ozod etmaydi. Subyekt uchun belgilangan huquqlar, erkinliklar imtiyozlardan foydalanmaganlik uchun javobgarlik belgilanmagan, lekin majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik mas'uliyati saqlanib qoladi.

«Qonun hujjatlarida fermer xo'jaliklariga berilgan huquqlardan foydalanmaslik va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil ma'lumotlari bilan ta'minlab borish xizmatlari» 3 bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqich mazkur nomdag'i kitobchani ilovasi bilan birlgilikda yetkazib berishdan iborat.

Ikkinci bosqich qo'shimcha axborot va maslahat xizmatlari hamda zarur adabiyotlarni yetkazib berish bilan davom ettiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga iqtisodiy islohotlar chuqurlashuvi natijasida fermer xo'jaliklari bevosita to'qnash kelayotgan muammolar yechimi yuzasidan eng dolzarb bo'lgan qiyosiy tahlillar keltiriladi.

Uchinchi bosqichda fermer xo'jaligining buyurtmasida ifodalan-gan, fermer xo'jaligini bevosita qiziqtiradigan qonun hujjatlari talablarini amaliyotda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan holatlarni qiyosiy tahlillash namunalari keltiriladi.

Xulosa o'rnilida ta'kidlash o'rinniki, qonun hujjatlarini qo'llamaslik oqibatlari aslida juda ko'p. Bular konkret holatlar va sabablarga ko'ra turlichadir.

Ushbu kitobchaga ilova qilingan qiyosiy tahlil muallifning shaxsiy fikri bo'lib, rasmiy nashrlarning fikriga mos kelmasligi mumkin.

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasi

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

“\_\_” 200\_\_- yil

1. Xizmat turlari.	Qonun hujjalarda fermer xo'jaliklariga berilgan huquqlardan foydalanmaslik va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil ma'lumotlari bilan ta'minlab borish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Qonun hujjalarda fermer xo'jaliklariga berilgan huquqlardan foydalanmaslik va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik oqiballarini fermer xo'jaligi manfaatlariga mos bo'lishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar loyihasi.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjalar ro'yxati.	Berilgan huquqlardan foydalanmaslik va majburiyatlarni bajarmaslik yuzasidan mavjud holatlar haqidagi ma'lumotlar.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi.	Zaruratga qarab belgilangan vaqtarda.
5.	

«Buyurtmachi

F.I.O. lavozimi

---

## **19. Fermer xo‘jaliklarida ichki hujjatlarni tuzish, yuritish va arxivlashtirib tayyorlab borishga ko‘maklashish xizmatlari**

---

Quyida ichki hujjatlarni yuritishga doir konsalting xizmati haqida gap ketadi. Fermer xo'jaliklarida ichki hujjatlarni tuzish, yuritish va hujjatlarni arxivlashtirish yuzasidan qonun hujjatlari talablarini fermer xo'jaligi faoliyatida hisobga olish qoidalariga rioya etmaslik oqibatlari haqida ma'lumot beriladi.

Fermer xo'jaliklarida ichki hujjatlashhtirish tizimini shakllantirish, ochiladigan kitoblar namunalari, hujjatlarni ichki arxivlashtirish va belgilangan vaqtida davlat arxiviga topshirishga tayyorlab borish bosqichlari asoslab beriladi.

«Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuning 3- moddasida fermer xo'jaligiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir».

Fermer xo'jaligi xususiy mulkdorga tegishli bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlarga xos huquq va majburiyatlar tadbiq etiladi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lib turgan qonunlar, qonunosti hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlar talablari daxldorligiga va tegishliligiga ko'ra amal qilinishi kerak. Shu jumladan, fermer xo'jaligiga yo'llangan hujjatlar, murojaatlar va talablar hamda fermer xo'jaligining ichida yuritiladigan hujjatlarni tuzishda ma'lum bir qoidalarga rioya qilinishi kerak. Bunday qoidalarga rioya qilish zaruriyati, ushbu hujjatlarning kelishi, ketishi va xo'jalik ichida yuritilishi oqibatlariga mas'uliyatni shakllantirish lozimligidan kelib chiqadi.

Fermer xo'jaligida hujjatlar bilan ishslashni tartibga solish uchun 3 xil ko'rinishdagi ro'yxatga olish kitoblarini yuritishni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Fermer xo'jaligiga qabul qilingan hujjatlarni ro'yxatga olish kitobi.

2. Fermer xo'jaligidan jo'natilgan hujjatlarni ro'yxatga olish kitobi.

3. Fermer xo'jaligining ichki hujjatlarini ro'yxatga olish kitobi.

Ro'yxatga olish kitoblari fermer xo'jaligining katta-kichikligi, keladigan va ketadigan hujjatlarning soniga qarab 1 ta devonxona daftarida jamlanishi ham mumkin. Har bir yil uchun esa alohida-alohida ochilgani ma'qulroq.

Fermer xo'jaligiga qabul qilingan hujjatlarni ro'yxatga olish kitobini yuritishda kelib tushgan hujjatlarni quyidagi tartibda nazorat qilish mumkin. Dastlab hujjat solingan konvert yoki paket bus-butunligi yoki shikastlanmaganligi nuqtai nazaridan ko'zdan kechiriladi. Keyin hujjat varaqlari soni va ilovalari butligi tekshiriladi. Hujjatlar yetishmasligi yoki yaroqsiz holatga kelib qolganligi yuzasidan tegishli dalolatnoma tuziladi yoki xat yo'llagan tashkilotdan hujjatlarning yetishmagan qismini olish choralar ko'rildi. Hujjatlar to'la hajmda ekanligiga ishonch hosil qilingach belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi va tegishli choralar belgilanadi.

Fermer xo'jaligidan jo'natilgan hujjatlarni ro'yxatga olish kitobini yuritishni tashkil qilishda fermer xo'jaligi nomidan jo'natiladigan xat va boshqa hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi va mazmunan xo'jalik jarayoniga mosligi nuqtai nazaridan nazorat qilinadi. Bunda jo'natilayotgan hujjatlar mazmuni bo'yicha aniqligi, to'liqligi va, albatta, o'sha matndagi hujjatlarning nusxalari xo'jalikning o'zida qolishiga ham e'tibor berish kerak. Hujjatlar yig'majildiga pochta bo'limining kvitansiyasi yoki tilxat olib topshirilganligi to'g'risidagi hujjatlar ham qo'shib tikilishi kerak.

Fermer xo'jaligining ichki hujjatlarini ro'yxatga olish kitobini yuritish fermer xo'jaligi Ustaviga asosan fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan tartib asosida olib boriladi.

Bunda ichki jarayonlarni hujjatlashtirib ro'yxatga olishda fermer xo'jaligi xodimlari ham bevosita ishtirot etishlari kerak va shunda xodimlarning o'rtasida daromadlarni taqsimlashda kelishmov-chiliklarning oldi olinadi.

Fermer xo'jaligi faoliyatiga doir hujjatlarni hisobga olishga rioya etmaslik, masalaning mazmunidan kelib chiqadigan oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Albatta kelgan hujjatlarni yoki jo'natilgan hujjatlarni ro'yxatga olish bilan muammo to'liq yechilib qolmaydi. Xo'jalik jarayonidagi asl mazmun uning ifodasi shaklidan ustunlik qiladi. Binobarin, hujjatlarni belgilangan tartibda quyidagicha hisobga olinadi:

- hujjatni ro'yxatga olish;
- ijrosi yuzasidan chora ko'rish;

- xo'jalik jarayonida ma'lumot uchun foydalanish;
- hujjat mazmuni bo'yicha ijroni nazoratga olish, ijro intizomiga rioya qilish;
- muammoni to'liq nazorat qilish.

Demak, hujjatlarni hisobga olish faqat rasmiyatchilikdan iborat bo'lib qolmasdan, balki xo'jalik jarayoniga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Qilingan ishlarni isboti sifatida ko'rindi va ushbu holatga taalluqli masala yuzasidan uning oqibatlari tahlil qilinganda himoya vazifasini o'taydi. Muhimi, hujjatning taqdiriga befarq bo'lmasdan faol xo'jalik jarayonida bo'lismeni ta'minlaydi. Natijada fermer xo'jaligiga qabul qilingan hujjatlarga ham, fermer xo'jaligi nomidan jo'natilgan hujjatlarga va ichki xo'jalik hujjatlariga nisbatan ham faol munosabat saqlanib qoladi.

Fermer xo'jaligi faoliyatiga doir hujjatlarning hisobini yuritishda hujjatlarni davlat arxiviga tayyorlab borish va hujjatlarning idoraviy arxivini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun fermer xo'jaligining xususiyatlarini hisobga olgan holda hujjatlarni tizimlashtirish va yig'majildini shakllantirish amalga oshirilishi kerak. Bunda hujjatlarning qaysi belgilarga qarab turkumlanishi (asosiy faoliyat, ishlab chiqarish bo'yicha buyruqlar, shaxsiy tarkib bo'yicha buyruq, arizalar, murojaatlar va boshqalar) va ularni saqlash muddatlarini belgilashga e'tibor beriladi.

Yuqoridaagi tadbirlar natijasida barcha hujjatlar 2 guruhg'a ajratiladi.

1. Davlat arxiviga topshiriladigan hujjatlar ro'yxati.
2. Idoraviy arxivda saqlanadigan hujjatlar ro'yxati.

Davlat arxiviga topshiriladigan hujjatlar Davlat arxivi muassasalarining talablariga javob beradigan holatda bo'lishi va lozim darajada rasmiylashtirib borilgan bo'lishi kerak. Davlat saqloviga qabul qilinayotgan hujjatlar qaysi davrga tegishli bo'lsa, o'sha davr audit tekshiruvidan o'tkazilganligi, tekshiruv natijasiga ko'ra qonunbuzarlik holatlari aniqlanmagani, hech kim moddiy javobgarlikka tortilmaganligi, ya'ni topshirilayotgan hujjatlar yuzasidan nizo ehtimoli mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot beriladi. Shundan keyin davlat saqloviga qabul qilinadigan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibotlari bajarilgach shartnomaga asosida hujjatlar Davlat arxiviga topshiriladi

Fermer xo'jaliklarida idoraviy arxivini tashkil qilish jarayoni shundan iboratki, bunda qaysi hujjatlarga ahamiyati va mazmuni jihatidan qanday muhimlik qiymati belgilanadi, mazkur hujjat necha

yil saqlanadi, qaysi vaqtidan keyin o'z ahamiyatini yo'qotadi, qachon dalolatnoma tuzilib yo'q qilinadi, yo'q qilishga ajratilgan hujjatlar qaysi usulda yo'q qilinadi: masalan, yoqib yuborish, xo'jalik maqsadlariga ishlatish yoki makulaturaga topshirish kabi jarayonlai barchasi mas'ul va ijrochi shaxslar belgilangan holda oqibati oydinlashtirilgan tadbir sifatida fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan tadbiriy choralar oqibatida javobgarlik mas'uliyati mulkdor sifatida unga tegishli bo'ladi.

«Fermer xo'jaliklarida ichki hujjatlarni tuzish, yuritish va arxivlashtirib tayyorlab borishga ko'maklashish xizmatlari» manfaat-dor fermer xo'jaliklariga 3 bosqichda tashkil etiladi.

Birinchi bosqich «Fermer xo'jaliklarida ichki hujjatlarni tuzish, yuritish va arxivlashtirib tayyorlab borishga ko'maklashish xizmatlari» nomli kitobchani yetkazib berishdan iborat bo'ladi.

Ikkinci bosqichda qo'shimcha axborot maslahat xizmatlari ko'rsatiladi. Ish yuritish, hujjatlar aylanmasi va Davlat arxivi muassasalarining talablari to'g'risida maxsus adabiyotlar va qonun hujjatlaridan ko'chirmalar beriladi.

Uchinchi bosqich yakuniy bosqich bo'lib, bu bosqichda hujjatlarni ro'yxatga olish namunalari, fermer xo'jaligi boshlig'inining ichki hujjat yuritishni tashkil qilish bo'yicha namunaviy tadbirlar loyihasi va boshqa tashkiliy tadbirlari asoslab beriladi. Xizmat ko'rsatish ushbu jarayonni to'liq tartibga solish va tegishli ishlarni tashkillashtirish bilan yakunlanadi.

Hozirgi vaqtida aksariyat fermer xo'jaliklari boshliqlari hujjatlarni Davlat arxiviga topshirishga e'tibor bermayaptilar, natijada o'z xo'jaligining hujjatlari ishonchli saqlanishiga besarq bo'lmoqdalar. Vaqt(soati kelib xo'jalikda ishlagan xodimlar pensiyaga chiqishi yoki ijtimoiy himoyasi masalasi yechilganda muammo kelib chiqishi mumkin.

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy korxonasiiga

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

“\_\_ ♂ \_\_\_\_ 200\_\_\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Fermer xo'jaliklarida ichki hujjatlarni tuzish, yuritish va arxivlashtirib tayyorlab borishga ko'maklashish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Hujjatlarni ro'yxatga olish kitobi namunalari va arxivlashtirishga tayyorlab borish tartibotlari.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Fermer xo'jaligida ish yurituvchi kitoblar ochilganligi va hujjatlarni arxivga tayyorlab borishning tashkillashtirilganlik darajasi.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyili.	Xo'jalikning moliya-xo'jalik faoliyatiga doir alohida xususiyatlari.
5.	Mavjud muammo yechim topganiga qadar.

«Buyurtmachi»

\_\_\_\_\_ F.I.O. lavozimi

---

---

**20. Fermer xo‘jaligi boshliqlarining kasbiy  
malakasini oshirish va intellektual salohiyatini  
yuksaltirishga ko‘maklashish xizmatlari**

---

---

Quyida qonun hujjatlari talablari bo'yicha kasbiy malaka oshirishning ahamiyati, kasbiy malaka oshirmaslik va intellektual salohiyatni yuksaltirishga intilmaslik oqibatlari haqida ma'lumot beriladi. Kasbiy malaka oshirish uchun har yili o'rganilib boriladigan ma'lumotlar bazasi, qonun hujjatlari mazmuni, qonun hujjatlari mazmunidan kelib chiqadigan huquqlarni talab qilish, majburiyatlarni bajarish, huquqlar va majburiyatlarga nisbatan talab va mas'uliyatni kuchaytirish muammolari to'g'risida so'z yuritiladi.

Fermer xo'jaliklari boshliqlarining huquqiy, iqtisodiy va agrotexnologik bilimlarini oshirish, pirovardida ularning kasbiy malakalari oshishiga va intellektual salohiyatning yuksalishiga olib keladi. Bilim olish huquqi, shu jumladan, malaka oshirish huquqi ham konstitutsiyada kafolati berilgan insoniy huquqlardan biridir. Bu huquqdan har bir O'zbekiston fuqarosi o'zining kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeい va kasbidan qat'iy nazar foydalana oladi. Bilim olish huquqidан foydalanishning biron-bir tarzda cheklanganligi hali kuzatilmagan va bunday bo'lishi ham mumkin emas.

Shu bilan birga kasbiy bilim malakasini oshirish davlat, jamiyat va alohida shaxs uchun bab-baravar muhim ahamiyatga ega. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuning «Tadbirkorlik faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash» deb nomlangan V bobida shunday deyiladi:

«41- modda. Davlat boshqaruв organlarining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash sohasidagi vakolatlari.

Davlat boshqaruв organlari o'z vakolatlari doirasida:

- tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;
- tadbirkorlik faoliyati subyektlari o'rtasida axborot va tushuntirish ishlarini, konsalting, lizing, sug'urta va boshqa xil xizmatlar tuzilishi rivojlantirilishini tashkil etadi;
- tadbirkorlik faoliyati subyektlariga kadrlarni tayyorlashda, qayta tayyorlashda va ularning malakasini oshirishda ko'maklashadi.

47- modda. Tadbirkorlik faoliyati uchun kadrlar tayyorlashni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash.

Davlat tadbirkorlik faoliyati subyektlari kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi rivojlantirilishini ta'minlaydi. Qishloq joylardagi tadbirkorlik faoliyati subyektlarining kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshirayotgan muassasalar va tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlardan foydalanadilar».

Demak, yuqoridaqilardan ko rinadiki, fermer xo'jaligi boshlig'ining yoki xo'jalik xodimlarining kasbiy malakasi yuqori bo'lishi xo'jalik yuritishning rentabelli bo'lismi hamda huquqlari va qonunun manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi.

Kasbiy malakaning past bo'lishi, aksincha, qonun buzilishlarga moyillikni keltirib chiqaradi, qonun buzilishlarning mohiyati va oqibatlari yetarli idrok etilmaydi, binobarin, xo'jalik faoliyati natijasi ham shunga yarasha past bo'ladi.

«Fermer xo'jaligi boshliqlarining kasbiy malakasini oshirish va intellektual salohiyatini yuksaltirishga ko maklashish xizmatlari»ning mazmuni fermer xo'jaligi boshliqlarining va xodimlarining kasbiy malakasini oshirish uchun kerak bo'ladigan axborot resurslari bilan ta'minlashdan iborat bo'lib xizmat ko'rsatish 3 bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqich «Fermer xo'jaligi boshliqlarining kasbiy malakasini oshirish va intellektual salohiyatini yuksaltirishga ko maklashish xizmatlari» deb nomlangan kitobchani yetkazib berishdan iborat.

Ikkinci bosqichda qo'shimcha axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatiлади.

Uchinchi bosqichda «Bozor iqtisodiyoti asoslari» mavzusidagi maxsus axborot resurslari turkumi chop qilingan va elektron ko'rinishda taqdim etiladi.

Ta'kidlash o'rinaliki, bozor iqtisodi rivojlangan sari xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaida tovar va xizmatlarni ayrboshlash kuchayib boradi. Fermer xo'jaligi ham mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida munosabatlarga kirishar ekan kasbiy malakani oshirib borish dolzarb masala bo'lib qolaveradi. Shu sababli ushbu xizmat turidan foydalangan fermer o'z qiziqishlarini qanchalik ochiq ifoda qila olsa, shunchalik ushbu xizmatdan samarali foydalana oladi. Aks holda xizmat ko'rsatuvchining tashabbusi bilan taklif qilingan intellektual resurslarga qanoatlanishiga to'g'ri keladi.

«Guliston Agrokonsalting»  
xususiy·korxonasiiga

tomonidan

BUYURTMA № \_\_\_\_

“\_\_” \_\_\_\_ 200\_\_ - yil

1. Xizmat turlari.	Fermer xo'jaligi boshliqlarining kasbiy malakasini oshirish va intellektual salohiyatini yuksaltirishga ko'maklashish xizmatlari.
2. Fermer xo'jaligini qiziqtiradigan holatlar.	Kasbiy malakani oshirishga zarur bo'lgan eng so'nggi iqtisodiy-siyosiy axborot resurslari.
3. Subyekt tomonidan xizmatda foydalanish uchun beriladigan hujjatlar ro'yxati.	Fermer xo'jaligi a'zolarining mutaxassisligi va bilimi darajalari to'g'risidagi ma'lumotlar.
4. Boshqa holatlar: xizmat yuzasidan bog'lanish davriyligi.	Fermer xo'jaligi a'zolarining qiziqishlari va xo'jalik faoliyatini agrotexnologik qoidalarga mos tashkil eta organliklari darajasi to'g'risida ma'lumot.
5.	Qo'yilgan muammo yechilganiga qadar har haftada.

«Buyurtmachi»

\_\_\_\_\_ F.I.O. lavozimi

**Savol va topshiriqlar**

1. Ikkinchisi qismidagi yigirmata risolaning har biri haqida tushuncha bering.
2. Risolalarda tadbirdorlik faoliyatiga oid qaysi muammolar haqida so'z boradi?
3. Tadbirkorlik Ustavi fondlari qanday tashkil etiladi?
4. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda monitoring o'tkazishning ahamiyati haqida gapirib bering.
5. Fermer xo'jaliklarida mehnat munosabatlari qanday tashkil etiladi?
6. Fermer xo'jaliklarida axborot olishning ahamiyatini tushuntirib bering.
7. Lizingdan foydalanish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish zarur?

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *I.A. Karimov.* Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy taraqqiyotimizning pirovard maqsadidir. Toshkent. «O'zbekiston», 2007.
2. *I.A. Karimov.* O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lli. Toshkent. «O'zbekiston», 1992.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tadbirkorlikka oid qonun va hujjatlari to'plami. 1—4- jild. Toshkent. «Adolat» 2005.
4. *N. To'xliyev, Q. Haqberdiyev, Sh. Ermatov, N. Xolmatov.* O'zbekiston iqtisodi asoslari. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2006.
5. «Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasining Ustavi.

## MUNDARIJA

1. So'zboshi .....	3
--------------------	---

### BIRINCHI QISM

#### I bob. Bozor infratuzilmalari haqida tushuncha.

1. Bozor infratuzilmasi turlari va ularning bozor munosabatlardagi o'rni.....	5
2 . Konsalting va konsalting xizmati.....	6
3 . Konsalting faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari. O'zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonuni.....	8

#### II bob. Agrokonsalting.

1. Agrokonsalting xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish.....	8
2. Agrokonsalting xizmatini amalga oshiruvchi firma va korxonalar.....	14
3. «Guliston Agrokonsalting» xususiy korxonasingning konsalting mahsulotlari va xizmat turlarining qisqaacha tavsifi.....	15
4. Konsalting faoliyatiga talabni shakllantirish omillari: muammo va yechimlar.....	28

#### III bob. Fermer xo'jaliklari faoliyatini Axborot-konsalting biznesi orqali barqarorlashtirish texnologiyalari.

### IKKINCHI QISM

#### Fermerlar uchun agrokonsalting xizmatlari

1. Ta'sis hujjatlari loyihalarini tayyorlab berish va uni ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish xizmatlari.....	45
2. Fermer xo'jaliklari faoliyatida Ustav fondlari miqdorini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari.....	51
3. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda agrotexnika talablariga rivoja etishni texnologik karta va agrotexnologik davr bo'yicha tuziladigan biznes-reja asosida tashkillashtirishga ko'maklashish xizmatlari.....	55
4. G'oz va don ekintilarini navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rivoja etilishiga va davlat chtiyojlari uchun yetishtiriladigan qishloq xo'jalik ekinlarining joylashtirilishida fermerning muktdorlik mas'uliyatini shakllantirishga ko'maklashish xizmatlari.....	65
5. Yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rivoja etishga hamda yer ijara shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo'lувчи holatlarni bartaraf etishga ko'maklashish xizmatlari.....	73
6. Fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda ichki monitoringni yo'lga qo'yishga ko'maklashish xizmatlari.....	81

7. Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishni va moliya-xo'jalik muammolarining yechimini ta'minlaydigan «Fuqarolik huquqiy tusdagisi shartnomalar loyihalari»ni manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatiga tadbiq etilishini tashkillashtirish xizmatlari.....	87
8. «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro munosabatlardagi ziddiyati holatlarni maqsadli kuzatish» xizmatlari .....	95
9. «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun «Uya»li ekspert uslubini joriy qilish orqali eksportni tashkillashtirish xizmatlari.....	101
10. «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun «Uya»li lizing (sublizing) uslubini joriy qilish orqali lizingdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish xizmatlari».....	107
11. Qishloq tumanlarida (cho'l zonasida) terak va yog' ochbop daraxtlar o'stirishni o'zaro manfaatli infestitsiya vositasi sifatida tashkil qilish va uning mas'uliyatini muvozanatlashtirish xizmatlari.....	113
12. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni «Boy berilgan foydani hisoblash uslublari» bilan ta'minlash va javobgarlik mas'uliyatini shakllantirish xizmatlari.....	121
13. Xorijiy va mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar va investorlar bilan amaliy aloqalarni «Aniq marizil» utsulida tashkillashtirish xizmatlari.....	127
14. Qishloqda biznech muhitni takomillashtirish, tashkiliy tarqoqlikni bartaraf etish va biznes xulqi ko'nikmalarni rivojlantirishni uslubiy ta'minlash xizmatlari.....	131
15. Fermer xo'jaliklarida mamlakat Agrar siyosatini o'tkazishda axborot almashinuvni ta'minotini faollashtirishga uslubiy ko'maklashish xizmatlari.....	141
16. «Asosiy qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha agrotexnika talablari bajarilishi yuzasidan agrotexnologik davrlarga mos muvofiqlashtirish doimiy monitoring jadvali dinamikasini tuzib borilishiga ko'maklashish va ma'lumotlarni manfaatdor manzillarga uzatish» xizmatlari.....	151
17. Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarni to'g'ri tashkil etish va xodiimlar daromadini qonuniy shakllantirishda fermer xo'jaligi boshlig'ining mas'uliyatini ta'minlashga ko'maklashish xizmatlari.....	157
18. Qonun hujjatlarida fermer xo'jaliklariga berilgan huquqlardan foydalannmaslik va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari to'g'risida qiyosiy tahlil ma'lumotlari bilan ta'minlab borish xizmatlari.....	163
19. Fermer xo'jaliklarida ichki hujjatlarni tuzish, yuritish va arxivlashtirib tayyorlab borishga ko'maklashish xizmatlari.....	167
20. Fermer xo'jaligi boshliqlarining kasbiy malakasini oshirish va intellektual salohiyatini yuksaltirishga ko'maklashish xizmatlari.....	173
Adabiyotlar ro'yxati.....	177

# **Yuldashev Abduazimovich NAVRUZOV**

## **IQTISOD VA TADBIRKORLIK**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

*Muharrir To'lqin Alimov*

*Rashon Shuhrat Odilo*

*Baptyym maxsir uyg'un so'ruhov*

*Azrik muharrir Yelena Jolochko*

*Musahhih Mahmuda Usmonova*

*Kompyuterda sahifalovchi Dilnoza Mansurova*

Bosishga ruxsat etildi 11.09.2008. Bichimi 60x90<sup>16</sup>/, Tayms TAD garniturasi.  
Shartli b.t. 11.25. Nashr b.t. 9.2. Sharhnomha № 7-2007. 1441 nusxada. Buyurtma №

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

«NOSHIR-FAYZ» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent tumani, Keles shahar, K. G'ofovov ko'chasi, 97-uy.

65.9(O')09  
N14

**Navro'zov Yu.A.**

**Iqtisod va tadbirkorlik:** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'll./Yu.A. Navro'zov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. —T.: Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 — 180 b.

**BBK 65.9(5O')09**